

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRILIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SH.I.BOTIROVA

**ADABIYOT NAZARIYASINI
O‘QITISH METODIKASI**

Darslik

«BOOK TRADE 2022»
TOSHKENT – 2022

UO‘K: 37.015.3(075.8)

KBK: 88.4ya73

Sh.I.Botirova.

Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi. –T.: «BOOK TRADE 2022»
nashriyoti. 2022. – 172 bet.

Ushbu darslikda xalq og‘zaki ijodi, qadimgi asotir, rivoyat va afsonalar, maqol, masal va topishmoqlarni o‘rganish metodikasi, hikoya janri, hikoya turlari, hikoyalarni mumtoz va zamonaviy o‘qitish metodikasi, qissa janri namunalarini o‘qitish usullari, roman va uning turlari, romanlarni o‘qitishning dolzarb va maqbul usullari, she‘r va uning tuzilishi, aruz va barmoqdagi she‘rlarni o‘qitish bo‘yicha zamonaviy usullar, mumtoz she‘r unsurlari va ularni o‘rganish metodikasi, tasavvuf adabiyoti, qasida janri, pandnoma asarlar, yodnomalar, hajviyalar, zamonaviy modern o‘zbek she‘riyati va dramatik asarlarni innovatsion va zamonaviy metodlar bilan o‘qitish, bo‘lajak o‘qituvchilarga badiiy adabiyotni o‘qib – o‘rganishning zamonaviy shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik hamda metodik imkoniyatlari o‘z aksini topgan.

Darslik kredit modul asosida ta‘lim oluvchi o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistrarlari, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Muallif

pedagogika fanlari doktori, dotsent **Sh.I.Botirova**

Taqrizchilar

pedagogika fanlari doktori, professor **S.Matchonov,**
N.Soatova

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
2022-yil 19 iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashrga
tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8821-0-2

KIRISH

Insoniyat azal - azaldan borliq hodisalarini bilishga, o'zi yashayotgan muhitni go'zallashtirishga intiladi. Bu intilish zahirida mukammallikka erishish istagi turadi. Koinot sultoni sanalgan inson komillikka erishish uchun muttasil yo'l izlaydi. San'at, adabiyot, ilm - fan aslida kishilarning komillikka intilish yo'llaridir. Ular odamlarning qalb quvvati va aql - tafakkuri qudratini namoyon etadigan o'ziga xos maydon sanaladi. San'at, adabiyot, ilm - fan bir - biri bilan mustahkam bog'liq hodisalardir. Ular orasida jiddiy farq - tafovutlar bo'lsa-da, san'at ilm - fanni yoki ilm - fan san'atni butkul inkor qilmaydi. Aksincha, ular bir - biri bilan uzviy bog'langan holda, insonning komillashishiga xizmat qiladi.

Insonning komillashishiga, uning o'zligini anglashiga ta'sir ko'rsatadigan vositalar orasida, ayniqsa, adabiyot alohida ajralib turadi. Chunki adabiyot insonning qalb quvvati va aql - tafakkuri rivojini o'ziga xos tarzda mujassamlashtiradi. O'nda qalbning hissiyot, to'yg'ulari, aqlning mantiqli mushohada, mulohazalari ajoyib tarzda o'yg'o'nlashgan bo'ladi. Adabiyot asarlarida kishilarning his - tuyg'ulari, fikr - mulohazalari obrazlar orqali akslanadi. His - to'yg'ular qalbg'a xos kechinmalar sanalsa, fikr - mushohada esa miya mulki bo'lgan ong - aqlning mahsullaridir.

Mazkur o'quv qo'llanma bo'lajak o'qituvchilarga badiiy adabiyotni o'qib - o'rganishning zamonaviy shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik hamda metodik imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Talabalarga o'zbek va jahon adabiyotini o'qitish metodikasining ilg'or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini; adabiyotshunoslikga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini; adabiy-nazariy tushunchalarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy - estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol totirishga o'rgatishdan iborat.

O'quv qo'llanmada adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fanining ob'ekti va predmeti, fanining ta'lim tizimida tutgan o'rni, adabiy-nazariy tushunchalarining ta'lim tizimida berilishi, fanni o'qitish metodlari va usullari, adabiyot nazariyasini o'qitish fani bo'yicha

yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarning xususiyatlari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy - metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi, adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish, masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari, adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo'llari va madaniyati, ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishida. Bundan tashqari, adabiy-nazariy tushunchalarning o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslarini, adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini bilishi, badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra tahlil qila olish, o'zbek adabiyoti fani bo'yicha talabalarni mustaqil tahsil olishga yo'llash, ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olish bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishadi.

“ADABIYOT NAZARIYASINI O‘QITISH METODIKASI” FANINING O‘RGANISH OBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFASI.

Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarga badiiy adabiyotni o‘qib-o‘rganishning zamonaviy shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik hamda metodik imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi fanining vazifasi – talabalarga o‘zbek va jahon adabiyotini o‘qitish metodikasining ilg‘or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini; adabiyotshunoslikga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini; adabiy-nazariy tushunchalarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning badiiy – estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol totirishga o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarining shaxsiy sifatlarini baholashga o‘rgatish jarayonini tashkil etish usullari, metodlarini, ularni mustaqil mulohaza yuritishga undash va muammolarning yechimiga ijodiy yondashishga o‘rgatish, mustaqil tarzda xulosalar chiqarishga, bunda ularning verbal-lingvistik intellektini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimidan foydalanishga o‘rgatiladi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasini xorij tajribalaridan foydalanib amalga oshirishga o‘rgatish nazarda tutilgan:

1. Boshqa hech bir fan tomonidan o‘rganilmaydigan tadqiqot predmetiga egalik;
2. Mazkur tadqiqot predmetning ijtimoiy zarurligi;
3. Ilmiy tadqiqot olib borishning o‘ziga xos metodlari mavjudligi.


Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi faniga shu shartlarga asosan yondashiladigan bo‘lsa, uning o‘ziga xos o‘rganish ob‘yektini borligini qurish imkoni bo‘ladi. Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi-adabiyot o‘quv fanini o‘qitish jarayonining qonuniyatlarini kashf etishga yo‘naltirilgan fandir. Maktabda adabiyot o‘rganishning qonuniyatlari va yo‘llari bilan na adabiyotshunoslik, na didaktika, na psixologiya shug‘ullanadi. Adabiyot metodikasi adabiyot predmetining prinsiplarini, metodlarini ishlab chiqish va tadqiq etish bilan, sinfdan

va undan tashqarida badiiy asarni o'qishni uyushtirish, yo'llarni topish bilan sinfdan va maktabdan tashqarida adabiyot tadbirlarni o'tkazish yo'llari bilan, yosh avlodni kitobga muhabbat ruhida tarbiyalash masalalari majmuasi bilan shug'ullanadi. Boshqa biron bir fan ayni shu masalalar bilan shug'ullanmaydi.

Adabiyot nazariyasini o'qitish jarayonini tadqiq etishning jamiyat uchun ahamiyati bormi? Adabiyot bu-so'z san'ati. Binobarin, san'atni qoliplarga moslashtirish uning taraqqiyotiga to'siq bo'lish mumkin-ku. Bu hodisaning har qanday holatga tatbiq qilish mumkin bo'lgan universal jihati unchalar ko'p bo'lmaydi. Agar shunday jihat bo'lsa, adabiyot o'z mohiyatini yo'qotadi. To'g'ri, adabiyot-san'at. Ammo adabiyotni o'rganish jarayoni adabiyot o'zidan farq qiladi bu jarayonning qonuniyatlarini kashf etish, universal jihatlarini topish mumkin.

Adabiyot nazariyasini o'qitishdagi eng ilg'or tajribalarni deyarli barcha darslarda qo'llaniladigan universal qonuniyatlarni kashf etmay turib yoshlarga adabiy tarbiya berish haqida gapirish ham ortiqcha. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasida ana shu eng umumiy jihatlar o'rganiladi, adabiyotni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar ishlab chiqiladi. Ammo «universal qoidalar» tushunchasini o'zgarmas aqida tarzida qabul etmaslik kerak. Negaki, pedagogika ilmi yoppa uneversalizmga qarshi. Universalizm deyilganda adabiyot ta'lim jarayonida ko'proq ishlatiladigan usullar, yechimlar nazarda tutiladi. Har bir o'qituvchining u yoxud bu pedagogik muammoni o'z tajribasi va bilimi darajasidan kelib chiqib, o'zicha hal etishni ko'zda tutgan holda muayyan umumiy qonuniyatlarni topish va ulardan foydalanib, adabiy ta'limni yaxshiroq yo'lga qo'yish mumkin.

Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fani adabiy ta'lim jarayonini o'rganish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish hamda bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishning o'ziga xos metodlariga ega. Kuzatish, anketa so'rovi, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari qator ilmiy tadqiqot metodlari borki, ular ko'magida adabiyot metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.



Adabiyotni o'qitish uchun maxsus fan kerakmi? Jamiyatda shunga ehtiyoj bormi? Ta'lim bosqichlarida adabiyot fanini yaxshi o'rganish va o'rgatish uchun adabiyot muallimlari qayg'urishi kerakmi yoki adabiyotshunoslarmi, pedagoglarmi yoki ruhshunos-psixologlarmi? Albatta, bunday savollarning keti uzilmaydi. Ular kecha berilgan edi, bugun ham berilmoqda, ularning ertaga berilmay qolishi amri mahol. Adabiyot o'qitish, adabiy ta'lim, boshqa fanlarni o'qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Shunga ko'ra uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar kam emas. Demak, ular Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasini ham san'at bilan tenglashtirishadi. Amaliyotchilik nuqtayi nazaridan qaraydiganlar esa Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasini darslarning o'tilishiga bevosita yordam beradigan, har bir darsning yaxshi va samarali bo'lishiga amaliy ko'mak bera oladigan soha deb bilishadi. Ma'lumki, adabiyot ta'limning turli bosqichlarida xuddi boshqa predmetlar kabi o'sib kelayotgan avlod-o'quvchilarga mo'ljallangan. Ta'lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda – o'sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma'naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot bilan teng keladigan birorta soha yo'q deb ayta olamiz. Badiiy adabiyot alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. U jamiyatning o'z-o'zini anglashida, uni insonparvarlashtirishda beqiyos imkonlarga ega. Adabiyot ijtimoiy ongning ko'rinishlaridan biri sifatida o'zida xalq xotirasini mujassamlashtiradi, uning axloqiyma'naviy qadriyatlarini asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga olib o'tadi. Shunga qaramay, badiiy adabiyotga bo'lgan munosabatlarning ham nihoyatda xilma-xilligini, ularning orasida «bevosita naqd foyda»ni ko'zlab o'qish

tamoyillarining ham mavjudligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Biz badiiy adabiyotni o'rganish yo'llarini ham bilishimiz zarur bo'ladi. Shunday ekan, bu fan o'quvchi-yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari, bu o'ziga xosliklarning adabiy ta'lim bilan bog'liq jihatlari haqida mulohaza yuritadi. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fani o'z nomiga munosib ravishda o'quvchilarga badiiy adabiyot bilan yaqinlashish, oshno bo'lish va ularni tahlil qilish yo'llarini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Ayni paytda u kitob ustida ishlashni, badiiy o'qishni tashkil etishni, o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarining shakllanish va rivojlanish yo'llarini ko'rsatishi bilan ham e'tiborlidir. Ayni shu fan adabiyot darslarini tashkil qilish, bu darslarda qo'llanadigan metod va usullar, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarini shakllantirish va rivojlantirish haqida tasavvur uyg'otadi, shu haqidagi bilimlar tizimini taqdim etadi. Mana shular zahirida esa o'quvchilarga jamoaviy, guruh-guruh yoki individual yondashishning yo'l-yo'riqlarini beradi.

Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fani birinchi navbatda bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining kasbiy shakllanishlari va dastlabki mahorat qirralarini o'zlashtirishlari uchun imkon beradigan fandir. Bu fan o'quvchi yoshlarning adabiy rivojidagi o'ziga xos qonuniyat va qoidalarning anglab yetilishi uchun omil bo'ladi. Uning o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining asoslarini tushunishda muhim bo'g'in ekanligi ham katta ahamiyatga ega. Adabiyot o'qitish metodikasi fani bu fanning tarixi va rivojlanish bosqichlarini ko'rsatish, bu bosqichlarning har biriga xos bo'lgan asosiy unsurlarni tahlil qilish, badiiy asarni tahlil qilish va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e'tibor berish, ta'lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o'zini emas, balki ularga bog'liq ravishda adabiy-nazariy tushunchalarni ham o'rganish zaruriyatini va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish, adabiyot darslarini tashkil etish, adabiyotdan sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish yo'llarini ko'rsatish bilan kifoyalanmasdan o'quvchilarning o'z ustilarida muntazam ishlash, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish yo'llarini ko'rsatishi bilan ham muhimdir. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fani mustaqillik tufayli o'zining asl o'zanlarini topib bormoqda. Endilikda adabiyot o'qitish nazariyasi va amaliyotida

bir xillikdan qochish, rang-baranglikka intilish tamoyillarining tobora kengroq tarzda koʻzga tashlanayotgani seziladi. Bu adabiy hodisalarga nisbatan estetik yondashuvning ustuvorlashib borayotganida, madaniy merosga nisbatan munosabatlarning haqqoniylashayotganida, koʻplab adabiy hodisalarga nisbatan baholarning oʻzgarib, ularning oʻzlariga xos va oʻzlariga mos xususiyatlaridan kelib chiqilayotganligida namoyon boʻlmoqda. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy taʼlim tizimi uchun yaratilayotgan koʻplab darsliklar, metodik hamda oʻquv qoʻllanmalarining yangi avlodlari yuzaga kelmoqda.

Birinchi marotaba adabiy taʼlimning davlat taʼlim standarti yaratildi. Uning takomillashish jarayoni esa uzluksiz davom etmoqda. Ushbu jarayonda anʼanaviy taʼlimdagi eng yaxshi yutuqlarni saqlab qolgan holda jahon ilm-fani, xususan, psixologiyasi, pedagogikasi hamda metodikasi sohasidagi eng yangi va yaxshi namunalarga uygʻunlashish tamoyili kuzatilmoqda. Ayniqsa, oʻqitishdagi taʼlimiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar uygʻunligi metodologik asos sifatida qabul qilinmoqda. Bularning adabiy taʼlimdagi anʼanaviy yoʻnalish bilan zamonaviy talablarni oʻzaro uygʻunlashtirishning oqilona yoʻli sifatida qabul qilinayotganligi bejiz emas. Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va oʻzgarishlar adabiyotning oʻzida ham, uni oʻqitish sohasida ham yangilanishlarni, yangicha yondashuvlarni taqozo etayotgani aniq. Shuning uchun ham kun tartibiga yangi axborot texnologiyalaridan, zamonaviy pedadagogik texnologiyalardan foydalanish muammosining koʻndalang boʻlayotgani tasodifiy emas. Bu narsa taʼlim metodlaridan boshlab darsning tarkibiy qismlarigacha, adabiy taʼlim mazmunidan boshlab oʻqituvchi va oʻquvchining munosabatlarigacha, oʻquv dasturlari, darsliklardan boshlab adabiyot darslarini tashkil etishgacha boʻlgan muammolarning barchasiga bir xilda daxldor boʻlib turibdi. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va umuman texnika olami inson hayotida tobora kengroq va mustahkamroq oʻrin olib borayotgan bir zamonda kitob oʻqish, kitobxonlik muammosining yanada dolzarblik kasb etishi sir emas. Zero, kitob va kitobxonlik inson maʼnaviy olamining ajralmas qismi ekan, kitob oʻqishni oʻrganish, kitobxon maʼnaviyatini shakllantirish taʼlim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy vazifa boʻlib qolaveradi.

Oʻquvchi yoshlar har qanday kitobni oʻqiganda unga ongli, eng

muhammadi, estetik munosabat bildiradi oladigan, undan ta'sirlanadigan, zavqlanadigan darajaga yetishi uchun birinchi navbatda kitob o'qilishi, zavq bilan o'qilishi, kitobxon undan tegishli huzur va ruhiy qanoat tuyishi kerak. Buni ixcham tarzda - estetik to'yinish deb ifodalash mumkin bo'lar. Ammo bu daraja orzu, xolos. Unga erishmoq uchun yangi-yangi ish usullarini, adabiy tahlilning munosib shakl va ko'rinshlarini, badiiy matn mazmuniga, mohiyatiga yetishning turfa yo'llarini, xususan, munosib izoh va sharhlarga, muayyan ijodkor yoki alohida olingan badiiy asar qatida mujassamlashgan yangi poetik olamga xos bo'lgan badiiyatni idrok etishga, mushohada qilishga imkon beradigan ish turlarini qo'llash ehtiyoji ko'proq bilinmoqda. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari o'z ish faoliyatlarida o'quv-tarbiya jarayonlarining insonparvarlashuviga, ta'lim jarayonida har bir o'quvchining alohida, o'ziga xos bo'lgan tabiiy-ijodiy imkonlariga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Badiiy adabiyot yaxshi insoniy fazilatlarini targ'ib qilishga, urushni, zo'ravonlikni qoralab, tinchlikni, xalqlarning osoyishta hayoti va o'zaro do'stligini ulug'laydigan, xunuklikdan nafratlanib, go'zallikni targ'ib etadigan, o'sib kelayotgan avlodga yuksak ma'naviy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishida imkon beradigan xislatlari bilan e'tiborlidir.

Adabiyot fanining o'ziga xosligi shundaki, boshqa fanlar bilan aloqadorlik bu fanning tabiatiga singdirilgan. Demak, bu imkoniyatdan ham unumli foydalanish joiz. Uning ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar bilan yaqinligi, ayniqsa, ona tili, tarix, san'at yo'nalishidagi fanlar bilan aloqadorligini isbotlab o'tirish zarurati yo'q. Ayni paytda uning geografiya, biologiya, fizika, matematika singari fanlar bilan aloqador jihatlaridan ham unumli foydalanish, bu bog'lanishlarning ichki mohiyatini ko'proq ko'rsatish, amaliyotga ko'proq joriy etish zarurati bor. Bir xil mavzuni bir xil hajmdagi vaqt oralig'ida turlicha o'qituvchilarning nihoyatda turlituman tarzda yoritib berishlari hayotda ko'p kuzatiladigan hodisa. Ularning orasida eng ma'quli hozirgi jamiyatimiz muammolari bilan ko'proq aloqadorlikni ta'minlagani, zamonaviy texnologiyalardan o'rinli va unumli foydalanganlari, bolalarning yosh xususiyatlari, adabiy tayyorgarliklariga tayanib turib ularning mavzuga ham, adabiyot fanining o'ziga ham qiziqishlarini eng ko'p darajada oshira olganlaridir.


Aslida adabiyot nazariyasini o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning

turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta'limidagi adabiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligining natijasi o'sib kelayotgan yosh qalbdagi go'zallikka bo'lgan ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirishdan, ularga badiiy asarga – kitobga bo'lgan mehr va muhabbatni o'stirishdan, bularning zahirida esa undagi badiiy-estetik didni takomillashtirishdan iborat.

Bo'lajak adabiyot o'qituvchisi uchun badiiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini bilish, anglab yetish qanchalik muhim va ahamiyatli bo'lsa, ta'limning turli bosqichlarida adabiyot o'qitishning o'ziga xos qonuniyat va xususiyatlari bilan bog'liq sir-u asrnlarni egallash ham shunchalik muhimdir. Ta'limning turli bosqichlarida bolaning yosh xususiyatlarigina emas, hatto asarning janri, uslubi ham uni o'qitish, o'rganishda o'ziga xos yondashuvlar bo'lishini taqozo etadi. Deylikki, qadimgi turkiy adabiyotni o'rganish bilan Yassaviy hayoti va ijodini o'rganishda bir xil usulni qo'llab bo'lmaganiday, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si bilan Erkin Vohidovning "O'zbekim"ining tahlili ham boshqa-boshqa nuqtayi nazarlardan o'rganilishi kerak. Ruboiyni o'rganish uchun tanlangan usulni romanni o'rganishga tatbiq etish qanchalik mumkin bo'lmasa, mumtoz adiblarimizning asarlarini o'rganish bilan xorijiy mamlakatlar adiblarining asarlarini o'rganish orasiga ham tenglik alomatini qo'yish shunchalik xatodir. Qaysi bir asarni o'rganishda sharh va izohlarning o'rni kattaroq bo'lishi, boshqa bir asarni o'rganishdan oldin ifodali o'qish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Qay holatlarda biografik metod o'rinli bo'lsa, qaysi o'rinlarda estetik tahlilning o'rnini bosadigan biror usul bo'lmasligi ham tabiiydir. Bularning barchasi Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasining fan sifatidagi o'rni va ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatib turibdi. Mazkur kurs xuddi shuning uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Bularning yonida badiiy asarni o'qish, uni tushunish muammosining ham borligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida kitobxonning, uning ma'naviy olamining shakllanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar qabul qilishning mutlaqo individual xususiyatga ega ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, badiiy asarni o'qish, uni tushunish va "hazm qilish"ning naqadar katta ahamiyat kasb etishini tasavvur etishimiz qiyin kechmaydi.

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov uqtirib oʻtganidek: “Adabiyot oʻquvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga, tuygʻulariga ham taʼsir etishi kerak. Shunday asarlarga chinakam sanʼat namunasi deb atalish huquqiga ega”¹.

Zamonaviy adabiy taʼlim metodikasidagi asosiy vazifalar qatorida quyidagilarni koʻrsatamiz:



Biz ixcham tarzda Adabiyot nazariyasini oʻqitish metodikasi fani zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shunday shakllantirishimiz mumkin:

1. Adabiyot predmetining taʼlim bosqichlarida nima uchun oʻrganish zarurligini asoslash, yaʼni adabiyot oʻqitishning maqsad va vazifalarini muayyanlashtirish;

2. Adabiy taʼlim mazmunini aniqlash. Oʻquv dasturlarining tarkibi va mazmunini asoslash, oʻquvchilar uchun yaratiladigan darslik, oʻquv qllanmalariga qoʻyiladigan talab va meʼyorlarni oʻrganish. Ayni paytda oʻquvchilarning muayyan taʼlim bosqichida oʻzlashtirishi lozim boʻlgan adabiy bilimlari, ularga bogʻliq holda egallanishi lozim boʻlgan

¹ Sharafiddinov O. Isteʼdod jilolalari. — Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976, 150-bet.

ko'nikma va malakalarning hajmi belgilanadi;

3. Metodika fani adabiy ta'limning o'ziga xos yo'l va usullarini o'rganish bilan ham shug'ullanadi. Unda alohida darslarni tashkil etish, unga qo'yiladigan talablar ham ishlab chiqiladi;

4. Ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirishiga qo'yiladigan talablar ham metodika faniga aloqador. Bunda baho me'yorlari va mezonlari, nazorat qilishning shakl va usullari qamrab olinadi;

5. Talabalarga adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi bo'yicha ularning amaliy faoliyatlarida asqotadigan nazariy hamda amaliy ma'lumotlarning eng muhimlari yetkaziladi;

6. Talabalarni shu fanga aloqador bo'lgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirish, ijodiy faoliyat va ilg'or tajriba maktablarini o'rganishga tayyorlashdan ham iboratdir.

Adabiy ta'limni takomillashtirib, hozirgi zamon talablariga uyg'unlashtirib borish eng muhim vazifalar qatoriga kiradi. Buning uchun faqat badiiy adabiyotning o'z ichki xususiyatlarini bilish, o'rganish kamlik qiladi, adabiyotning yosh avlodga, o'quvchi-yoshlarga ko'rsatadigan ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, emotsional ta'sirini yanada kuchaytirish, ta'limning turli bosqichlaridagi adabiy ta'lim uzviyligi, uzluksizligiga alohida e'tibor berish, ulardagi mustaqil va ijodiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, so'z san'ati vositasida go'zallikni his etishga oid did va tuyg'ularni kamol toptirish, adabiyotga, adabiy asarga, har qanday badiiy matnga nisbatan ijodiy yondashuv tamoyillarini shakllantirish ham zarur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari haqida nimalar deya olasiz?

2. Ta'limda bu fanning qanday ahamiyati bor?

3. "Insonning qo'liga bir dona baliq ber – u bir kun to'q bo'ladi, unga baliq tutishni o'rgat – u butun umri davomida to'q yuradi", degan Xitoy maqolining metodika faniga qanday daxli bor? Uni izohlang.

4. Adabiyot o'qitish metodikasi fani oldidagi asosiy vazifalar mohiyatini izohlab bering.

XALQ OG‘ZAKI IJODI. QADIMGI ASOTIR, RIVOYAT VA AFSONALAR. MAQOL, MASAL VA TOPISHMOQLARNI O‘RGANISH METODIKASI

Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonini jahon andozalari darajasiga olib chiqishdir. Bu muhim, lekin mashaqqatli vazifani amalga oshirish uchun hali juda ko‘p ishlarni qayta tashkil qilishga to‘g‘ri keladi.

Badiiy asarlarni ko‘p o‘qigan o‘quvchi esa ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishadi. O‘z navbatida tildagi orfografik, orfoepik qonun-qoidalarini mukammal egallab boradi. Biz xalq og‘zaki ijodi, xususan? qadimgi asotir, rivoyat va afsonalar, maqol, masal va topishmoqlarni o‘rganish metodikasi jarayonida o‘quvchilarda obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ayrim tajribalarimizni yoritmoqchimiz.

Buning uchun umumta’lim maktablarining V va VI sinflarida o‘qitiladigan “Adabiyot” darslarini asos sifatida tanladik. Bu darsliklarda xalq ijodiyotiga aloqador bo‘lgan maqollar, afsonalar, ertaklarning matnlari berilgan. Shuningdek, yozma adabiyotimizning durdona asarlariga oid badiiy matnlar ham o‘rin olgan. O‘sha materiallarni o‘quvchilarga zamon talablari darajasida o‘rgatish har bir muallimning kasbiy burchidir. Beshinchi, oltinchi sinf o‘quvchilari hali yosh bo‘lganliklari sababli ularning qalbi beg‘ubor bo‘lib, folxlor asarlariga juda ishtiyoqmand bo‘lishadi. Shu sababli ularni maqollar va ertaklarning sirli olamiga yetaklash zarur. Bu borada eng ilg‘or pedagogik tajribalarga asoslanmoq kerak bo‘ladi.

Mif (yun. *mithos* — afsona, rivoyat, asotir) — qad. odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Mif qadimiy odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qad. tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izoxlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar

bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimiy odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag'zini tashkil etuvchi ramziy xattiharakatlardan iborat ritual o'yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi buyumlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Mifar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar);

2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar);

3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar, mas, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqa haqidagi miflar);

4) sig'inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, mas, xreildorlik, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miflar);

5) vetnogenetik miflar (urug'qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; mas, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi mif);

6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, mas, ayamajuz, ahmandahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar);

7) esxatologik miflar (olamning institutihosi haqidagi, mas, oxirzamon to'g'risidagi mif).

Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qad. miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'-atining turli janrlariga singib ketgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'p-lab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. miflar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Kalevala", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmokdi o'rin tutgan.

Adabiy asarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan dastlabki qaydlar

Avesto yodgorligidayoq uchraydi. Bevosita turkiy muhitda esa buni O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi ayrim ishoralar orqali payqashimiz qiyin emas. Adabiyot qo'itish nazariyasi va metodikasi fani o'tmishdagi boy tajribalarni o'rganish asosida hozirgi zamon maktablaridagi adabiyot o'qitish jarayonini umumiyLashtiradi. Adabiyot Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayotida har doim juda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan. Cho'lponning «Adabiyot yashasa, millat yashar» degan fikri bejiz emas. Ammo uni o'qitish birdaniga hozirgi holatga kelmagan. Turkiy xalqlar orasida adabiyot o'qitish an'analari juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Buyuk mutafakkirlarimiz Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar ta'lim-tarbiya, o'qituvchi faoliyati xususida alohida to'xtab o'tishgan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ilmiy merosida ham olam hodisalarini o'rganishga imkon beradigan ko'plab fikr-mulohazalar mavjud. U «ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir» degan aqidaga rioya qiladi. Bilimni esa «qaytarish va takrorlash natijasidir»¹, deb biladi. U bilim olishda va o'rgatishda usullarning xilma-xilligini, shakllarning rang-barangligini e'tirof qilgan. Chunki deydi olim, «doimo bir xil narsaga qaray berish malolli va sabrsizlikka olib keladi.

O'quvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi «Har bir yangi narsada lazzat bor», deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi»². Olim «Avesto», «Kalila va Dimna», arab adabiyoti, hind adabiyotiga oid ko'plab misollarni tahlil qiladi, qiyoslaydi, ulardan o'rnak va namunalar olishga chaqiradi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida turli millat va elatlarga mansub afsona va rivoyatlar keltirilgan.

Qozoqboy Yo'ldoshev Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fanining mustaqillik davridagi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazib va munosib hissa qo'shib kelayotgan olimlardan biridir. U adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fanining nazariy muammolarini ham, uning amaliy jihatlarini ham jiddiy tarzda tadqiq etib kelmoqda.

¹ Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi A.Irisov, - T.: Yosh gvardiya, 1973,22-bet.

² Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi A.Irisov, - T.: Yosh gvardiya, 1973., 40-bet.

Uning «Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari»¹ kitobi Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi fanining eng so'nggi yutuqlaridan biri sifatida qayd etilishi mumkin. Olim bu tadqiqotida adabiyot o'qitishdagi yangicha tamoyillar haqida bahs yuritadi. An'anaviy adabiy ta'limdagi nuqson va kamchiliklar to'g'risida mulohazalar bildiradi. Eng muhimi, u yangicha, adabiy-estetik tahlil namunalarini tavsiya ham etadi.

«Alpomish talqinlari» olimning adabiyot o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalaridan biridir»². Uning asosiy fazilatlari sifatida asar mazmun mohiyatiga teran bir nigoz tashlanganligini, doston matni zahirida yashirinib yotgan milliy-ma'naviy qadriyatlarining badiiy talqinlariga alohida e'tibor berilganligini, so'z san'atining bir turi sifatida folkloridagi badiiy jozibaning o'ziga xos qirralarini ochib berishga urinishni ko'rsatish mumkin. U adabiyotshunoslar, xususan, folklorshunoslar uchun qanchalik muhim bo'lsa, metodist olimlar, til va adabiyot o'qituvchilari, filologiya fakultetlarining talabalari uchun ham shunchalik keraklidir. Kitob badiiy asarni tahlil va talqin qilishning o'ziga xos yo'llarini ko'rsatib bera oladigan yaxshi namuna sifatida tavsiya etilishi mumkin. Muallif asarning «ko'p qatlamli» ekanligini ko'rsatadi, dostonning paydo bo'lishi bilan bog'liq ilmiy qarashlarga yangicha nuqtai nazardan yondoshadi, bunda sohaning yirik olimlariga suyanib ish ko'radi. Shuning uchun ham «Gap «Alpomish» dostoni ustida borgandan so'ng, umuman, xalq dostonlari haqida dunyo adabiyotida mavjud bo'lgan qarashlarga, yohud ijtimoiy qoliplarga emas, balki asarning matniga, undagi qahramonlarga, qo'llanilgan timsollarga tayanish, o'shalarga tayanib so'z aytishgina samara keltiradi»³, kabi xulosalar salmoqli va ilmiy-metodik jihatdan foydalidir. Uning «Adabiy saboqlar.8»⁴ kitobi umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanmadir. U 8-sinf darsligi bilan bir xil tuzilishga ega, ya'ni darslikdagi «Xalq og'zaki ijodidan», «O'zbek ad-

¹ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1996. 18-bet.

² Yo'ldoshev Q. «Alpomish» talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma'naviyati haqida ayrim fikrlar. – T.: «Ma'naviyat», 2002. 8-bet.

³ Yo'ldoshev Q. «Alpomish» talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma'naviyati haqida ayrim fikrlar. – T.: «Ma'naviyat», 2002., 19-bet.

⁴ Yo'ldoshev Q. «Adabiy saboqlar. 8». Umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004. 14-bet.

abiyoti tarixidan», «Yangi o'zbek adabiyotidan», «Jahon adabiyotidan» singari ruknlarga bo'linadi. Qo'llanmada ta'kidlanganiday «sakkizinchi sinf «Adabiyot» dasturida millatning kelajagi bo'lgan o'spirin ma'naviyatini tarkib toptirishga xizmat qiladigan asarlarni o'rganishga e'tibor qaratilgan»¹. Unda adabiy materiallarning mantiqiy-xronologik tartibda joylashtiril-ganligi ham ko'rsatib o'tiladi. Nazarimizda, qo'llanmadagi «O'qituvchi bu sinfda o'rganilishi mo'ljallangan asarlarni o'tishda, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishda badiiy matndan kelib chiqadigan ijtimoiy, siyosiy, milliy, ma'naviy mazmunidan ham ko'ra, asarlar estetik xususiyatlarining o'zlatirilishiga ko'proq e'tibor qaratishi shart»¹¹ degan alohida ta'kidlar bejiz emas.

Uning asosiy yutuqlari va ijobiy fazilatlarini haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Qo'llanma o'qituvchilarni ko'pgina nazariy ma'lumotlar bilan tanishishga, ularni nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi;

2. Keltirilgan asos va talqinlar o'quvchilarning badiiy asar mazmuni va mohiyatini teran anglashlariga hamda ularni tegishli o'zanlarga yo'naltirishga yordam beradi;

3. Undagi berilgan tahlil namunalari o'qituvchilarning ish faoliyatlariga amaliy jihatdan ko'mak bo'la oladi;

4. Ayrim tahlillarning adabiyotshunoslik va folklorshunoslik fanlariga tayangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari uchun ilk marta amalga oshirilganligini ham ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Shunga qaramay unda ayrim mulohaza talab o'rinlar ham yo'q emas. Bular qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Qo'llanmada umumiy tarzda mulohazalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning o'rniga aniq metodik tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi;

2. Ayrim fikr va mulohazalarda umumiylik va mavhumlik shu darajada namoyon bo'ladiki, ularni amaliyotga tatbiq etishning yo'l-yo'riqlari mutlaqo berilmasdan qoladi;

3. Tavsiya etilayotgan ayrim shakl va usullar amaliyotga muvofiq emas, ular bevosita amaliy tajribalar bilan tasdiqlanmasdan qolgan.

¹ Yo'doshev Q. «Adabiy saboqlar. 8». Umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004., 28-bet.

¹¹ Yo'doshev Q. «Adabiy saboqlar. 8». Umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004., 4-bet.

Olim O.Madayev va boshqalar bilan birgalikda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanidan dasturiy qo‘llanma yaratib, adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi faniga o‘zining tegishli hissasini qo‘shgan. Bu kitobning hozirgacha ham talabalar va o‘qituvchilar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib kelayotganligini ta’kidlash joiz. Olimning metodika sohasidagi uzluksiz va barakali ijodining bu fan ravnaqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelayotganligini alohida ta’kidlash kerak.

Xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan ishlaganda ularning har birining o‘ziga xos yondashuv usullari borligini unutmaslik kerak.

Afsona va rivoyatlar bo‘yicha Hodi Zarif, Komiljon Imomov, To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Asqar Musaqulov, Jabbor Eshonqulovlarning salmoqli nazariy kitoblari bor. Ayniqsa Mamatqul Jo‘rayevning ko‘p yillik mehnatlarini alohida ta’kidlash kerak.

Asotirlar haqida gap ketganda “Kun va oy”, “Yetti qaroqchi”. “Avesto” kitobidagi osmon kultini misol keltirish mumkin. Darslar jarayonida ana shu asotirlar keltirilgan badiiy asarlardan misollar ko‘rsatilsa bo‘ladi.

Afsonalar ham milliy-madaniy sivilizatsiyada katta rol o‘ynagan. Joy nomlari bilan bog‘liq afsonalar – toponimik afsonalarga bir misol – Xorazm viloyatidagi “Hazor asp” afsonasini misol keltirish mumkin. “Devqal’a”, “Kuyganyor”, qadimiy asotirlar bilan bog‘liq joy nomlari mamalakatimizda aslida ko‘p uchraydi. Albatta ularda asotirlar mazmuni bilan qiziqsa, ancha qiziqarli ma’lumotlar kelib chiqadi.

Bunday ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at ut-turk” asarida, Beruniyning yuqorida keltirilgan asarida, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham uchraydi. O‘rni kelganda afsona va rivoyatlardan yozma badiiy asarlarda foydalanish mavzusida alohida suhbat uyushtirsa bo‘ladi.

Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bir guruh yosh metodist olimlar davom ettirishmoqda. Ular qatorida Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov singari iqtidorli olimlar bor. Ularning tadqiqotlarida metodika ilmining ham nazariy, ham amaliy muammolarini atroflicha hal qilishga urinish seziladi.

Beshinchi sinf darsligida maqol janrlariga katta e’tibor qaratilgan. Chunki yosh avlodni ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob va ahloq ruhida tarbiyalashda mazkur janrning roli beqiyosdir. Maqol janri inson tafakkurining oliy ne’mati bo‘lib, xalqimizning hayotiy tajribalarini

o'zida mujassamlashtirgan. Shu sababli maqollarni o'rganish, ularning g'oyasiga amal qilish yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Maktab tizimida maqol janrining ishlatilishi ommaviy xarakterga egadir. Uni maktab hovlisida, sinf xonalarida tez-tez uchratish mumkin. Ularga ko'zi tushgan har bir o'quvchi maqol mazmunidan tarbiya oladi, odob-ahloq o'rganadi. Maqol turli xalqlarda jonli so'zlashuvda, suhbat vaqtlarida o'z joyiga qarab aytiladigan fikrni quvvatlash, tasdiqlash va istalgan fikrning ma'nosini qisqa va puxta qilib anglatish maqsadida qo'llaniladi. Maqolda ijtimoiy hayotdagi har xil voqealarning xulosasi ko'p yillarning tajribasi natijasida yuzaga kelgandir. U xalqning olijanob fikrlarining umumlashgan va tugallangan holda ixcham, bir yoki ikki jumla orqali berilgan badiiy ifodasidir.

Masalan:

*“Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydasang, yuz hayda!”*

Yoki:

“Ishi yo ‘qning oshi yo ‘q” kabi.

Maqolda xalqning orzu-umidlari, insonparvarlik, kishining ruhiy kechinmalari, iztirob va quvonchlari, sinfiy qarama-qarshiliklar va har xil voqealar aks etadi. Demak, maqolda predmet emas, balki mazmun ustuvordir. Shu bilan birga, qator xalqlarning topishmoqlarini tekshirgan bir necha tadqiqotchilarning asarlarida, maqol topishmoqqa yaqin-topishmoq maqol o'rnida, maqol ayni zamonda topishmoq o'rnida kelishi mumkin degan fikr aytiladi, bu fikrni tasdiqlovchi misollar, namunalar keltiriladi. Masalan: ruslarda shunday bir maqol bor:

Светит да не зреет (oy)

Ko'p xalqlarda, shu jumladan, o'zbeklarda ham yuqoridagi kabi maqollar mavjud:

*“Hammaga to‘n tikaman, o‘zim yalong‘och” (igna).
“Kichkina qozonning oshi totli” (yong‘oq).
“Suvda botmaydi. O‘tda yonmaydi” (Muz).*

Maqol va topishmoq xalq tajribasining va ko‘p asrli kuzatishlarining yakuni sifatida yuzaga kelgan. Ularning yuzaga kelishidagi asosiy omillari, ularning vazifalari bir-biridan farq qiladi. Ammo topishmoqlarning anchasi maqol, maqollarning ko‘pchiligi topishmoq degan fikrlar borki, bu darajada umumlashtirishga yetarli darajada asos yo‘q. Shuning uchun xalq shunday maqol yoki topishmoq qancha miqdorni tashkil qilishi e‘tibori bilan ham tekshirish olib borish zarur.

Holbuki, maqol bilan topishmoqning bir-biriga singdirib yuborish haqiqatga unchalik to‘g‘ri kelmaydi. O‘zbek xalq topishmoqlarida maqolning topishmoq, topishmoqning maqol o‘rnida kelishi juda kam uchraydigan hodisadir. Yuqorida keltirilgan misollarning umumiy soni maqol va topishmoqlarning umumiy soniga nisbatan shunchalik ozki, ularni ayrim hodisalar deyishga to‘g‘ri keladi. Demak, ko‘pchilik topishmoqlar ayni zamonda maqol va masal bo‘lmasdan, balki ularning ayrimlarigina shunday xususiyatga egadir. Shu sababli o‘qituvchi doimo folklor janriga xususan maqollarga e‘tibor berib, ularni mavzu guruhlariga ajratib, ko‘rgazmali qurollar ishlab qo‘yishi, lozim bo‘lganda texnik vositalardan videomagnitofon, hech bo‘lmasa ovoz magnitofonlaridan foydalanishi lozim. Darslikda berilgan ertak namunalari ham mazmun jihatdan falsafiy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, ularning negizida maqollar yotadi. O‘qituvchi bu ertaklarni tahlil etganda hamisha qissadan hissa chiqarish tamoyili asosida ish tutish kerak. Bu esa o‘z-o‘zidan maqollarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Har bir ertak oxirida bitta maqol unga yakun yasaydi. O‘sha maqollarga muqobil keladigan maqollarni izlab topish bu jarayonga bolalarni jalb etish muallimning asosiy vazifasidir.

Maqol bilan yonma-yon “matal” atamasi ham ko‘p ishlatiladi. Folklorshunoslik ilmida maqol va matal atamalari ikkita janrni ifodalasada, ular amaliy qo‘llanganda, bir-biridan deyarli farqlanmaydi. Chunki, ular aksariyat hollarda og‘zaki nutqda istifoda etilgani uchun nutq sohibi bu janrlarni unchalik farqlab o‘tirmaydi. Shu sababli mazkur holat maktab va oliy o‘quv yurtlarida ma‘lumot berilganda muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Ma‘lumki, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, “maqol” atamasi arabcha “qavlun” –“aytmoq” so‘zidan olingan. Matal esa, arabcha “masal” –“namuna” so‘zining fonetik o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan atamadir. Har ikkala atamani rus folklorshunosligidagi o‘xshash janrlarga

solishtirsa, maqol-пословица, matal-поговорка ma'nosiga muqobil keladi.

O'zbek folklorshunosligi bo'yicha darslikda maqol haqida: "Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Uning asosida ibratomuz fikr yotadi. Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llana olish imkoniyatiga egadir" tarzida ta'rif beriladi. Endi matallarga kelsak, ular haqida ko'pgina manbalarda bir-biriga yaqin fikrlar uchrasa-da, ayrim manbalarda ushbu fikrlarga zid xulosalar ham keltiriladi.

Talantli olim G'.Salomovning yozishicha, "Matal aytilmoqchi bo'lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko'chma ma'noli, sodda jumla bo'lib, unda xulosa bo'lmaydi. Balki uning o'zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi".

Boshqa turkiy xalqlar jumladan, boshqa xalq folklorshunosligida ham matalga ushbu fikrga yaqin ta'rif beriladi: "Matallarga xos xususiyat yumor va mazax qilishdir... Umuman, matallar idiomalarga o'xshab ketadi. Ular og'zaki nutqqa, frazeologiyaga ko'proq yaqin. Matallarning asosiy vazifasi nutqqa sayqal berish bo'lib, ular fikrga ravshanlik bag'ishlashda foydalaniladi. Nutqdagi hissiyotni, ifodaviylikni kuchaytiradi".

Biroq "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da matalga ushbu fikrga mutlaqo zid bo'lgan ta'rif beriladi: "Matallar o'z ma'nosida – to'g'ri ma'noda qo'llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir". Ushbu ta'rifning isboti sifatida o'sha o'rinda quyidagi misollar ham qayd qilingan:

*Yaxshidan ot qoladi,
Yomondan dod qoladi.
Kattaga hurmatda,
Kichikka izzatda bo'l.*

Folklorshunoslikka doir manbalarda maqol va matalni farqlash borasida ozmi-ko'pmi fikrlar bor, albatta. Folklorshunos B.Sarimsoqovning ta'kidlashicha, "Matal nutqda ko'rsatish vositasi bo'lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llaniladi".

O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha darslikda esa: "Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega bo'lsa, matallar faqat

ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi” deya ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbek folklorida o‘z ma’nosida ishlatiladigan maqollar juda ko‘p:

*Bugungi ishni ertaga qo‘yma.
Oz so‘zla, ko‘p tingla.
Ishlamagan-tishlamas.*

Shu bilan birga, o‘z ma’nosiga va ayni paytda ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan maqollar ham anchani tashkil etadi:

*Олдингдан оққан сувнинг қадри йўқ.
Нима эксанг, шуни ўрасан.
Қуруқ гап қулоққа ёқмас.*

Mazkur maqollarning barchasi o‘z mustaqil ma’nolariga ega: haqiqatan ham oldingdan oqib turgan suvning qadri sezilmaydi; nima ekilsa shu ekinni o‘rib-yig‘ib olish hammaga ayon; quruq gap quloqqa yoqmasligi ham to‘g‘ri. Endi ushbu maqollarning majoziy ma’nolariga razm solinsa, birinchi maqolda gap faqat suv haqda ketayotgani yo‘q. Maqolga majoziy ma’no jihatidan qaraganda suv ramziy obrazga aylanadi, ya’ni ushbu maqol nutqda ishlatilgan o‘rniga qarab turlicha ma’nolarga ko‘chadi: bog‘ingda pishib turgan mevaning qadri yo‘q; boshingga soyabon bo‘lib turgan ota-onaning qadri yo‘q; va hokazo. Ikkinchi maqolning majoziy ma’nosi ham nihoyatda keng:

Yomonlikka yomonlik qaytadi; har bir harakatning o‘ziga yarasha natijasi bo‘ladi va boshqalar. Uchinchi maqoldagi majoziylikka razm solsak, “quruq gap” birikmasi “gap” doirasidan chiqadi. Ya’ni biror ishni bitkazmoqchi bo‘lsang, albatta biror narsadan kechishing shart, degan umumiy hukm kelib chiqadi. Endi matallar masalasiga kelsak, ularni ikki ma’noga ajratib bo‘lmaydi. Matallar negizida faqat ko‘chma ma’no yotadi:

*Сичқон сизмас инига,
Ғалвир боғлар думига.*

*Емас оғиз еяр оғизни боғлабди.
Эшак эшакдан қолса қулогини кесади.*

Эру хотин-қўш ҳўкиз.

Кўр –кўрни қоронгида топади.

Бояги-бояги. Бойхўжанинг таёғи.

Аравани от эмас, арпа тортади.

Ushbu iboralarda ko‘rinadiki, ularning hayotiylik bilan bog‘liq o‘z ma’nolari ko‘zga tashlanmaydi. Shu sababli matallar nutq jarayonida ifoda ta’sirchanligini oshirishda asosiy rol o‘ynab, muayyan hukm-xulosaga ega bo‘la olmaydilar.

Demak, maqollar bilan matallarni farqlashda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

1. Maqollar xalqning dono tajribalari asosida yaratilib, ularning negizida har bir aytilmoqchi bo‘lgan fikrga nisbatan ibratomuz fikr-xulosa yotadi;

2. Maqollar orasida faqat o‘z ma’nosida ishlatiladigan hayotiy zarur fikrlarni didaktik harakterda, xulosa-hukm tarzida ifodalash xususiyati mavjud;

3. Maqollarning aksariyat qismi o‘zining asl ma’nosida yoxud majoziylik bilan bog‘liq ko‘chma ma’noda ham ishlatiladi;

4. Matallar esa, ko‘proq nutq jarayonidagi ifodaviylikni kuchaytirishda ishlatilib, ularda didaktik ruh, qat’iy hukm-xulosa bo‘lmaydi;

5. Matallarning barchasi faqat ko‘chma ma’noda ishlatilgani uchun, ularda tilga olingan fikrlar real hayot bilan bog‘liq o‘z ma’nolariga ega emas.

Matallarda ko‘proq kinoya, qochiriq, kulgu mavjud bo‘lib, nutq jarayonida xulosa tarzida berilmaydi. Balki, ulardagi ishora, shamaga qarab tinglovchining o‘zi xulosani chiqarib oladi. V sinf adabiyot darsligiga 24 ta maqol kiritilgan. Maqollarning mohiyati haqida, ularning yaratilish va tarqalish tamoyillari xususida qisqacha ma’lumot berilgan. Mumtoz adabiyotimizda mashhur bo‘lgan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarining maqollar asosiga qurilganligi ta’kidlab o‘tilgan. Darvoqe. “Zarbulmasal” atamasi haqida ham o‘quvchilarga qisqacha ma’lumot berib o‘tilsa yomon bo‘lmaydi. Chunki, ko‘pgina o‘qituvchilar bu asarning masalmi, maqolmi ekanini aniq tasavvur qila olmaydilar.

Bu atamaning zarb qismi urmoq ma'nosini bildiradi. Masal so'zi esa forsiy xalqlarda maqol ma'nosida qo'llaniladi. Ma'lumki, urmoq so'zi og'zaki nutqda guring urmoq, piching urmoq kabi birikmalarda aytmoq, so'zlam oq ma'nolarini ham anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Zarbulmasal-maqol aytishmoq ma'nosini anglatadi. Muallim ushbu ma'lumotni qisqacha aytib o'tsa, o'quvchilar uni bir umr eslab qolishadi. Darslikka kirgan maqollarni dastlab mavzu bo'yicha tasnif qilgan ma'qul. Uni quyidagi mavzularga ajratish mumkin:

Vatanparvarlik -5 ta.

Do'stlik -4 ta.

Birdamlik -6 ta.

Xalqparvarlik -5ta.

Mehnatsevarlik -2 ta.

Maishiy mavzu -2ta.

Jami: 24 ta. Maishiy mavzuga oid maqollarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Gul o'ssa yerning, ko'rki,

Qiz o'ssa –elning.

Ikki o'n besh-bir o'ttiz.

Bu maqollarning maishiyliqi shundaki, ular turmush, yashash tarzi bilan bog'liq. Birinchi maqolda gul va qiz obrazlari orqali muayyan g'oya ilgari surilgan. Gul yerga ko'rk, tarovat bag'ishlasa, qiz elga hayotga oilaga ko'rk va go'zallik bag'ishlaydi, gulni ham qizni ham avaylab asrash zarur. Ikki o'n besh –bir o'ttiz maqoli ham turmush, yashash tarzi bilan bog'liq bo'lib, uning Xorazmda: "Palov yedim ne, yedim palov ne" degan shakli mavjud. Bu maqol bir gapni ikki xil talqin qiluvchi ezma odamlarga nisbatan qo'llaniladi.

Darslikda 9 ta savol va bitta topshiriq berilgan bo'lib, ularga javob topishning o'zi darsning samarali o'tishini ta'minlaydi. Savollar ancha murakkab, ularga javob topish uchun muallim ancha kitob axtarishi lozim bo'ladi. O'quvchilarning esa bu savollarga mustaqil javob topishlari ancha qiyin.

Birinchi savolda maqol va hikmatli so'zlar o'rtasidagi farqni ochib

berish soʻralgan. Odatda hikmatli soʻzlar buyuk kishilar-olimlar, yozuvchilar, faylasuflar, siyosatchilar tomonidan yaratiladi. Masalan, Beruniyning “Hikmatlar” kitobida shunday hikmatli soʻz berilgan:

Koʻz bilan koʻrgan eshitgandan afzaldir.

Bilim-qaytarish va takrorlash mevasidir.

Alisher Navoiy ijodida ham hikmatli soʻzlar koʻplab uchraydi:

Odob va tavoze-mehr-muhabbatning zeb-ziynatidir.

Tilga ixtiyorsiz-elga eʼtiborsiz.

Hikmatli soʻzlar bilan maqollarning oʻxshashlik tononi shundaki, ularning har ikkalasida ham oliyjanob fikrlar mujassamlashgan. Maqollar oʻzlarining ixchamligi, poetik ruhining yuksakligi, ommaviyligi bilan ulardan farqlanadi.

Hikmatli soʻzlar ham davr oʻtishi bilan keng ommalashib, maqol, janriga aylanishi mumkin. A.Navoiyning yuqorida keltirilgan til haqidagi hikmatining maqoldan farqi yoʻq.

Ikkinchi savolda maqolning asosiy xususiyatlarini aytib berish soʻralgan. Bu haqda yuqorida ancha fikrlar bildirildi. Maqollar moʻjaz, oʻtkir, aksariyat hollarda tashbehga asoslangan va majoziy xususiyat kasb etgan ommabop iboralardir.

Uchinchi savolda “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni” maqolidagi bulbul va odam obrazlarini sharhlab bering, deyilgan. Odatda maqollarda ikki obraz, ikki timsol ishtirok etadi. Mazkur maqolda bulbul va odam obrazlari tanlangan. Maʼlumki, bulbulni chamansiz, gulsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Ana shu xususiyat maqolda odam, inson obraziga qiyos qilingan. Demak, odamni ham Vatansiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Shunday ekan, bulbul chamanni qanchalik sevsa, inson ham Vatanni oʻshanday eʼzozlashi kerak.

Toʻrtinchi savolda “Qayragʻoch qalin boʻlsa, yomgʻir oʻtmas” maqolini sharhlash topshirilgan. Ushbu maqolda qayragʻoch va yomgʻir timsoli orqali majoziy maʼnoga ishora qilingan. Gap tabiat va tabiat hodisasi haqida ketayotgan boʻlsa-da, maqol zamirida inson hayoti yotadi. Bu yerda kishilar oʻrtasidagi birdamlik, ahillik, birodarlik xususiyatlari ulugʻlanadi. Qayragʻochning qalin butoqlari orasidan yomgʻir oʻta olmaganidek, oʻzaro jipslashgan, ahil va hamjihat kishilar orasini ham dushman buza olmaydi, degan gʻoya maqolning asosiy

mohiyatini tashkil etadi.

Beshinchi savolda nima uchun do‘st bodom po‘stiga qiyos qilinganligining sababi so‘ralgan. Yuqorida qayd qilganimizdek maqollarning aksariyatida tashbeh san‘atiga murojaat qilinadi. Darvoqe, bodom po‘st bilan mukammallik kasb etadi. Po‘st uni tashqi ta’sirlardan muhofaza qiladi. Bodom mevasiga ko‘rk va chiroy bag‘ishlaydi. Yerga tushsa, ezilishdan, aynishdan saqlaydi. Do‘st ham insonga o‘ziga xos tayanch, suyanch, uni har qanday balo-qazolardan himoya qilishga bel bog‘lagan qalqondir. Shu sababli bodomni po‘stsiz, insonni do‘stsiz tasavvur qilish qiyin.

Oltinchi savolda “Ko‘kka boqma, ko‘pga boq” maqolining badiiyatini yoritish topshirilgan. Ushbu maqol birdamlik va ahillikka chorlovchi maqoldir. Maqol tuzilishi jihatidan alliteratsiya-tovush uyg‘unligiga asoslangan. Natijada qofiyaviy jipslik va poetik ohangdorlik ro‘yobga chiqqan. Bu xususiyat ko‘pchilik maqollarga xos xususiyatdir.

Yettinchi savolga asos bo‘lgan “Xalq so‘zi –haq so‘zi” maqoli ham ushbu tamoyil asosida tuzilgan. Bu maqoldagi haq va xalq so‘zlari maqolning ravon va ohangdor chiqishida asosiy rolni o‘ynaydi.

Sakkizinchi va to‘qqizinchi savollarda maqollarning qaysi biri qadimiy va qaysi biri zamonaviy ekanini aniqlash topshirilgan.

Avvalo, maqollarni, umuman folxklorning kichik janrlarini qaysi davrga mansub ekanini aniqlash murakkab masaladir. Chunki har qanday maqol, topishmoq yoki qo‘shiq zamonlar o‘tishi bilan muayyan o‘zgarishga uchraydi. Shunday bo‘lsa-da, bu janrlarning qadimiy yoki zamonaviyligini shartli ravishda aniqlash imkoniyati mavjud. Ma’lumki, maqollar eng qadimgi janrlardan biridir. Ularning mehnat, ov, ov qurollari, turli mavsumlar bilan aloqador turlari folxklorshunoslikda qadimiylikka daxldor deb belgilanadi. Shu tamoyil asosida masalaga yondoshsak, darslikda keltirilgan namunalar orasida mehnat bilan bog‘liq quyidagi maqollarni nisbatan qadimiy deb belgilash mumkin:

*Mehnat qilib topganing,
Qandu asal totganing.
Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.*

Do'st-do'stning oynasi, maqolidagi oyna so'zi nuqtai nazaridan qaraganda maqol jamiyat taraqqiyotining ancha keyingi davrlarida yaratilgan. Chunki ibtidoiy davr kishilarida oyna-ko'zgu haqida tasavvur bo'lgan emas. Piyoznining po'sti ko'p, Yaxshining do'sti ko'p, maqoli ham dehqonchilik madaniyatining rivojlangan davrida yaratilganligi sababli keyingi asrlarning mahsulidir. Ona yurtning oltin beshiging, maqoli haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Maqollarni o'rgatish jarayonida haqiqatan ham ularning badiiyati masalasiga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu janrga xos bo'lgan poetik xususiyatlardan biri yuqorida ta'kidlaganimiz kabi ularning tovush uyg'unligi asosida qo'fiyalanishidir:

*Er qadrini er bilan,
Er bilmasa el bilar.*

Ikki misra tarkibida er so'zining uch marta takrorlanishi va ularga ohangdosh el so'zining ishlatilishi maqolning polifonik (ohangdor) ifodaga ega bo'lishini ta'minlagan. Maqollardagi badiiyat, mahorat masalalari qanchalik yoritilsa, o'quvchilarning obrazli fikrlashi tobora oshib boradi. Maqollarga xos yana bir xususiyat ularning majoziy xususiyatga egaligidir.

Masalan:

*Bo'ron kuni qor bossa,
Yolg'iz otni o'ldirar.
Xalq puflasa, bo'ron bo'lar.*

Majoziylik so'z ma'nosining obrazlilik asosida ko'chim hosil qilishdir. Birinchi maqolda bo'ron, qor, ot obrazlari olingan. To'g'ri ma'noda olinsa, haqiqatan ham bo'ron kuni qor bossa, yolg'iz otga qiyin bo'ladi. Uning taqdiri o'lim bilan yakun topishi ham mumkin. Agar maqoldagi majoziy ma'noga e'tibor qilsak gap inson hayotiga kelib bog'lanadi. Biror baxtsizlik, qiyinchilik tug'ilgan kuni inson yolg'iz bo'lsa, boshiga tushgan kulfatni hazm qila olmaydi. Agarda uning tevaragida yori-do'sti, qarindoshlari jamul jam bo'lsa, har qanday qiyinchilik barham topishi mumkin. Bunday maqollarni sharhlaganda albatta uning muqobil variantini keltirish zarur. Mazkur maqolga:

*Do 'stsiz boshim-tuzsiz oshim,
Yolg 'iz otning changi chiqmas,*

-kabi maqollar muqobil bo'la oladi. Aksariyat hollarda muqobil variantlarni o'quvchilarning o'ziga topdirgan ma'qul. Ikkinchi maqolda ushbu fikr yanada rivojlantirilgan. Bu maqolda puflash haqida gap ketayotgani yo'q. Mazkur so'z majoziy ma'noga ega. Uning negizida xalq birlashsa, birgalikda qo'zg'alsa, uni engib bo'lmaydi, degan ma'no mujassamlashgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalqimiz orasida hozirda ham uchrab turadiga asotirlardan qaysilarini bilasiz?
2. Asotirlarda eng ko'p uchraydigan obrazlar qaysi?
3. Asotirlarning yozma adabiyotga ta'siri haqida nimalarni bilasiz?
4. Afsonalarning turlarini ayting.
5. Joy nomlari bilan bog'liq afsonalardan misollar keltiring.

“XALQ ERTAKLARI” MAVZUSINI O‘RGATISH BO‘YICHA ILMIY METODIK TAVSIYALAR. XALQ DOSTONLARINI O‘RGANISHNING MUHIM METODOLOGIK JIHATLARI. DOSTON TURLARI. YOZMA DOSTONLAR

Qadimdan ma'lumki, xalq ertaklari hamisha ezgulikka xizmat qilib keladi. Eng avvalo bu janrga tarbiya vositasi deb qaralgan. Xalq og'zaki poetik jarayoniga xos xususiyatlar:

1. Og'zakilik;
2. Ommaviylik;
3. Muallifining noma'lumligi – anonimlik xalq ertaklariga xos jihatlar.

Qadimdan ertaklar uch turga bo'lingan: sehrli, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklar.

Ma'lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang'ich ta'lim tugaganidan. So'ng (IV sinf) o'tila boshlaydi. Bu davrda o'quvchi adabiyot va ifodali o'qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so'z san'ati haqidaga dastlabki tasavvurga ega bo'lgan bo'ladi. Albat, bola maktabgacha bo'lgan yoshdayoq so'z san'ati ichida bo'ladi. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi". Xuddi shu davrda u asosan tinglovchi, ba'zan o'quvchi shaklida dastlabki odimlarini tashlaydi. Demak, o'quvchi V sinfga kelganda o'qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning ibtidoiy ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Jumlada, IV sinf o'quvchilari matnni ifodali o'qiy olishlari, asarda ishtirok etuvchi shaxslar haqida hikoya qilib berish uchun material to'plash, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga nisbatan o'z munosabatni ifodalay olish, adabiy qahramon haqida ixcham hikoya tuzish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish lozim. V sinf o'quvchisi ham badiiy asar xususiyatlarini to'la o'zlashtarishga tayyor bo'lmaydi. Shunga ko'ra M.G.Kachurin ta'kidlaganiday: "Bu davrda asarda "nima haqida" yozilgani nuqtai nazaridan yondashishlarini hisobga olish ker-

ak"¹. Boshlang'ich sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko'ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagai olam, inson ma'naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar, ilmiy ommabop maqolalar tarzida yoritilgan. Demak, boshlang'ich sinflardayoq bolalarning badiiy-estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi uchun imkon qidirilgan. Endi V sinfdan boshlaboq ularning o'qish va nutq ko'nikmalariga tayanib turib, asarni badiiy his etish, estetik his-tuyg'ularini o'stirishga aloxida e'tibor berish lozim. V sinf dasturini kuzatish jarayonida turli janrdagi asarlar bilan tanishish taqozo etilishiga amin bo'lamiz. Ular orasida qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, ertak, latifa, doston, hikoya, ruboiy, masal, qissa, roman kabi xilma-xil janrlar mavjud. Bugina emas, dasturda turli adabiy tushunchalar hamda yozuvchi va shoirlar haqida, ularning asarlari xaqida ham ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Ammo tarixiy-adabiy izchillik tom ma'nosi bilan IV–VII sinf adabiyot dasturlari talablari sirasiga kirmaydi, zero o'quvchilarning yosh xususiyatlari ham bunga imkon bermaydi. Bu vazifalar VIII–IX sinflarda amalga oshiriladi. Akademik litsey va kasb-hunar maktablarida esa yo'nalish turiga karab adabiyot o'qitishning o'ziga xos maqsad va vazifalari begilanadi. Adabiy ta'limni to'la amalga oshirishda darslik muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar darsliklar mazmuni va tuzilishini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Darslik o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon, berishi bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmoqi lozim. Ochiq aytish lozimki, o'quv qo'llanmalarni yaratish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Bugun yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, jahondagi ilg'or o'qitish usullarini targ'ib qilish va hayotga joriy etishga jiddiy zarurat sezilmoqda.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgi-

¹ Методика преподавания литературы. –М.: Просвещение 1985. с. 57.

laydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladi-gan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun adabiyot fanidan birinchi marta davlat ta'lim standarti yaratildi¹. Uning yangi avlodi ish tajribalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda. Shu asosda o'quv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib ravishdagi darsliklarga ham egamiz. Biroq tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ularda ham ayrim kamchiliklar, notugalliklar mavjud. Mustaqillikdan oldin hamda mustaqillikning dastlabki paytlarida yaratilgan ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarini nazarda tutgan holda ularning tilini «og'ir va g'aliz»² degan edi. Darslik va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish bo'yicha harakatlar davom etib kelmoqda, o'quv adabiyotlari tanlovi o'tkazilmoqda. 2004-yilda 5-sinf uchun, 2005-yilda 6-7-sinflar uchun tanlov o'tkazildi, 2006-yilda 8-9-sinflar uchun darsliklar yaratildi. Bu darsliklarning afzal tomoni o'qituvchi uchun metodik qo'llanma ham birgalikda yaratilishida va ularning amaliyotda yaxshi natijaga erishishida deb bilamiz.

Darsliklarda ayrim ruknlar bo'lishi mumkin. Masalan, 5-sinfda «Hikmat durdonalari», «Ertaklarning sehrli olami», «Mumtoz adabiyotga sayohat», «Bolalikning beg'ubor olami», «Vatanni sevmok

iymondandir»³, 7-sinfda «Xalq og'zaki ijodidan», «O'zbek adabiyoti

¹ Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. –T.: Sharq, 1999. 1-max.son.

² Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi? 2004., 11-bet.

³ Karimov N., Normatov U. Adabiyot, 5-sinf uchun darslik-majmua. –T.:

tarixidan», «XX asr o'zbek adabiyotidan», «Jahon adabiyotidan» ruknlari mavjud bo'lsa, 11-sinf Adabiyot darsligida ma'rifatchilik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho'ro davri adabiyoti, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti singari ruknlar mavjud¹. Umumta'lim maktablaridan so'ng, uch yillik akademik litseylar hamda kasbhunar kollejlari iste'molga kiritildi. Bu yoshlarning fan asoslarini jiddiyroq va puxtaroq egallashlari uchun muhim omildir. Bizning oldimizda turgan katta muammolardan biri metodist olimlarga tegishlidir. Ular bugungi zamon talablariga mos keladigan o'quv-metodik adabiyotlarni yaratib berish borasida respublikamiz ta'lim muassasalari oldida, ko'p sonli o'qituvchi va talabalar oldida qarzidor bo'lib turishibdi. Bugun filologik ta'limning dolzarb muammolarini hal etishda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim sohalariga tezroq tatbiq qilish sohasida ular o'z so'zlarini aytishlari kerak.

Darsliklar odatda muayyan ta'lim bosqichlariga mo'ljallangan bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ularning sinflari, akademik litseylarida esa ularning bosqichlari ko'rsatiladi. Ba'zan ularning noaniq belgilanishi ham uchrab turadi. Jumladan, 2001 yilda yaratilgan «O'zbek tili» darsliklaridan biri «oliy o'quv yurtlari, litsey va kasbhunar maktabilarning rus guruhlari uchun» deb mo'ljallangan. Mantiqan, akademik litsey, kasb-hunar maktabi va oliy o'quv yurtida ayni bir materialni takrorlab o'tish zarurati yo'qligini isbotlash shart emas.

Umumta'lim maktablarining adabiyot darsliklarida ko'plab ertak matnlari berilgan. Badiiy asarlarni, xususan ertaklarni o'rganishda ko'pgina o'qituvchilar hozirgacha ushbu janrdagi g'oyaviy-didaktik xususiyatlarni tahlil qilishni an'anaviy tamoyil sifatida qo'llab kelmoqdalar. Ertaklar haqida so'z yuritganda aksariyat hollarda xalq og'zaki ijodiyotidagi dualizm-ezgulik va yovuzlikning o'zaro kurashlari, ushbu ikki qarama-qarshi qutbning to'qnashuvi asnosida kechadigan voqealar xususida so'z yuritiladi, oxir-oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilganligi ta'kidlanib, yovuzlik timsolida harakat qiladigan obrazlar qoralanib, ezgulik ramzi sifatida harakat qiluvchi obrazlar oliyjanob qilib ko'rsatiladi. Natijada o'quvchilarda yovuzlikka nisbatan nafrat, ezgulikka nisbatan muhabbat tuyg'ulari kamol topib boradi. Odob-ahloq nuqtai nazaridan qaraganda bu usuldan ajablanmasa ham

O'qituvchi, 2000, 352-bet.

bo‘ladi. Dastur talablariga javob bera oladi. Ammo, mazkur usulda “Folklor asarlarining shakliy xususiyatlari, ayniqsa, ularning tili e’tibordan chetda qoladi. O‘qituvchilarning ana shu e’tiborsizligi o‘quvchilarni Folklor asarlarida mujassamlashgan go‘zallikdan bebahra bo‘lishlariga sabab bo‘ladi”¹.

Umumta’lim maktablarining beshinchi sinfi adabiyot darsliklariga ko‘plab ertak matnlari kiritilgan.

Beshinchi sinf o‘quvchilariga ertaklardagi obrazlar, matndagi obrazli ifodalar, poetik tilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan aloqador masalalarni o‘rgatish, yoshlarni badiiy tilning hissiy ta’siridan ogoh qilish oson kechadigan ish emas. Avvalo bu masalalardan o‘qituvchining o‘zi yaxshi xabardor bo‘lishi zarur. Badiiy adabiyotning o‘ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri uning obraz vositasida ish ko‘rishidir. Shu sababli o‘qituvchi dastlab obraz tushunchasining mohiyatini mukammal tarzda o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Adabiyotdagi bu muammoni tahlil qilish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Chunki “obraz”, “obrazlilik”, “badiiylik” tushunchalari turli manbalarda xilma-xil tarzda sharhlangan, ayrim hollarda bu tushunchalar bir-biri bilan aralashtirib yuborilgan, yoki aksincha².

Maktabda bolalarga ishni eng avvalo obraz atamasining ma’nosini va uning vazifasini tushuntirishdan boshlagan ma’qul. “Badiiy tafakkurning bir qismi bo‘lgan obraz san’atning barcha turlarida mavjud bo‘lib, musiqada ohanglar majmui, teatrdagi aktyorlar ijro usullari, adabiyotda esa tilning obrazli ifodalari tarzida namoyon bo‘ladi”³.

Obrazning voqe bo‘lishida tilning boy va rang-barang leksikasiga asoslangan badiiy nutq asosiy rol ni o‘ynaydi. “Badiiy nutq obrazli nutq sanaladi. So‘z bilan obraz o‘zaro bog‘liq bo‘lsa ham bir-biriga teng keladigan tushunchalar emas. Chunki, so‘z til birligi, obraz esa san’at hodisasidir. Badiiy adabiyotda so‘z va gap obraz, manzara yaratishning o‘ziga xos libosidir”⁴.

Obraz atamasi rus tilidagi “образить” – paydo qilmoq, tasbirlamoq

¹ Тўхлиев Б. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. –Т.: 2008. 50-bet.

² Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2007. 4-bet.

³ Гулыга А.В. Принципы эстетики. –М.:политиздат. 1987. С. 163.

⁴ Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадий асар тили ва услуби масалалари. Самарқанд, 2007. 77-bet.

soʻzi bilan aloqadordir¹.

Obrazda asar muallifining chuqur hissiy kechikmalari mujassamlashgan boʻlib, u eshituvchi, oʻquvchi va tomoshabinda ham oʻsha kechinmani vujudga keltiradi.

Shunday ekan, badiiy asardagi obraz tushunchasining mohiyatiga yetmasdan turib, undagi badiiy ifodani bolalarga tushuntirib berish murakkab masaladir. Shuni ham taʼkidlash joizki, adabiyot soʻz vositasida obraz yaratadi. Ushbu jarayonda adabiy asardagi voqealar tafsilotini tasvirlash umumxalq tiliga asoslangan badiiy til zimmasiga tushadi. Badiiy tilning imkoniyatlari esa nihoyatda kattadir.

B.Sarimsoqov badiiy til imkoniyatlarini quyidagicha sharhlaydi:

1. Soʻz maʼnolarining koʻchishi;
2. Oʻzga tillardan soʻz olib oʻzlashtirish;
3. Tildagi eski va yangi yaratilgan soʻzlardan foydalanish;
4. Sheva va lahjalarga mansub soʻzlarga murojaat qilish;
5. Tildagi yordamchi soʻz va qoʻshimchalardan foydalanish;
6. Turli sohalarga oid atamalardan foydalanish;
7. Tildagi fonetik vositalarni ishga solish;
8. Tildagi yumuq iboralar, frazeologok iboralar, maqol, matallarni istifoda etish;
9. Soʻz birikmasi yoki gapning kutilmagan shakllarini qoʻllash.

Ushbu tasnifdan maʼlum boʻladiki, asarda kechadigan voqea-xodisalarni shakl qolipiga soluvchi badiiy nutq imkoniyatlari nihoyatda keng doirani tashkil etadi. Albatta, endigina boshlangʻich sinf partasidan chiqib beshinchi sinfga koʻchgan oʻquvchilarga adabiyot nazariyasi bilan bogʻliq mazkur masalalarni tahlil qilib, tushuntirib oʻtirish shart emas. Chunki ularning iqtidori ushbu qonun-qoidalarini hazm qila olmaydi. Agarda oʻqituvchining oʻzi yuqorida taʼkidlangan nazariy masalalarni yaxshi oʻzlashtirgan boʻlsa, bolalarni obraz va obrazli til elementlari bilan tanishtirish imkoniyatlari roʻyobga chiqadi.

V- sinf darsligida “Susambil” ertagi matni berilgan. Eng avvalo ertakning nomi har bir oʻquvchini qiziqtiradi. Ular oʻqituvchidan nomning maʼnosini Sarimsoqov B. Oʻsha asar, 116-120-betlar. soʻrashadi. Shu sababli oʻqituvchi bu nom haqida oʻquvchilarga qanoatlanarli javob berishga tayyor boʻlishi kerak. Folklor shunoslik fanida epik makon,

¹ Саримсоқив Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2007., 8-бет.

mifologik makon va real makon degan tushunchalar mavjud.

Susambil, Chambil degan nomlar epik makon turiga kiradi. Bu nomlar ertak va dostonlarda ko‘plab uchraydi va ular bir vaqtlari ijodkor ertakchi va baxshilar tomonidan o‘ylab topilgan. Bolalarga bu uchala makon haqida to‘la ma’lumot berish shart emas. Nazariy ma’lumot berishda ertak doirasidan chiqmagan ma’qul. “Susambil” ertagi hajman katta, shu sababli uni mazmun-mohiyatiga qarab uch qismga bo‘lib tahlil qilish lozim. Ertak bilan tanishgandan so‘ng bu vazifani o‘quvchilarning o‘ziga topshirish kerak. Albatta o‘qituvchi oldindan bu masalani hal qilib kelishi lozim. Tahminan bu uch bo‘lim quyidagicha bo‘ladi:

1. Hayvonlar boy xizmatida.
2. Susambil yo‘lida.
3. Susambildagi hayot.

Avvalo, ertakning umumiy mazmuni bilan tanishib chiqqandan keyingina uni qismlarga ajratish imkoniyati yuzaga keladi.

Qismlarga ajratilgach, ertak tahliliga kirishish lozim. Matn tahlilini ertak muqaddimasi haqida nazariy ma’lumot berishdan boshlash lozim. Chunki, “Har bir sinfda Folklor materiallarini tanlashda o‘quvchilarning ruhiy hamda yosh xususiyatlari nazarda tutilgan. 5-sinfdan boshlaboq faqat Folklor asarlarining o‘zinigina emas, balki ularga bog‘liq holda ayrim nazariy ma’lumotlarni ham yetkazish ko‘zda tutilgan. O‘qituvchi mana shu dastlabki tajribalardan oq Folklor nazariyasining elementar ma’lumotlarini o‘quvchilar ongiga singdirib borishi kerak”¹. Ertakning muqaddimasi quyidagicha boshlanadi: *“Bor ekan-u, yo‘q ekan, och ekan-u, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumquq chaqimchi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, g‘oz kar-naychi ekan”*². O‘qituvchi ko‘pgina ertaklar muqaddimasida aynan takrorlanadigan ushbu saj‘li boshlanmaning an’anaviy ifoda vositasi ekanligini, bu an’ana ertak voqealariga eshituvchini tezroq jalb qilish, unga estetik ta’sir o‘tkazish, qolaversa, ertakchiga ertak voqealarini boshlash uchun turtki bo‘lib xizmat qilishini tushuntirishi kerak. Shuningdek, ushbu an’anaviy boshlanmadagi ayrim so‘zlarga izoh berish kerak bo‘ladi. Masalan: bakovul-oshpazlar boshlig‘i, yasovul-posbon,

¹ To‘xliyev B. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.2006. 49-bet.

² To‘xliyev B. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. 2006. 49-bet.

qaqimchi-tabib; chaqimchi-g'iybatchi kabi. Ertaklar biror hudud bilan bog'liq ertakchidan yozib olinganligi sababli uning leksikasida o'sha hudud bilan aloqador sheva so'zlari, o'z navbatida ertak yaratilgandan beri uning tarkibida saqlanib kelayotgan tarixiy va boshqa tillarga oid leksik birliklar bo'lishi mumkin. Ushbu ertak tarkibida ham o'shanday so'zlar anchani tashkil etadi: qarol-yollanib ishlovchi, batrak; gajimli-shokilali, popukli (sochoqli); boz-yana; arg'amchi-arqon; loaqal-hech bo'lmaganda; azroil-jon oluvchi; munkarnakir-o'lganlarni so'roq qiluvchi; so'fi-azon aytuvchi; so'yil-tayoq; vasvasa-xavf-xatar kabi. Ushbu so'zlar ma'nosini sharhlash birinchidan o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi. Ikkinchidan ertak g'oyaviy-mazmunini tushunib olishni osonlashtiradi.

Ertakning g'oyaviy mazmunini tushuntirish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning asosiy g'oyasi ozod va farovon hayot uchun kurash, do'stlik va hamjihatlikni ulug'lash, harqanday dushmani birlashib yengishdir. O'quvchilar boshlang'ich sinflardayoq ertak o'qishga ishqiboz bo'lganliklari sababli bu ertakni ham ular mustaqil holda o'qib, g'oyaviy mazmunini tushunib olishlari unchalik qiyin emas. Ammo ertakning badiiy – estetik ta'sirini bolalar ongiga yetkazish ancha mashaqqatli vazifadir.

O'qituvchi ertakni uchga bo'lib o'rganishga kirishishdan oldin yuqorida keltirilgan qiyin tushuniladigan so'zlarni lug'at sifatida doskaga yozib qo'yishi kerak. Matn o'qilib, mazmun va g'oya ma'lum bo'lgandan keyin ertak tarkibidagi turli maqollar, xalqona iboralar aniqlanib, ularning ertak badiiyatida tutgan rolini sharhlash lozim.

Karta-sxemalar tuzishning maqsadi, darslarni rang-barang qilish, uni mumkin bo'lgan darajada tig'izlashtirish, unga o'quvchilarning adabiy bilimlarni olishga qiziqishlarini va ijodiy faolliklarini oshirish, shunday qilib, ular mehnatining mazmunli va quvnoq bo'lishi uchun qo'shimcha (jumladan, o'lkashunoslikka oid) materiallarni jalb qilishdan iborat.

Ularni tubandagicha tasnif qilish mumkin:

Ifoda vositalari	Turi	Ma'nosi
Boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i	Maqol	O'sha-o'sha, o'zgarishsiz
Yo'l azobi go'r azobi	Maqol	Mashaqqat va qiyinchilik
Xo'jayinning qahri kelib, chayonday zahri kelib	Saj' usuli	Achchiqlanmoq
O'tning bo'lig'i, suvning tinig'i...	Saj' usuli	Mo'l-ko'llik.
Bular yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi.	Saj' usuli	Uzoq yo'l bosmoq
Ovini ovlab, dovini dovlab maza qilib...	Saj' usuli	Rohat-farog'atga erishmoq.
O'lganning ustiga tepgan deganday	Frazeologik ibora	Ustiga ustak azob bermoq
Shu yerdan boshni olib ketayin	Frazeologik ibora	Ustiga ustak azob bermoq
Borganlarning bag'riga shamol tegibdi.	Frazeologik ibora	Orzusiga yetmoq.
Rangi o'chib, qoni qochib iyaklari qaltirab, ko'zlari yaltirab qolibdi.	Saj' usuli (nasrdagi qofiya)	Charchamoq, madori qochmoq.

Agarda o'qituvchi ushbu tamoyilda ish tutsa, ertaklarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning til va badiiy nutq go'zalligini, til boyliklarini, uning ifoda vositalari va me'yorlarini idrok etishga qaratilgan estetik qarashlari ham yuksalib boradi. "Badiiy matnning butun jozibasi siru sehri ochilgandagina o'quvchi hayratga tushadi, loqaydlik vaziyatidan chiqadi. Loqaydlikdan forig' bo'lgan, hissiyoti uyg'ongan, ruhiy mudroqlikdan xalos bo'lgan o'quvchilardagina ma'naviy sifatlar o'z-o'zidan shakllana boradi". Adabiyot nazariyasini o'qitishdan asl maqsad ham yoshlarni yuksak ma'naviyatli, madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalab yetishtirishdir.

O'qituvchilarga yuqoridagi obrazli iboralarning asar matnini o'qimishli va bo'yoqdor chiqishidagi ahamiyati masalasiga alohida to'xtalish zarur. Agarda badiiy nutqda o'quvchida ehtiros uyg'otuvchi o'shanday obrazli ifodalar bo'lmasa, matnning badiiylilikdan mahrum bo'lishini bolalar anglab yetishi lozim. Albatta asarda ishtirok etuvchi obrazlar haqida alohida chuqur ma'lumot berish kerak bo'ladi. "Susambil" ertagida asosiy obrazlar eshak va ho'kizdir. Ular mehnatkash bo'lishlariga qaramay qadr topmaydilar. Shu sababli to'q va farovon hayot izlab Susambilga yo'l olishadi. Yo'lda xo'roz, kalamushlar, arilar ularga sherik bo'lishadi. Oxir-oqibat ular baxtga erishadilar va hamjihat bo'lib hayot kechirishadi, ahillik bilan dushmanlar ustidan g'alaba

qozonadilar. O‘quvchilarga har bir obraz tavsifini to‘la yetkazish lozim. Ularga shunday ta’sir qilish keraki, obrazlar qiyinchilikka duch kelishsa qayg‘ursinlar, baxt-saodatga erishsa shodlansinlar. Ertaklardagi asosiy g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazishning ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

Birinchi navbatda ular yoshlardagi ijodiy iqtidorning o‘lishiga imkon yaratadi. Qolaversa ularda xalq madaniyati va qadriyatlarini e’zozlash hissini uyg‘otadi. Ertaklarning mazmunini hikoya qildirish jarayonida bolalarning bog‘lanishli nutqi rivojlanadi. Ularni ertaklarni to‘plashga o‘rgatish esa bolalarning ijodiy qobiliyatini o‘lishiga olib keladi. Bu omillarning barchasi o‘qituvchining fanni qay darajada egallaganligi bilan aloqadordir.

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagida xalq badiiy dahosi, tafakkur qudrati yaqqol namoyon bo‘lgan. Shu sababli bu ertak doimiy ravishda maktab darsliklaridan joy olib kelmoqda. Ertakni yosh bolalar hali V sinfga yetmasdan burun o‘qib ulgurishadi, uning ibratli mazmuni bilan tanish bo‘lishadi. Ertakni tahlil qilganda undagi eng muhim nuqtalarga e’tibor qaratish kerak. Uning matnini o‘qitib, qayta hikoya qildirish shart emas. Ertak nihoyasida darslik mualliflari 7 ta savol qo‘yishgan. O‘qituvchi ana shu savollarga ijodiy yondoshib, unga yana qo‘shimcha savollar tirkab, darsni savol-javob asosida tashkil qilsa, ertakdagi asosiy g‘oya o‘quvchilar ongiga yetib boradi. Shuni unutmaslik kerakki, qo‘shimcha savollar ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlarini ochishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Chunki darslikda keltirilgan savollar asosan asarning g‘oyaviy mazmuni bilan aloqadordir. Yaxshisi dastlab kitobda berilgan savollar vositasida muloqot qilib, keyin asar badiiyati bilan aloqador qo‘shimcha savollarni davom ettirish yaxshi natija beradi.

№	Savollar	Javoblar
	Ushbu ertakning “Uch og‘a-ini botirlar” deb atalishiga sabab nima?	Ertakda uch obraz-uch og‘a-ini qatnashadi. Ularning ertakdagi faoliyatlari mazmunning asosini tashkil etadi. Bu uchta obrazni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘z navbatida uchalar ham ijobiy xarakterga ega. Shu sababli ertakni boshqacha nomlash mumkin emas.
	Ota o‘g‘illar tarbiyasida uch narsaga e‘tibor berganini aytadi. Ular nimalardan iborat?	Ota birinchidan, o‘g‘illarini sog‘lom vujudli qilib o‘stiradi. Bu kuch-quvvat degani. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtiradi-yigitlar qurol-yarog‘ ishlatishdan boxabar bo‘lishadi. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stiradi. Ular botir, jasur bo‘lib yetishadi.
	Ota o‘g‘illariga aytgan uch Bu uchta nasihatda katta hayotiy hikmat mavjud. Ota bu uchta nasihatga javobni ham o‘sha yerda aytib o‘tgan. nasihatida qanday hikmat bor? “To‘g‘ri bo‘ling”, “Maqtanchoq bo‘lmang”, “Dangasalik qilmang” degan nasihatlar ma‘nosini o‘zingizcha chaqishga harakat qiling.	Bu uchta nasihatda katta hayotiy hikmat mavjud. Ota bu uchta nasihatga javobni ham o‘sha yerda aytib o‘tgan. Ammo ushbu qisqa javoblarning negizida katta haqiqatlar yotadi. Negaki, to‘g‘ri bo‘lgan kishi hech nima va hech kimdan qo‘rqmaydi. Buni xalq maqollari ham tasdiqlaydi: Rostga zavol yo‘q. Egri ozadi, to‘g‘ri o‘zadi. Maqtanchoqlik esa boshga balo olib keladi. Buni maqollar bilan isbotlash mumkin: Maqtanma g‘oz, hunaring oz. Kamtarga kamol-manmanga zavol. Dangasalik esa kishini xor-zorlik sari yetaklaydi: Baxt yalqovga begona. Erinchoqlik boshga balo keltiradi. Ota bolalariga nasihat berganda xalqning asrlar bo‘yi to‘plagan tajribasiga tayangan.
	Safarda uch kechada uch og‘a-ini qanday voqea hodisalarni boshidan kechirdi? Har biri to‘g‘risida alohida hikoya qiling, ularga sarlavhalar toping.	Ertakda tasvirlangan uch kechadagi uch voqeaning har biri og‘a-inilar obrazining ijobiy qiyofasini ochib berishda o‘ziga xos bir kichik hikoya sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchi kechadagi voqeaga “To‘ng‘ich botir va sher” deb sarlavha qo‘yish mumkin. Chunki to‘ng‘ich botir birinchi kechada poyloqchilik qilib to‘qaydi sher bilan olishadi va uni o‘ldirib, uning terisidan bir tasma olib, beliga bog‘laydi. Chunki lozim paytda bu voqeani isbot qilishda tasma dalil sifatida xizmat qiladi. Ikkinchi kecha voqealariga “O‘rtanchi botir va ajdar” deb sarlavha qo‘yish mumkin. Chunki u o‘z poyloqchiligi paytida g‘orda makon tutgan ajdar bilan olishib, uni yengadi va terisidan bir tasma olib beliga qistiradi. Uchinchi kechadagi voqealarni “Kenja botir va qaroqchilar” nomi bilan atash mumkin.
	Kenja o‘g‘il sarguzashtlariga alohida e‘tibor bering. Kenja botirning tadbirkorlik bilan qaroqchi-o‘g‘rilar boshini qilichdan o‘tkazib arkka kirishi, uyqudagi podshoh qizlariga duch kelishi, avval akalari nasibasi-baxtini o‘ylab, oxirida ko‘rgan qizni o‘ziga ravo ko‘rishi nimani anglatadi.	Kenja o‘g‘ilning sarguzashtlari ertakning asosini tashkil etadi. Chunki ertak o‘sha sarguzashtdan keyin o‘z yechimiga ega bo‘ladi. U poyloqchilik qilgan paytda chiroq o‘chadi. Uni yondirish uchun olov izlab borib, kenja botir qaroqchilar to‘dasiga duch keladi. Ularning razil kishilar ekanini anglab, hiyla ishlatadi va qaroqchilarning barchasini podshoh saroyi devori tagida qilichdan o‘tkazadi. Keyin podshoh qizlariga duch kelib, katta qizni katta akasi, o‘rtanchi qizni o‘rtanchi akasi uchun tanlaydi. Uning o‘zini o‘ylamay dastlab akalari baxtini o‘ylashi oliyanoblik va yuksak ma‘naviyatlilik belgisidir. Eng oxirida esa u kenja qizni o‘zi uchun tanlaydi.

Uch og'a –inining ziyofat paytida dasturxonga qo'yilgan go'sht, shinni, non to'g'risidagi gaplari-ta'birlar iga e'tibor bering. Bu ta'birlarning Uch og'a inining ziyofat paytidagi o'zaro suhbatlari ularning nihoyatda sinchkov, tajribali va bashoratchi, aql-zakovat egalari ekanligidan darak beradi. Og'a –inilarning bu ta'birlari to'g'ri chiqqandan so'ng podsho ularning tasodifiy bir yo'lovchilar emas, balki yuksak aql-idrokka ega bo'lgan dono yigitlar ekanligiga tan beradi va ishonch bilan ularni kuyov qilishga qaror qiladi. siri ochilgach, aka-ukalar hayotida qanday o'zgarishlar yuz beradi?	Uch og'a inining ziyofat paytidagi o'zaro suhbatlari ularning nihoyatda sinchkov, tajribali va bashoratchi, aql-zakovat egalari ekanligidan darak beradi. Og'a –inilarning bu ta'birlari to'g'ri chiqqandan so'ng podsho ularning tasodifiy bir yo'lovchilar emas, balki yuksak aql-idrokka ega bo'lgan dono yigitlar ekanligiga tan beradi va ishonch bilan ularni kuyov qilishga qaror qiladi.
Suyukli kuyov-Kenja botir nima sababdan zindonga solindi? Ertak oxirida "Kenja botir podshoga qarab bir hikoya aytdi" deyiladi, sizningcha, bu qanday hikoya? Kenja botirning taqdiri nima bo'ladi?	Kenja botirning zindonga tushishi tasodifiy tarzda, podshohning chuqur o'ylamasdan ig'voga ishonib hukm chiqarishi natijasida yuz beradi. Podshoh uxlab yotganda unga ilonning hamla qilishini ko'rib qolgan Kenja botir ilonni o'ldirib, qilichini qinga solayotganda podshoh uyg'onib qoladi va shubhaga tushadi. Vazirning ig'vogarligi esa uning nohaq hukm chiqarishiga sababchi bo'ladi. Bu hukmni podshohning qizi otasiga yolvorib bekor qildiradi. Kenja botir o'zining aybsiz aybdor ekanini isbotlash uchun podshohga "To'ti hikoyasi"ni so'zlab beradi. Bu hikoya darslikda berilmagan. Uni o'qituvchining o'zi topishi yoki o'quvchilarga manbani aytib topdirishi lozim.

O'tmishda ham, hozirda ham mashhur yozuvchi va shoirlar doimo xalq ijodiyotidan foydalanib, nodir asarlar yaratganlar. Bunga A.Navoiy, M.Gulxaniy, G'.G'ulom, H.Olimjon kabi ijodkorlarning asarlari misol bo'la oladi.

V sinf darsligida H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertagi berilgan. Avvalo, bolalarga adabiy ertak nima ekanini tushuntirish lozim. Adabiy ertak biror shoir tomonidan muayyan bir ertak syujeti asosida yaratiladi. Ushbu jarayonda adib ertak syujetiga ma'lum o'zgarishlar kiritishi, obrazlarning nomlarini o'zgartirishi, yangi epizodlar qo'shishi mumkin. Ayni paytda ertak nasrda hikoya qilinsa shoir uni she'riy shaklda yozishi ham mumkin.

H.Olimjon ham adabiy ertaklarni yaratishda ana shu tamoyillarga asoslangan. Agar ertak she'riy usul orqali hikoya qilinsa, voqealar ko'tarinki tarzda ifodalanib, uning badiiy-estetik ta'sirchanligi yuksaladi.

Shoir H.Olimjon ushbu asarini yozishda “Oygul bilan Baxtiyor” (F.Abdullayev Beruniy tumanidan yozib olgan), “Malikai Husnobod” (Namangan viloyatidan yozib olingan. Aytuvchi: H.Xudoyberdi o‘g‘li), “Erni er qilgan xotin” (M.Afzalov yozib olgan) kabi ertaklarning syujeti va obrazlaridan ijodiy foydalangan. “Oygul bilan Baxtiyor” adabiy ertagi 1937 yilda yozilgan. Bu asarda insoniyatning azaliy orzusi bo‘lgan ozodlik, tenglik, vatanparvarlik kabi g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Ijodkor ana shu badiiy-estetik orzu umidlarni ilgari surishda xalq ertaklari qahramonlaridan o‘z individualligi bilan ajralib turadigan Oygul, Baxtiyor, Darxon kabi obrazlarni kashf etdi.

Shoir adabiy ertagini yaratishda faqatgina ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarnigina rivojlantirib qolmasdan, balki kompozitsiya, obrazlar tizimi, badiiy ifoda vositalarida ham originallikka erishdi. Ayniqsa shoir obrazlarning individual qiyofasini yaratishga asosiy e‘tiborni qaratgan. Oygul ertakdagi obrazga qaraganda ancha mukammal. U ertakda o‘sha davr ayollari dunyoqarashiga mos tasvirlangan bo‘lsa, shoir asarida xalq xaloskori darajasiga ko‘tarilgan.

Adabiy ertakda ayrim personajlar, salbiy tiplar, epizodlar, makon tasviri ham originallikka yuz burgan. Odatda ertaklarda makon va zamon noma’lum bo‘ladi. Ismlar ham aytilmasdan chol, kampir, yigit, qiz kabi umumlashma nomlar ishlatiladi. Adabiy ertakda esa makon Jambil tarzida berilib, voqealar keyinchalik Jurjon, Susambil kabi o‘lkalarda davom etadi. Bundan tashqari “Oygul bilan Baxtiyor” ertagidagi Xo‘ja savdogar, yetti qaroqchi. Shuningdek “Malikai Husnobod”dagi qizning otasi, Jurjon shohi shoir talqinida tamoman o‘zgartirilgan. Ular hayotiyashtirilib, Oygul obrazi yorqin xarakter kasb etgan.

Ertaklar syujetidagi asosiy detallar ham o‘zgarishga uchragan. “Malikai Husnobod”da quyidagi detallar mavjud: a) bosh qahramonni zindondan qutqargan dono vazir; b) sandiq; va o‘tinchi chol; g) Jayhun baliq; d) Cho‘pon yigit; ye) qiz qulog‘idagi baldoqlar. Adabiy ertakda ular quyidagicha: a) Oygulni zindondan qutqaruvchi shaxs-qul Tarlon; b) sandiq; v) o‘tinchi chol; g) Jayxun baliq; d) Baxtiyor, ye) Baliq qornidan chiqqan gavharlar. Ko‘rinadiki, shoir ertakdagi voqealarni hayotiyashtirishga intilgan. Chunki, vazirning mahkum shaxsni ozod qilishi ishonarsiz. Shu sababli shoir uning o‘rniga qul Tarlon obrazini kiritadi. Cho‘pon bola-noma’lum shaxs, shu sababli u Baxtiyor obraziga aylantirilgan. Qul qizida oltin baldoq bo‘lishi mavhum holat, shu bois

muallif ularni baliq qornidan chiqqan gavharlarga almashtiradi.

“Oygul bilan Baxtiyor” adabiy ertagi xalq ertaklari bilan qiyosiy usulda o‘rgatilar ekan, o‘qituvchi birinchi navbatda ushbu asarning xalq ertaklaridan ajralib turadigan tomonlariga asosiy e’tiborni qaratishi kerak. Jumladan, shoirning badiiy mahorati, xalq tili boyliklaridan foydalanishi, shakl va mazmundagi o‘zgarishlar masalasi yoritib berilishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi asarda ustalik bilan qo‘llanilgan xalq tili boyliklari to‘g‘risida so‘zlashi lozim. Oygulning mardligi, xalqparvarligi, vatanparvarligi, vafodorligini tasvirlovchi misralarni o‘quvchilarga topdirib, so‘z va iboralar ma’nosini sharhlab berishi zarur. Adabiy ertak qahramonlari obrazi bilan ertakdagi qahramonlar obrazini chog‘ishtirayotganda adabiy ertak qahramonlariga xos nutqqa shoirning sayqal berganligini alohida tushuntirishi lozim. Bu yerda Oygul bilan Jurjon shohi nutqlarini qiyoslash jarayonida H.Olimjonning badiiy nutqni qayta ishlashdagi mahoratini ochib berish alohida ahamiyatga ega.

Dars jarayonida xalq ertaklariga xos badiiy nutq, tasvir usuli bilan adabiy ertakdagi uslubni qiyoslash, badiiy nutqning yozma adabiyotdagi o‘ziga xosligini tushuntirish orqali bolalarga og‘zaki va yozma adabiyotdagi o‘zaro farqni anglatish yaxshi natija beradi, ularning badiiy so‘z san’atiga qiziqishlari ortadi.

Adabiy ertak bilan xalq ertaklari o‘rtasidagi farq asar finalida ham ko‘zga tashlanadi. Xalq ertaklarida hamisha an’anaviy tugallanma “murod-maqсадlariga yetdilar” yoki “qirq kecha-kunduz to‘y-tomosha berdilar” tarzida beriladi. H.Olimjon esa ertakni yuksak optimizm, ibratli didaktik xulosa bilan nihoyalaydi: Xon bo‘lmasa Jambilda Qayg‘u ham bo‘lmas dilda. Mana bu ota Tarlon, Hammangizga bosh bo‘lur. Bosh qahramonning xalq ommasini bilan munosabati zolimlarga qarshi ayovsiz kurashi, Jambil xonini taxtdan ag‘darib, davlat boshqarishni qul Tarlonga yuklatilishi asar xalqchilligini yuksak darajaga ko‘targan. Asar g‘oyasi ijtimoiy xarakter kasb etgan. Dars jarayonida o‘qituvchi ushbu masalalarni tegishli misollar orqali batafsil bayon qilsa bolalar adabiy ertak mohiyatini chuqur anglab olishadi.

Xalq ertaklarini o‘rganishda quyidagi metodik usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqlar (klaster) usuli. Bu usul o‘quvchi - talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda

adabiyotlardan foydalanishni o'rganishga qaratilgan. Masalan, ijodkor biografiyasini yoki badiiy asar qahramonlarini shu usul bilan o'tish mumkin.

2. Blis – o'yin usuli. Bu usul harakatlar ketma - ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma -xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Bu usuldan ijodkor tarjimai holidan muhimlarini tanlashda qo'l keladi.

3. Intervyu usuli. Bu usul o'quvchi - talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishga qaratilgan. Istalgan adib ijodi yoki asar qahramonlari haqida tajriba qilib ko'rish mumkin.

4. Talaba usuli. Bunda o'quvchi - talabalar bilan individual holda ishlash, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

5. Boshqaruv usuli. Bu usul o'qituvchilarni auditoriyaning boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi - talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shuni o'rgatishga qaratilgan.

6. Muloqot usuli. Bu usul o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb qila olish, dars jarayonida *hamkorlikda* faoliyat ko'rsatishga va uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan. Bu o'ziga xos erkin suhbatdir.

7. An'anaviy dars o'tish usuli:

- o'quv mavzusini og'zaki bayon (hikoya) qilish;
- suhbat (savol-javob);
- darslik bilan ishlash;
- namoyish qilish – ko'rsatish;
- ma'ruza.

8. Noan'anaviy dars o'tish usuli:

- konferensiya darsi;
- seminar darsi;
- texnika vositalari yordamida dars o'tish;
- bahs-munozara darsi.

“Doston” so'zi fors tilidan olingan bo'lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she'riy shaklda yaratiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Navoiyning «Xamsa» asaridagi beshta doston va hokazolar. Yozma adabiyotdagi

dostonlar aruz vaznida yoziladi. Individual ijod mahsuli hisoblanadi. Binobarin, yozma adabiyotdagi dostonlar yakka shaxs ijodi an'analari asosida vujudga keladi.

Ikkinchi tur dostonlar og'zaki ijod mahsuli sifatida folklor an'analarga bo'ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov ta'rificha, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo'lishi lozim (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur. Xalq og'zaki ijodidagi doston folklorshunos olimlarning diqqatini alohida o'ziga jalb etgan, o'zbek xalq og'zaki ijodi tarkibida eng ko'p o'rganilgan, katta munozaralarga sabab bo'lgan, qolaversa, o'zbek xalq og'zaki ijodi merosini butun dunyoga ma'lum va mashhur qilgan janrdir.

Dostonni olimlar sinkretik janr deb biladilar. "Sinkretik" so'zi yunoncha birlashgan; qism, bo'laklarga ajralgan ma'nosini beradi. Doston haqida gap borganda, sinkretik so'zi bu janrdagi asarlarda so'z, musiqa, xonandalik, hofizlik, badiiy o'qish, notiqlik, aktyorlik san'atlarining uyg'un namoyon bo'lishini izohlaydi. Haqiqatan ham, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullayev), Chori baxshi Xo'jamberdiyev, Shomurod baxshi Tog'ayev, Qahhor baxshi Qodir baxshi o'g'li Rahimov ijrolarini bevosita ko'rish va eshitish jarayonida yuqorida qayd etilgan san'atlarning to'liq go'zallikda uyg'unlashuvini, qo'shimcha ravishda bu ijrochi va ijodkorlarda badiha san'ati mahorati to'liq namoyon bo'lganini ko'rganmiz. Ustoz Muhammadnodir Saidovning yuqorida qo'ygan to'rt talabiga ko'ra doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar doirasida tabiiy vaziyatda ijro mahoratidan bahramand bo'lish shartini ham qo'shimcha ravishda qayd qilmoqchimiz. Bu shartning zarur ekanligi televideniye, radio, fonogrammalar orqali doston ijrosi bilan tanishish natijasida aniq seziladi. Baxshi texnik vositalar (kamera, mikrofon) guvohligidan ko'ra bevosita tinglovchilar uchun tabiiy sharoitda doston ijro etganida o'zini erkin his qiladi, badihago'ylik qobiliyatini yaxshiroq ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Baxshi doston kuylayotganida o'zining ijrosidan

o‘zi zavqlanadigan payt bo‘ladi. Tinglovchilar baxshi mahoratidan bahra olib ehtirosli ovozlar chiqarishadi. Ana shunday holatda baxshining qaynashi ro‘y beradi. Tabiiy sharoitda qaynash tezroq amalga oshadi. Undan tashqari do‘mbira to‘ntarish odati ham bor. Ijrochi bir oz dam olish bahonasi bilan do‘mbira to‘ntaradi va xonadan havo olish uchun tashqariga chiqadi. Bu vaqtda tinglovchilar o‘z atagan hadyalarini to‘plab do‘mbira yoniga qiyiqchaga solib qo‘yishadi. Bu odat ham tabiiy ijro paytida oson va qulay bajariladi. Xullas, baxshi uchun ham, tinglovchi uchun ham oddiy, samimiy, tabiiy sharoitda doston aytish ma‘qul hisoblanadi.

“Doston” so‘zining yana bir ma‘nosini ham bilib olish kerak. Bu – el orasida gapirilmoq, kuylanmoq, og‘izga tushmoq demakdir. Demak, dostonlarda ishtirok etgan qahramonlar, bir tomondan, asardagi obraz sifatida qayd etilsa, ikkinchi tomondan, el og‘ziga tushuvchi, shuhrat topuvchi inson tushunchasini ham o‘zida singdirgan bo‘ladi. Natijada, ayniqsa, ijobiy qahramonlarning og‘izga tushishi yoki muhabbat topishi xalq pedagogikasi talablariga ham javob beradigan inson bo‘lib tanilishi bilan bog‘lanadi. Shunday qilib, «Alpomish», Go‘ro‘g‘li turkumidagi «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Malika Ayyor», «Ravshan» kabi o‘nlab asarlar, «Kuntug‘mish», «Rustamxon», «Oshiq G‘arib va Shohsanam» kabilar xalq og‘zaki ijodidagi doston janriga mansub namunalar bo‘lib, asrlar davomida el qalbidan samimiy hurmatga sazovor, shuhratga erishgan durdonalardir. Dostonni baxshilar kuylaydilar. Baxshilar esa o‘z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o‘rgangan san‘atkorlardir. Agar maqollarni, topishmoqlarni millatimizning istagan vakili aytishi, qo‘shiqlarni har bir oshiq yoki ma‘shuqa ijro etishi mumkin bo‘lsa, doston ijrosi alohida shogirdlik faoliyatini boshidan kechirgan, maxsus ta‘lim ko‘rgan va muayyan iqtidorga ega shaxsgagina nasib qiladi.

«Baxshi» so‘zi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da to‘rt xil ma‘no berishi ko‘rsatilgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to‘rt ma‘nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo‘lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqlli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta‘kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug‘atda izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq

tasavvuridagi baxshilar soʻzning moʻjizaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forigʻ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va oʻtgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston eshitish bilan birga dardlaridan ham qutulganlar, turmush tashvishlaridan ozod boʻlganlar, oʻzlarini yengil sezganlar. Oʻzbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning maʼlumot berishicha, baxshi moʻgʻulcha va buryatcha “baxsha”, “bagʻsha” soʻzlaridan olingan boʻlib, “ustod”, “maʼrifatchi” maʼnolarida qoʻllangan. Maʼlum boʻladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga ega, eʼzoz topgan hunar egalari ekan.

Folklorshunoslikda baxshilarning turli nomlar bilan atalgani ham maʼlum. Xususan, yuzboshi, soqi, jirov, jirchi, oqin shular jumlasidandir. Baʼzan usta soʻzi ham qoʻllangan. Baxshilarning ustoz izidan chiqib, oʻziga xos uslubda, badihagoʻylikdan keng foydalanuvchilari, koʻpincha, shoir deb ham atalgan. Shuningdek, Xorazmda doston aytuvchi ayollar xalfa nomi bilan mashhurlar.

Dostonchilik maktablari. Oʻzbek dostonchiligida doston kuylash anʼanasi qadimda uch yoʻnalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi oʻzbek-laqay dostonchilik maktablarida doʻmbira chertib yakka holda, boʻgʻiz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, gʻijjak, garmon, bulamon, qoʻshnay, doira joʻrligida baʼzan yakka, baʼzan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Fargʻona vodiysida dutor joʻrligida ochiq ovozda aytilgan.

Shubhasiz, oʻzbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro usuli doʻmbira joʻrligida boʻgʻizda doston aytish hisoblanadi. Baxshining boʻgʻizda ichdan kuch bilan ovoz chiqarishi juda qadim zamonlarda shimol xalqlari afsungarlari – shamanlarda mavjud edi. Demak, oʻzbek baxshilarini uzoq oʻtmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki sanʼat ijrosi bogʻlaydi. Ehtimol, keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun anʼana boʻlib qolgan. Oʻzbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining soʻnggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilamiz. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlarini eslatishi mumkin boʻlgandir.

Har holda bunday baxshichilik sanʼati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi. Filologiya fanlari doktori, professor Toʻra Mirzayev maʼlumotiga koʻra, Bulungʻur

dostonchiligida qahramonlik dostonlarini ijro etish ko'proq amalga oshgan . Bu maktabning so'nggi vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malika ayyor» kabi dostonlar yozib olingan. Fozil Yo'ldosh o'g'li Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan «Alpomish» dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo folklorshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) Qo'rg'on maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Po'ltan shoir (1874-1941) ijodi bilan bog'liq. Bu yerda "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini ijro qilish an'anasi keng rivojlangan edi. Folklorshunoslikda ayol baxshilar: Sulton kampir, Tilla kampir, shuningdek, Yodgor, Jumanbulbul, Jossoq baxshilar ijodi o'rganilgan.

Shahrisabz dostonchiligida Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957), Narpay dostonchiligida Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953) ijodi alohida qayd etilgan. "Orzigul", "Sohibqiron", "Erali va Sherali" kabi dostonlar ijrosini bu maktab vakillari yuqori san'at darajasiga yetkazib kuylaganlar. Bir baxshining ijodi butun tuman baxshichilik an'anasiga sezilarli ta'sir o'tkazishi hayot tajribasida tasdiqlangan holdir. Masalan, bir paytlar baxshilar sulolasi bilan g'ururlangan maktablar bugungi kunda inqirozga yuz tutgan bo'lishi mumkin. Xususan, hozirgi paytda Bulung'ur, Nurota tumanlaridagi mashhur baxshilar o'z faoliyatlarini to'xtatganlar. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Qodir baxshi Rahimov an'anasi to'la quvvat bilan farzandlari Qahhor, Abdumurod, Bahrom timsolida davom etmoqda. Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo'lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga do'mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo'l-yo'lakay o'zgartirish kiritishdan o'zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligida doston matn, ko'pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o'zgartirish kiritish bu an'ana qoidalari bo'yicha ma'qullanmaydi. Tabiiy savol tug'iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini

qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilari o'z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondagi she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko'rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi. XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi - Qurbonnazar Abdullayev ijodi bilan bog'liqdir. Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o'ringa ega bo'ldilar. Bu an'ana bugungi kunda ham to'liq davom etmoqda. Qalandar baxshi Normatov, Norbek Abdullayev, Zulfiya Ortiqova, Nodira Bekova, Rohat Xo'janiyozovalar ustoz baxshilar va xalfalar san'atini davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Bozirgon" kabi dostonlar mahorat bilan ijro etilmoqda. Xalfalar esa dostonidan parchalar, to'y qo'shiqlarini, lapar, yallalarni kuylashda xalqqa rohat bag'ishlamoqdalar.

Xorazm dostonlarini ijro etishda mahalliy sharoitda tajribadan o'tgan tarixiy odatlar haqida baxshilardan ma'lumot olganmiz. Unga ko'ra XIX-XX asrlarda Xorazmda katta to'y bergan odam marosimga uch-to'rt guruh baxshilarni chaqirgan. Guruhlar bir-birlariga xalaqit bermaydigan masofada davra qurishgan. Tinglovchi bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib yurgan. Qaysi baxshi ma'qul bo'lsa, o'sha davrani ma'qul ko'rgan. Natijada, to'y oxirida mohir va no'noq baxshi atrofida gi tinglovchilar soniga ko'ra ajralib qolgan. E'lon qilinmagan musobaqada mag'lubiyatga uchragan baxshi o'z ustida ishlashga majbur bo'lgan. Shuningdek, Bola baxshining eslashicha, Muhammad Rahimxon Feruz xonlik paytida har yili hofiz, sozanda, baxshilarning ko'rigini o'tkazar ekan. Ko'rikdan o'ta olmagan san'atkor tinglovchilar oldida soz chalish, ashula aytish, doston kuylash huquqidan mahrum qilinar ekan. Bu san'atkor keyingi ko'rikkacha muttasil mashq qilib o'zini oqlashga uringan. Darvoqe, 1909 yilda 9-10 yashar Qurbonnazar xon huzurida doston aytishga chaqirishadi. Feruz yosh baxshidan uning ismini so'raydi. Bola ismi Qurbonnazar ekanini aytganida, xon tabassum bilan: - Sening isming Qurbonnazar emas, Bola baxshi, - deb unga oq fotiha bergan ekan. Shu-shu Qurbonnazar Abdullayev Xorazm va

Turkmanda "Bola baxshi" nomi bilan mashhur bo'lgan. Xorazm dostonchiligini chuqur ilmiy asosda o'rgangan filologiya fanlari doktori, professor Safarboy Ro'zimboyev Xorazm dostonchiligi, o'z navbatida, Shimoliy va Janubiy an'analarga bo'linishi, ularning o'zaro farqlari va baxshilar, sozchi (garmon bilan doston aytuvchi ijrochi)lar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan .

O'zbek dostonchilik an'anasining yana bir turi Farg'ona vodiysida shakllangan. Namangan viloyatining shimoli Uychi, Yangiqo'rg'on, Chortoq atroflarida Dehqonboy Bahromov, Ikrom Rizayev, Omon baxshi Razzoqovlar ijod qilishgan. Mahalliy xalq og'zaki ijodini o'rgangan olim Abdushukur Sobirov taniqli folklorshunos olim Tojiboy G'oziboyev bilan hamkorlikda mazkur dostonchilik an'anasini o'rganib, Qo'lbuqon, Sayram, Ariqbo'yi (Ariqmo'yin) maktablari mavjudligini qayd etadi .

Ahmadjon Meliboyev "Safed Bulon hikoyalari" kitobida Peshqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilgan Olim baxshidan "Yozi bilan Zebo" dostonini o'n ikki varaqli o'quv daftaridan o'ntasiga yozib olib, Muzayyana Alaviyaga yuborganini ma'lum qilgan . Ammo bugungi kunda Farg'ona vodiysidagi dostonchilik an'anasida doston ijro etadigan baxshilar ijod faoliyatlarini to'xtatganlar. Hamma o'zbek dostonchiligi an'analariida hajman cheklanish kuzatilmaydi. Madaniy merosimiz xazinasida "Bozirgon", "Sohibqironning tug'ilishi" kabi kichik asarlar va ayni paytda, "Alpomish", "Malika Ayyor"dek yirik dostonlar bor. Dostonlar hajmidagi nisbiy o'lchov inobatga olinsa, do'mbira chertib ijro etiladigan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda aytiladigan dostonlar hajmi Xorazm dostonlaridan ham, Farg'ona vodiysi dostonlaridan ham kengligi bilan ajralib turadi. Hajman Farg'ona vodiysidagilar ancha kichik hisoblanadi. Doston matni she'riy va nasriy parchalardan iborat bo'ladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li Bulung'ur tumanidan bo'lgani uchun do'mbira chertib ijro etiladigan dostonlarni shartli ravishda Samarqand dostonchiligi deb ataymiz. Bu an'ana asarlarida she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan, voqealar bayonini ifodalash, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlash jihatdan teng hisoblanadi. Fikrimizni dalillash uchun Ergash Jumanbulbul kuylagan "Ravshan" dostonidan nasriy parcha keltiramiz: "Oq qiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas,

sog‘ qiz, eri yo‘q o‘zi – toq qiz, yaxshi – tekis bo‘z bolani ko‘rsa, esi yo‘q – ahmoq qiz, qora ko‘z, bodomqovoq qiz, sinli – siyoq qiz, o‘zi semiz – turishi yog‘ qiz; o‘yinga qulayroq qiz, to‘g‘ri ishga bo‘layroq qiz, o‘zi anqov olayroq qiz, tanasi to‘sh qo‘ygan keng qiz, sag‘risi do‘ng qiz, urushqoq emas – jo‘n qiz, a‘zosi bari teng qiz... "

Bu dostondagi she‘riy qismlardan biriga diqqat qiling:

*Chu deb otin uradi,
Oyog‘ini tiradi.
Suvsiz cho‘lda G‘irko‘k ot
Irg‘ib, sakrab boradi.
Suvsiz cho‘lda mard Hasan,
Qattiq qistab boradi.
Obro‘ ber, deb yo‘llarda,
Hasan ketib boradi.*

Ba‘zi o‘rinlarda do‘mbira chertib aytiladigan dostonlarda lirik mazmundagi she‘rlar ham uchraydi:

*Paydo bo‘ldi ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchdim manzilxonadan.
O‘lim uchun g‘am yemayman, bo‘yingdan,
Bir armonim, yolg‘iz edim enamdan.*

Yuqorida keltirilgan parchadan bitta maqsadni nazarda tutamiz. Mazkur an‘anadagi asarlarda she‘riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan bir-biriga mutanosib turadi. Nasriy parchada qo‘fiyalashgan nasr – ilmiy adabiyotda saj‘ deb ataladigan usul qo‘llangan. "Oqqiz, naq qiz, sog‘ qiz, chog‘ qiz, bog‘ qiz" kabi qator qo‘fiyalarning qo‘llanishi, matnda kulgili lavhalarning yaratilishi baxshi mahorati darajasini ko‘rsatish bilan izohlanadi. She‘riy o‘rinlarda voqealar rivoji, sodir bo‘layotgan hodisalar bayoni bilan tanishdik. Otning, Hasanning suvsiz cho‘lda shiddat bilan ketishiga guvoh bo‘ldik. Keyingi to‘rtlikda esa qahramon his-tug‘usi ifodalanganini ko‘rdik. Ma‘lum bo‘ladiki, Qadimgi Bulung‘ur, Nur ota hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligidagi she‘r va nasr shaklidagi parchalar badiiy jihatdan teng turadi. Badiiy mukammallik har ikki shaklga xos fazilat sifatida belgilanaveradi.

Bu fikrni Xorazm dostonlariga nisbatan ayta olmaymiz. Chunki "Oshiq G'arib", "Oshiq Alband", "Kampir", "Bozirgon" dostonlaridagi voqealar rivoji faqat nasriy parchalar zimmasiga yuklatilgan. Agar o'quvchi dostonning mazmuni bilangina tanishish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, dostondagi nasriy parchalarni o'qish kifoyadir. She'rda esa asar qahramonlarining ruhiy holati, ichki kechinmalari ifodasini topadi. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida Shohsanam kanizlaridan uyalib o'z holini shunday bildiradi:

*To dunyodan ko'z yummayin,
Qayg'udan judo bo'lurmu?
Go'zal yorning firoqinda
O'lmaklik ravo bo'lurmu.*

Nasrda quyidagilarni o'qiymiz: "Andin so'ng Shohsanamning ahvolini eshitib, Aqcha sadoqatli bo'lib, mahram libosini kiyib Shirvon, Shemoxa ketti. Necha kunlar yurib Shirvon, Shemoxa yetti". Bu an'ana hamma Xorazm dostonlariga xos hisoblanadi. She'riy parchalarda lirik ehtiros aks etadi. Nasr esa dostondagi voqeani bayon etish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun nasr badiiy mukammallik bilan ajralmaydi. Agar Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar alohida musiqa jo'rligida aytilishini nazarda tutsak, bir doston o'ziga xos qo'shiq konsertidan iborat bo'lib qoladi. Baxshining doston voqeasi haqidagi hikoya esa konsertning o'ziga xosligini ta'minlovchi bir belgi, xolos.

Endi Namangan dostonchiligi an'anasiga oid "Zamonbek"dan olingan parchaga diqqat qiling: "Go'ro'g'li yigitlarining g'ayrati kelib, o'tday tutashib, Shodmon polvon degan yigit Mamaniyoz orqasidan quvib turgan joyi ekan:

*Ko'ring Shodmon polvon ishini,
Uni-buni deganiga qo'ymaydi.
Ko'p yigiti bir aylanib kelganda,
Mamaniyoz bir ag'darib tashlaydi".*

Nasr va she'rdan iborat parcha mazmunidan ko'rinib turibdiki, Farg'ona vodiysidagi Namangan dostonchiligida nasr va nazmning badiiy vazifasida farq yo'q ekan. Har ikkala shaklda ham voqea rivoji,

doston mazmunidagi lavhalar tasviri ifodasini topaveradi.

Yuqorida misollar bilan ko'rsatilgan uch an'ana haqida tasavvur paydo bo'lganidan so'ng o'zbek dostonchiligi, uning xalq og'zaki ijodi merosida tutgan o'rni yuzasidan to'liq tushunchaga ega bo'lamiz. Eng muhimi, do'mbira ijro etiladigan va Xorazm, Farg'ona vodiysidagi an'analarini birlashtirib turgan umumiylik, dostonchilikda she'riy va nasriy parchalar birikuvidan epik asarlar paydo bo'lgani bilan izohlanadi.

Xorazm dostonlarini o'rganish tajribasi har bir baxshi ijodiga alohida-alohida yondashish lozimligini tasdiqlamoqda. Doston ijrosi qaysi an'ana, qaysi maktabga taalluqli ekanidan qat'i nazar doston ijrosiga bo'lgan munosabatni baxshining mahorati, sozandalik darajasi, aktyorligi, ovozi belgilaydi. 1970 yilda Xorazm televideniyesi taklifi bilan Bola baxshi ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuv tashkil etdik. Ssenariy loyihasi bo'yicha Qurbonnazar ota Abdullayev yoshligidan doston aytib xalq orasida shuhrat topgani ko'rsatilishi lozim edi. Biz Bola baxshining o'rniga uning farzandlarini "yosh Bola baxshi" deb ekranda ko'rsatdik. Ammo "Mani yorim bog' saylina galarmish" qo'shig'i ijrosi rejissyorga ma'qul bo'lmadi. Uch-to'rt marta takrorlangandan so'ng o'g'lidan ko'ngli to'lmagan Bola baxshining o'zi: "Men aytib beraymi?" – deb doston ijrosini namoyish qildi. Avvalo, tor ovozi tamoman jarangdor edi. Baxshining yuzi to'liq harakatda edi, ko'zlari o'ynardi, qoshlari bir balandda, bir pastda qoqilardi. Burun, mo'ylov, lab shunchalar jozibali ko'rinish kasb etdiki, butun studiya bu tomoshani ko'rgani yig'ildi. Ustiga ustak, bir payt baxshi qo'lidagi soz tepaga uchib ketdi. Soz usuli buzilmagan holda yana qo'lga qaytdi.

Dostonlar tasnifi. O'zbek dostonchiligi ijro usuliga ko'ra xilma-xil ko'rinishga ega ekanini ko'rib chiqdik. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqovning o'rganish natijalariga ko'ra dostonlar mazmunan ham maqol, ertak, qo'shiq singari turlarga bo'linadi.

Olimlarimiz tasniflarida farqlar borligini qayd qilgan holda, umuman, dostonlarni mazmunan quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul hisoblaymiz:

1. Qahramonlik dostonlari ("Alpomish").
2. Ishqiy-romanik dostonlar ("Ravshan", "Kuntug'mish").
3. Jangnoma dostonlari ("Yakka Ahmad").

4. Kitobiy dostonlar (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Sayyod va Hamro”).

5. Tarixiy dostonlar (“Oysuluv”).

Yuqoridagi tasnifning asosini dostonlarda tasvirlangan voqealarning mohiyati belgilaydi. Avvalo, sevgi-muhabbat, qahramonlik, sarguzasht, jang lavhalari aks etmagan dostonlarning o‘zi yo‘q. Qaysi dostonni eshitmang yoki o‘qimang, albatta, asar qahramoni mardligi, jasorati bilan bizda hurmat qozonadi. Albatta, u kimnidir sevadi va uzoq safarga otlanadi. Ammo shunga qaramay, asarning umumiy mazmuni zaminida muayyan mavzu yetakchi hisoblanadi. Masalan, “Alpomish” dostonini olaylik. Doston farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Lekin aynan shu motiv “Kuntug‘mish”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra” dostonlarida ham bor. “Alpomish”da Hakimbek Qalmoq yurtiga ko‘chib ketgan Barchinni olish uchun safarga otlanadi. Safar motivi “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonida ham bor. “Nigor va Zamon” dostonidagi safar ma’shuqani olib kelishga bag‘ishlanmasa ham, Hasan podshohning Nigor qizini uzatishga roziligida G‘iroti olib kelish sharti bilan bog‘lanadi. Demak, safar ham dostonlarda ko‘p uchraydi. Ammo “Alpomish” dostonida Barchinga uylanish maqsadi Hakimbek safarida yetakchidek tuyilgani bilan asosiy masala Boysari bosh bo‘lgan va Qo‘ng‘irotdan ko‘chgan aholini o‘z yurtiga qaytarishdan iborat edi. Bu esa xalqni birlashtirish, yurt mustaqilligini ta’minlashdan iborat qahramonlik eposining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Shuning uchun olimlar dostonidagi muhabbat, jang, safar motivlarini inkor qilmagan holda “Alpomish”ni qahramonlik asari sifatida e’tirof etishgan. Keyingi paytlarda “Malika Ayyor”, “Chambil qamali” kabi dostonlarda ham qahramonlik motivi yetakchi ekanligi ko‘rsatilayotgan ilmiy asarlar ham borligini ta’kidlash joiz. Shuningdek, “Ravshan” dostonida ham jang lavhalari bor. Ravshan bir lavhada sevgi deb vatanidan kechadigan nomard emasligini aytadi va mardligini dalillaydi. Ammo dostonidagi yetakchi masala baribir uning Zulxumor ishqidagi sarguzashtlari bilan bog‘liq. Shu bois bu asarni ishqiy-romanik turga mansub berish ma’qul.

Qahramonlik eposi xalq og‘zaki ijodi tarixida folklorshunoslik nuqtai nazaridan alohida bosqich sifatida baholanadi. Yunonlardagi “Odisseya” va “Iliada” asarlari bu jihatdan qayta-qayta ta’kidlangan. Qirg‘iz xalq ijodidagi “Manas”ga ham shunday baho berish mumkin. Bunday asarlarda qahramonlik va favqulodda mardlik ko‘rsatgan xalq

farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, son va kuch jihatdan ustun turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. O‘zbeklarda qahramonlik eposiga “Alpomish” dostoni misol bo‘ladi. Unda yurtimizdagi milliy an‘analarning shakllanishi, tashqi dushmanga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Xalq dostonlari qadimdan xalq madaniy hazinasidan joy olgandir. Ezgu-estetik maqsad dostonlar yaratilishi ibtidosidir. Xalq dostonlari qahramonlik, maishiy, romantik va tarixiy kabi turlarga bo‘linadi. Odatda ularning sujeti favqulodda fantastik voqea-hodisalarga boy bo‘ladi. Xalq dostonlarining yaratuvchisi – baxshilar bo‘ladi. Og‘zaki ravishda to‘y-tomoshalarda, xalq sayillarida odamlarning talab-istaklariga ko‘ra so‘ralgan dostonlarni quvvai hofizalariga tayanib aytib beradilar. Xalqimiz bu dostonlarni sevib tinglaganlar. Hozirda bu jarayon kamayib ketgan bo‘lsa-da, hukumatimiz baxshilarni qo‘llab-quvvatlovchi katta dasturlarni ilgari surmoqdalar.

Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda alohida rol o‘ynaydi. Bu undan har bir o‘quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishni, uning adabiyotga bo‘lgan havasini oshirishda.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida «Vatanni suymak» degan alohida sarlavha berilgan. Unda, jumladan, quyidagi fikrlar bayon etiladi: «Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimlaosr shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi».

O‘qituvchi shaxsi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochirmaslik zarur: «Bola tarbiyalash uchun sizga topshirilgan: shuni unutmangki, u o‘smir, keyin esa yigit bo‘lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo‘lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati takomilini kuzatib boring hamda, shunga ko‘ra, tarbiya usullaringizni o‘zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o‘rgatar ekansiz, o‘zingiz yana ham ko‘proq o‘rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib

ketadi: bolalar tez o‘‘sishadi»¹.

Yirik metodist olim A.Zunnunov ta‘kidlaganiday: «Adabiyot o‘‘qituvchisi o‘‘zini o‘‘quvchilarga baxshida etishi, o‘‘zi bajarayotgan ishning xalq ma‘naviy hayotidagi ahamiyatini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o‘‘z o‘‘quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O‘‘qituvchilik kasbi har bir adabiyot o‘‘quvchisidan o‘‘zini doimiy suratda kamol toptirib, o‘‘zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o‘‘stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, ideologiya va madaniy hayotga bog‘liq holda yangi ma‘noga ega bo‘lib boradi»².

Adabiyot o‘‘qituvchisining asosiy kasbiy-pedagogik faoliyati qirralarini alohida o‘‘rgangan R. Keldiyorov bu soha egalarida badiiy ijrochilik mahoratining mavjudligiga alohida e‘tibor qaratadi³. «Badiiy ijrochilik o‘‘quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarning sirli manzaralarida go‘zallikni ko‘rsatishdan iborat.

Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan o‘‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, o‘‘qituvchi uning muallifi, ijrochisi, rejissyori sifatida o‘‘z mahoratini namoyon etadi». Bu esa «o‘‘quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, ma‘naviyatini shakllantiradi».

Folklor darslarida ko‘rgazmalilik. Ya.A.Komenskiyning ta‘kidlashicha, «Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak»⁴. Boshqa bir yirik pedagog K.D.Ushinskiy esa shunday yozadi: «Bola xotirasida nimanidar o‘‘rnashib qolishini istagan pedagog imkoni boricha ko‘proq sezgi organlari: ko‘z, quloq, tovush, muskul harakatlari tuyg‘usi, hatto, mumkin bo‘lsa, hidlash va ta‘m bilish ham eslab qolishda ishtirok etishi haqida qayg‘urishi kerak»⁵.

¹ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent, Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977, 35-bet.

² A.Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o‘‘qitish nazariyasi va metodikasi. 74-75-betlar

³ Keldiyorov R. Adabiyot o‘‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasini. - // Til va adabiyot ta‘limi, 1998, 1-son, 41-44-betlar.

⁴ Коменский Я.А. Великая дидактика. – Изд.Пед. Сочинения. В 2-х томах, М.: 1982, - Т.1. стр. 384.

⁵ Усенский К.Д. Собр.Соч.- М-Л., 1950, - Т.: – стр 251.

Savol va topshiriqlar:

1. Ertaklarda bosh qahramon qanday rol o'ynaydi?
2. Ertak o'qitishga qanday metodik talablar qo'yiladi?
3. Adabiyot o'qitish tarixida maktab adabiy ta'limi uchun qanday dasturlar yaratilgan?
4. Dostonning boshqa janr asarlaridan farqini ayting.
5. Dostonlarda qarama-qarshi obrazlar tasvirida qanday usullar qo'llanadi?

XALQ QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Qo'shiqlar qadim-qadimdan insoniyat hayotida eng yaxshi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlodu-ajdodlari uchun yo'l-yo'riq darslari desak yanglishmagan bo'lamiz. Xalq qo'shiqlari - xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan meros. "Qo'shiq" so'zining lug'aviy ma'nosi turkiy misrani-misraga bog'lamoq ma'nosini anglatadi, bu janr turkiy tilda so'zlovchi elatlar hamda xalqlarning turmush tarzida ularning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayoti, milliy hususiyatlari shakllanmasdan avval paydo bo'lgan.

Shuning uchun ham turkiy tilda so'zlovchi ko'pchilik xalqlar tilida uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilida qo'shiq, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarida esa qo'shq deyiladi. Yosh avlod vakillari o'tmishda yaratilgan merosni o'qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o'zlashtirsalar, zamonaga munosib san'atkor bo'lib yetishishlari mumkin. Aytish joizki, o'zbek mumtoz musiqa san'ati og'zaki san'atdir. Musiqiy ohangda mavjud har qanday harakat, ya'ni jilo, joziba, g'oya, mazmun qochirim va bezaklar tinglash orqali idrok etilib, o'zlashtiriladi. Ularning ravnaqi yo'lida qilingan har qanday harakat ijodiyot mahsuli demakdir.

Xalq qo'shiqlari folklorning eng qadimiy, eng faol, eng yashovchan, eng ommaviy janrlaridan biridir.

Qo'shiq atamasi sal fonetik o'zgarish bilan XI asrda yashagan olimlardan Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab", M.Koshg'ariyning "Devon ul-lug'at ut-turk asarlarida uchraydi. Folklorshunos olim Muzayyana Alaviya bu janrga shunday ta'rif beradi: "Qo'shiqlar asosan to'rtlikdan iborat bo'lib, ularning mundariyasi xilma-xildir. Biz to'rtlik deb atagan qo'shiq o'zbek xalqi ichida eng ko'p tarqalgan, kuylanib aytiladigan vazn va qofiyaga ega xalq poeziyasidir"¹.

Xalq qo'shiqlari qadimdan mehnat jarayonida tug'ilgan. Keyinchalik avvalo mehnat qo'shiqlari paydo bo'lgan. Og'ir mehnat azoblarini yengillatish asnosida qo'shiqlar muhim psixologik omil vazifasini bajargan.

Shu tariq mehnat qo'shiqlarining uch turi mazmunan ajralib keladi:

1. Chorvachilik qo'shiqlari;

¹ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. –Т.: Фан, 1959., 19-бет.

2. Dehqonchilik qo‘shiqlari;

3. Hunarmandchilik qo‘shiqlari.

“Churiyalar”, “xo‘sh-xo‘sh”, “Turey-turey”, “Govmishim” kabi qo‘shiqlar chorvachilik qo‘shiqlari sanaladi. “Xo‘p mayda” “Yorg‘i-choq”, “Mayda”, xirmon qo‘shiqlari dehqonchilik qo‘shiqlari sirasiga kiradi. Charx, bo‘zchi, o‘rmak qo‘shiqlari hunarmandchilik qo‘shiqlari hisoblanadi. Ma‘lum muddat mehnat qo‘shiqlaridan so‘ng lirik qo‘shiqlar paydo bo‘lgan. Ularda asosan segi-muhabbat, armon, baxt orzusi kabi mavzular yetakchilik qilgan.

O‘zbek milliy qo‘shiqlari tarkibida marosim qo‘shiqlari ham bor. Ular asosan milliy to‘ylarimizda va azalarda aytiladi. Ularga “Yor-yor”lar, “Kelin salom”, marsiyalar kiradi.

“O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligida qo‘shiqqa quyidagicha ta‘rif berilgan: “Alohida janr ma‘nosidagi qo‘shiqlar mustaqil to‘rtliklardan tashkil topgan va faqat kuylab ijro etishga mo‘ljallangan she‘riy asarlardan iborat”¹.

Bizning fikrimizcha, ushbu keyingi ta‘rif ancha mukammal tarzda bayon etilgan. VI sinf darsligida: “Qo‘shiq qadimiy lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo‘ljallab yoziladi”, deya ta‘rif berilgan.

Odatda xalq qo‘shiqlarining muallifi noma‘lum bo‘lib, ular xalq orasidagi so‘zga chechan kishilar tomonidan badehago‘ylik asosida to‘qiladi va ommalashadi. Yozma adabiyotda esa qo‘shiq kuyga moslab ma‘lum ijodkor tomonidan yoziladi. Qo‘shiqlar xalq hayotining barcha qirralarini o‘z mavzu doirasiga qamrab oladi. Ularda shodlik ham, g‘am-alam ham, orzu-umid ham o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida xalq qo‘shiqlarining bolalar uchun yaratilgan maxsus turlari ham anchani tashkil etadi².

Yozma adabiyotda esa qo‘shiq kuyga moslab ma‘lum ijodkor tomonidan yoziladi. Qo‘shiqlar xalq hayotining barcha qirralarini o‘z mavzu doirasiga qamrab oladi. Ularda shodlik ham, g‘am-alam ham, orzu-umid ham o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida xalq qo‘shiqlarining bolalar uchun yaratilgan maxsus turlari ham anchani tashkil etadi³.

Darslikda ham bolalar repertuariga moslashgan uchta qo‘shiq

¹ Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т: Ўқитувчи, 1990., 143-бет.

² Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: Ўқитувчи, 1980., 74-бет.

³ Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. –Т.: Ўқитувчи, 1985., 250-бет.

berilgan. Birinchisi “*Boychechak*” bo‘lib, u marosim qo‘shig‘i sanaladi va bahor kirishi bilan bolalar jamoa bo‘lib ijro etishadi. Qo‘shiqdagi to‘rtlik bir ijrochi tomonidan aytilib, ikki misralik naqorotni esa hamma jo‘rovoz bo‘lib takrorlashadi. Mamlakatimizning ayrim hududlarida bu qo‘shiq ilk bahorda boychechak ochilishi bilan eshikma-eshik yurib aytiladi. Qadimdanoq kishilar bahor kelishini intizorlik bilan kutishgan. Shu sababli boychechak bahor ramzi sifatida tan olinib, o‘sha kun bayram singari keng nishonlangan. Qo‘shiqni o‘qituvchi bir marta o‘qib bergach, uni jamoa bo‘lib, ijro qilish yaxshi natija beradi. Bolalar matini tez o‘zlashtirib, o‘zlari qo‘shiq qilib aytib yurishadi.

Ikkinchi qo‘shiq “*Chittigul*” ham marosim qo‘shiqlari turiga mansub bo‘lib, bahor paytlari bolalar tomonidan jamoa bo‘lib ijro qilinadi. Bu qo‘shiqda to‘rtlikning ikki misrasi bir bola tomonidan kuylanib, qolgan ikki misra naqorat tarzida jamoa tomonidan xor bo‘lib aytiladi.

Qo‘shiqlar kuyga moslanib to‘qilgani sababli ularning misralari ixcham va sodda tarzda ohangdor, musiqiy tarzda uyushib keladi.

Masalan:

Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin,

Beling belbog‘da bo‘lsin,

-misralarida tovushlar takrori alliteratsiyani hosil qilgan.

Birinchi misrada q, q, b, b; ikkinchi misrada b, b,b,b, tovushlari takrorlanib poetik ohangdorlikni ro‘yobga chiqaradi. Bu esa kuyning jarangdor chiqishiga yordam beradi.

Uchinchi qo‘shiq “*Boshginam og‘riydi*” deb nomlangan bo‘lib, u o‘yin, kuy bilan uzviy aloqadorlikda ijro etiladi. Bu qo‘shiqni ham dastlab muallim ifodali qilib o‘qib berishi zarur. Keyinchalik ona-qiz dialogi tarzida kuyga solib ijro etilsa, yaxshi samara beradi. Agarda ijroga raqs ham qo‘shilsa, uning ta’sirchanligi yanada oshadi. Albatta o‘qituvchi bu borada oldindan izlanib, qo‘shiqni o‘rgatish yo‘llarini rejalashtirib qo‘yishi shart. Mabodo qo‘shiqning Tamaraxonim ijrosidagi plastinkasi yoki audio yozuvi magnitofon orqali eshittirilsa, qo‘shiqning badiiy-estetik samaradorligi yuksak darajaga ko‘tarilib, o‘quvchilar xotirasida bir umr saqlanib qoladi. Ayni paytda ushbu qo‘shiqning yumoristik xususiyatini ham ochib berish lozim. Chunki, qiz taqinchoqlarni onasidan bevosita emas, balki bilvosita iltimos qilayotgani qo‘shiqda juda maroqli ifodalangan.

Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishda yodlash, savol-javob, munozara

usullaridan foydalansa bo‘ladi. Bundan tashqari yana bir-ikkita dolzarb usullardan ham foydalansa bo‘ladi. Masalan “Hamkorlik” usuli. Bu metodning afzalligi – o‘quvchini o‘zini erkinroq tutishga, ijodkorona yondashishga undaydi.

Adabiyot darslarida hamkorlik usuli. Adabiyot nazariyasini o‘qitishning o‘zak nuqtasini adabiyot darslari tashkil etadi. Ayni mana shu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko‘zga tashlanadi, Ayni shu yerda ulardagi xilma-xil nuqtai nazarlarining o‘zaro ro‘para kelishi sodir bo‘ladi.


Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari sifatida an‘anaviy va noan‘anaviy adabiyot darslarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunday ekan, adabiyot darsining mazmuni qanday bo‘lishi kerak, u qanday tipologik xususiyatlarga ega, adabiyot darsining samaradorligi nimalarga bog‘liq, bunda o‘qituvchining o‘rni va mavqei qanday tutiladi, adabiyot darslarining tashkiliy jihatlarida qanday o‘ziga xosliklar bor? kabi bir qator savollar paydo bo‘ladi. Garchi adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasiga oid ko‘plab tadqiqotlarda bu savollarga xilma-xil javoblar berilgan bo‘lsa-da, amaliyotchi o‘qituvchilar ularga berilgan yaxlit holdagi aniq javob va ko‘rsatmalarga muhtoj bo‘lib turibdi. adabiyotga oid darslarning shakllari ko‘p. Eng ko‘p tarqalgan turlar sifatida ma‘ruza, suhbat, seminar, konferentsiya, bahsmunozara, musobaqa va boshqa darslarni ko‘rsatish mumkin.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlar haqida M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin, Yu.K.Babanskiy, V.V.Golubkov, N.I.Kudryashev, O.Yu. Bogdanova, G.I.Belenkiy, L.N.Lesoxina, L.S.Ayzerman, Ye.N.Ilin, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga quyish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma‘rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlar, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o‘rni va ahamiyati, bunda o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarni tashkil etishning yo‘l va usullari haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o‘qituvchilarimiz uchun dasturul amal bo‘la oladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashning qo'shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o'qituvchi shaxsining mavqei alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o'tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi. Adabiyot darslarning oldiga quyilgan pedagogik vazifalarning yechilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o'zaro munosabatalari alohida e'tiborga molik¹.

An'anaviy darslarda odatda dastlab uy vazifasi yoppasiga so'rab chiqiladi, keyin yangi mavzu o'tiladi, u mustahkamlanadi, o'quvchilarga uy vazifasi topshiriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi shaxs sifatida o'qituvchi maydonga chiqadi. Uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan mazkur shakl bugungi kunda zamonaviy talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham uning o'rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi deb ayta olamiz.

Endilikda ilg'or adabiyot o'qituvchilari darsni uy vazifasini so'rashdan emas, to'g'ridan-to'g'ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o'quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagi holga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o'quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustivorlik berilayotganligi ochiq seziladi.



¹ Махмудов М.И. Современный урок и пути его реализации. – М., 1978. С–81.

Savol va topshiriqlar:

1. Mehnat qo‘shiqlarining turlarini sanang.
2. “Yo Haydar” – qanday qo‘shiq turiga kiradi?
3. “Sust xotin” – qo‘shig‘i nega shunday nomlanadi?
4. Marosim qo‘shiqlariga nimalar kiradi?
5. Lirik qo‘shiqlardan yod oling.

HIKOYA JANRI. MAZMUNIGA KO'RA HIKOYA TURLARI. HIKOYALARNI O'QITISHNING MUMTOZ VA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim anʼanalarga ega. Oʻtmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri boʻlib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan.

Oʻzbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar – Kultegin va Toʻnyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabgʻu-zmyning "Qisasi Rabgʻuziy" asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Bobomiz Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining 5-maqolotidagi "Hotami Toy hikoya-ti", 20-maqolotidagi "Ul qul hikoyati", "Sabʼai sayyor" dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. 16-asrda yaratilgan Poshshoxojaning "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlari oʻzbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos boʻlgan.

"Hikoya" atamasi kengroq maʼnoda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. Soʻzlab berilgan bunday voqelik oʻz qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos boʻlishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr maʼnosida tushunilmaydi. Mas, Oʻ.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani 9 personajning 49 ta hikoyasidan tashkil topgan. Sh.Xolmirzayev "Olaboʻji" asarini "romandan katta hikoya" deb ataydi. Hozirgi oʻzbek hikoyachiligi O.Muxtor, N.Aminov, S.Siyoyev, F.Musajonov, X.Sultonov, E.Aʼzamov, N.Eshonqulov, Sh.Boʻtayev va boshqa yozuvchilar bilan boyidi.

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani loʻnda ifodalashga moʻljallangan. Unda shu voqeaga qadar per-sonaj hayotida nima boʻlgan, qanday roʻy bergan, kim bilan - bular toʻgʻrisida maʼlumot berish shart emas. Juda zarur boʻlsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Mas, A.Qahhorning "Oʻgʻri" H.sida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-furushdan kichkina shart evaziga ikkita hoʻkiz olgan Qobil boboning ertasi toʻgʻrisida "Bu shart kuzda maʼlum boʻladi", deb xabar beradi, xolos. Gʻ.Gʻulom esa "Mening oʻgʻrigina bolam" H.sidagi oʻgʻrining kechagi kunini loʻnda

detallar orqali to'ldi-radi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanaqa ma'lumot bermaydi.

Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan bir-gina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo'li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo'lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko'rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi.

Hikoya mazmuniga ko'ra lirik, psixologik, falsafiy, ilmiy-fantastik, satirik, yumoristik yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o'ziga xos mazmuni mavjud. Biroq ularni har doim bir xilda bo'ladi, deb tasavvur qilish to'g'ri emas. Har bir ijodkor, har bir asar bilan bog'liq holda tahlil ham o'ziga xoslik kasb etadi.

Badiiy asarni «o'qish, xususan, uqish o'ziga xos ijoddir. Kitobxon – badiiy matn unga xoh yoqsin - xoh yoqmagan bo'lsa-da, his-hayajonga beriladi, u haqda o'ylay boshlaydi. Kitobxon ijodining bu bosqichida badiiy matn yo badiiy asar sifatida qabul qilinadi, yo badiiylikka aloqasi yo'q matox sifatida inkor etiladi»¹.

Safo Matjonning qayd etishicha, «Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug'ilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari - adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi»². Demak, tahlil jarayonida mana shu psixologik-ijodiy holat nazarda tutilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Barcha tahlillar uchun qo'yiladigan asosiy talab – ilmiylikdir. Real nazariy asoslarga, badiiy-estetik mantiq talablariga javob bera oladigan tahlil o'quvchining haqiqiy yordamchisi bo'la oladi. Tahlil albat, ta, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan bo'lishi kerak. Tahlillar uchun qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri uning tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutishidir. Folklor yoki yozma adabiyot na-

¹ Rasulov A. Tanqid, Talqin, Baholash. –T.: Fan , 2006. 13-bet.

² Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T: O'qituvchi, 1996. 49-50-betlar.

munasi, ijodkorning tarjimai holi yoki muayyan bir asar, epik, lirik yoxud dramatik turga mansub ijod namunasi tahlil qilinarkan, ular oʻz-oʻzicha emas, balki muayyan pedagogik maqsadni koʻzda tutgan holdagina tahlil qilinishi shart. Bu jihatlarga eʼtibor berilmas ekan, koʻzlagan asosiy maqsad samarasiz boʻlib qolaveradi. Metodist olimi M.Mirqosimova koʻrsatib oʻtganiday: «Adabiy tahlil sheʼr yoki nasriy asarni ifodali oʻqishdan boshlanadi; oʻqish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, oʻzlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon koʻz oʻngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuygʻular orqali idrok etiladi, his qilinadi. Oʻsha taʼsirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qoʻllagan tasviri vositalarga sirdan ahamiyat berilmaydi, asosiy eʼtibor oʻqish jarayonida mazmunga, obrazning ichki maʼnolariga jalb etiladi. Ammo, tahlil jarayonida ana shu maʼnolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar oʻrganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylilik, hayotiylik va taʼsirchanlik mezonlari asosida oʻrganish maktab adabiy taʼlimining bosh vazifasini belgilaydi»¹.


Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub boʻlgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy taʼlimning oʻzak masalalaridan biridir. U «oʻquvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat»² yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida oʻquvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga eʼtibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

Har bir asarni tahlil qilishda ajratilgan soat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uning taxminiy rejalashtirilishi amalga oshiriladi. Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini toʻgʻri va toʻla idrok etishdan iborat. Oʻquvchilar asarda aks etgan voqea va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qoʻyib boʻlmasligini

¹ Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: Fan, 2006, 18-bet.

² Zunnunov A. Adabiyot oʻqitish metodikasi. –T.: Oʻqituvchi, 1992., 16-bet.

anglay boshlaydilar. Tahlil jarayonida o'quvchilar yozuvchi tomonidan tanlab olingan hayotiy materiallarning muayyan maqsad va vazifalarga bo'ysungan holda muayyan izchillikda kelishini ham bilib olishadi. Bu izchillikni tanlash va ta'minlash ham yozuvchining badiiyyestetik niyatlariga aloqadorligini kuzatishadi, bunga ishonch hosil qilishadi. Asardagi mavjud syujet va kompozitsiyaning o'z-o'zidan yuzaga kelmasligini ongli ravishda tasavvur eta boshlashadi. Tanlangan har bir shakl, janr, uslubning asl mohiyati yorqinlashadi. Tahlil birdaniga yaxlit tarzda amalga oshmas ekan, demak, muayyan mavzu yoki yo'nalishlarning tanlab olinishi tabiiydir. Shunga ko'ra, asarning syujeti va kompozitsiyasi, uning obrazlar tizimi, mavzu va g'oyalar qamrovi, poetikasiga xos bo'lgan xususiyatlar alohida-alohida tahlil etilishi mumkin. Kichikroq hajmli asarlarda esa bularning barchasi birdaniga ham maydonga chiqa oladi. Katta hajmli asarlarning ayrim qismlarigina tanlab olinishi ham ta'lim-tarbiya jarayonida tez-tez uchrab turadi. Badiiy asarning tahlili odatda uch qismni o'z ichiga oladi. Bular: asar bilan tanishishning dastlabki bosqichida uning yaxlitligini idrok etish, uning alohida elementlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish, nihoyat bu qismlarni yaxlit holatda birlashtirish. Adabiyotshunoslikdagi bu tamoyil maktab tahlili uchun to'la tatbiq etilishi joiz. Shunga qaramay maktab tahlilida bulardan har birining qat'iy tanlash, saylash asosida olib borilishi ham talab etiladi. Albatta, buning bir qator sabablari bor. Birinchidan, ta'limning muayyan bosqichida, ya'ni umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar maktabi ta'limi bosqichida badiiy asarning barcha qismlari emas, balki mazkur bosqich uchun eng muhim deb hisoblangan tomonlarigina tahlilga tortiladi. Ikkinchidan, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashi, umumiy adabiy tayyorgarligi nazarda tutiladi. Uchinchidan esa, vaqt masalasidir.



Epik asarlarni o'rganish xususiyatlari. Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib tura-di. Taniqli metodist M.A.Ribnikova: "Metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi. Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi"¹. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz. Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, «asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi»². Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida osonroq gavdalanadi.

Adabiy nazariyasini o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan» bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi, Chunki «qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zahiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisobla-

¹ Богданова О. Ю., Леонов С. А., Чертов В. Ф. Методика преподавания литературы. Под редакцией О.Ю. 2000, –с.36.

² Богдановой. Учебник для студентов пед.вузов. –М.: Академия, 2-е издание, 2002, –с.136.

nadi»¹. Adabiy o'qish o'qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo'la oladi. Adabiy o'qish vositasida alohida olingan qahramonning, yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko'zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e'tibor tortilishi mumkin. Masalan, Akademik litseylarning 1 bosqichida Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni yoki Rabg'uziyning «Qissayi Rabg'uziy» asarini o'qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o'quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko'zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag'zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo'qqa chiqadi, ular o'quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam berolmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Epik asarlarni o'rganish xususiyatlarini bilasizmi?
2. Badiiy asar tahlilidagi asosiy holatlarni izohlab bering.
3. Kirish mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?
4. Yakunlovchi mashg'ulotlarning qanday pedagogik ahamiyati bor? Misollar bilan tushuntirib bering.
5. O'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish uchun pedagog nimalarga e'tibor berish kerak?

1 Yo'ldoshev J. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996., 127-bet.

O'RTA EPIK JANRLAR. QISSA JANRI NAMUNALARINI O'QITISH USULLARI. KATTA EPIK JANRLAR. ROMAN VA UNING TURLARI. ROMANLARNI O'QITISHNING DOLZARB VA MAQBUL USULLARI

Reja:

1. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablari.
2. Badiiy asarni matni va kompozitsiyasiga ko'ra tahlili.
3. Qissalar tahlili.
4. Katta epik janrlar haqida. Romanning mazmun-mundarijasiga ko'ra turlari.

Qissa – badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. Qissa odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o'ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma'lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo'lishi mumkin.

Roman – bu janr voqelik va inson hayoti keng va har taraflama tasvirlaydi, uni butun murakkablikda ifodalaydi va ochadi. Qissadan farqli ravishda romanda ishtirok etuvchi personajlar, syujet liniyalari ko'p va murakkab bo'ladi. Roman kabi qissaning ham avtobiografik (Oybek, A.Qahhor, N.Safarov), tarixiy (Mirkarim Osim, Ya.Ilyosov va boshqalar), fantastik (T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov va boshqalar) turlari bor. Hozirda qissa nasrning eng faol janrlaridan bo'lib, unda yosh yozuvchilar ham samarali ijod qilmoqdalar.

Badiiy asar tahlili qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga ko'ra: a)ilmiy (filologik); b) o'quv (didaktik) singari ikki turi mavjud.

Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asarning yozilgan hamda o'rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglashga yo'naltirilgan intellektual-hissiy faoliyatdir. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyottanuvchilik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo'lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o'rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o'rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga tahsiri darajasi tayin etilishi ko'zda

tutilishi kerak.

Filologik tahlil – adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qarashni taqozo qiladi. Ilmiy tahlildagi asosiy narsa adabiy asarning badiiyligi, tahsirchanligi, jozibasi va sehrini tahminlagan jihatlarni ko'rsata bilishdir. SHu mahnoda, filologik tahlil ilmiy-estetik faoliyatdir. U, asosan, bir kishi tomonidan amalga oshiriladigan ijodiy kechim hisoblanadi. Muayyan badiiy yaratiq to'g'risida bir necha kishi tomonidan birgalikda yozilgan maqolalar ham aslida sof individual aqliy mehnatning mahsulidir. Ilmiy tahlilni amalga oshirayotgan mutaxassis zamon jihatidan ham, makon jihatidan ham o'zini cheklamagan holda faqat belgilab olgan bosh maqsad bo'lmish badiiy matn mantig'i va jozibasini ochishga intiladi.

O'quv-didaktik tahlil – badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarda ezgu mahnaviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. O'quv tahlili mobaynida tahlil kechimini boshqarayotgan o'qituvchi ham, shu kechiming ijrochi va qatnashchilari bo'lmish o'quvchilar ham asarni tanlash imkoniga ega emaslar. Chunki o'rganilishi kerak bo'lgan badiiy asar o'quv dasturida belgilab qo'yiladi. SHuningdek, o'quv tahlili belgilangan vaqt davomida, muayyan joyda, yosh va intellektual darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida jamoaviy tarzda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Didaktik tahlil filologik tahlilga nisbatan bir qadar tashkiliy-mazmuniy cheklovlari borligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'quv tahlili hamisha o'quvchi yoki talabalarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat hisoblanadi. Asarning bir mutaxassis tomonidan qilingan tahlili nechog'lik chuqur bo'lsada, o'zga bir shaxs bu xildagi talqinni mutlaqo qabul etmasligi va badiiy hodisaga o'z pozitsiyasidan kelib chiqib tamomila boshqacha baho berishi mumkin. Faqat D. Quronov aytmoqchi, birgina talab – tahlilning – *matndan o'sib chiqishi shart* ekaniga amal qilinsa kifoya. Badiiy asarning o'ta individual faoliyat natijasi ekani uning qabul etilishi ham g'oyat individual kechim bo'lishini taqozo etadi. Cho'lpon shehlari o'tgan asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan Ayni (Olim Sharafutdinov), Usmonxon (Usmonxon Eshonxo'jaev) kabi sinchilarda o'zgacha, Qodiriy bilan Oybek singari ijodkorlarda esa ularga tamomila qaramaqarshi taassurot qoldirib, bir-


biriga mutlaqo zid xulosalarga kelishiga sabab bo'lganining boisi ham shunda. O'zlari ijod ahlidan bo'lgan Qodiriy bilan Oybek sog'lom va xolis mantiq hamda ichki intuitsiya bilan o'sha davrning rasmiy qoliplaridan o'zgacharoq fikrlab, Cho'lpon she'riyati zamiridagi asl ma'nolarni teran idrok eta bildilar.



Adabiy asarning ilmiy tahlili oldiga qo'yiladigan talablardan uchin-chisi san'at asarining estetik hodisa ekanidan kelib chiqib, unga biror g'oyani ifodalash vositasigina deb qarash mumkin emasligidir. "Tahlilning hamisha ma'lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi"¹. Tahlil asarni qismlarga ajratish hamda bu qismlarni yana yangidan yaxlit holda idrok etishni ham anglatadi. Tahlil jalb etilgan asarning janri, mavzusi va hatto hajmiga ham bog'liq bo'ladi. Nisbatan yirik epik asarlar tahlil qilinganida ularning dastlabki «qismlarga ajralishi» nazarda tutilishi kerak. Har bir asarni tahlil qilishda ajratilgan soat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uning taxminiy rejalashtirilishi amalga oshiriladi. Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idro etishdan iborat. O'quvchilar asarda aks etgan voqea va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmasligini anglay boshlaydilar. Tahlil jarayonida o'quvchilar yozuvchi tomonidan tanlab olingan hayotiy materiallarning muayyan maqsad va vazifalarga bo'ysungan holda muayyan izchillikda kelishini ham bilib olishadi. Bu izchillikni tanlash va ta'minlash ham yozuvchining badiiyyestetik niyatlariga aloqadorligini kuzatishadi, bunga ishonch hosil qilishadi. Asardagi mavjud syujet va kompozitsiyaning o'z-o'zidan yuzaga kelmasligini ongli ravishda tasavvur eta boshlashadi. Tanlangan har bir shakl, janr, uslubning asl mohiyati yorqinlashadi.

Tahlil birdaniga yaxlit tarzda amalga oshmas ekan, demak, muayyan mavzu yoki yo'nalishlarning tanlab olinishi tabiiydir. Shunga ko'ra, asarning syujeti va kompozitsiyasi, uning obrazlar tizimi, mavzu va g'oyalar qamrovi, poetikasiga xos bo'lgan xususiyatlar alohida-alohida tahlil etilishi mumkin. Kichikroq hajmli asarlarda esa bularning barchasi birdaniga ham maydonga chiqa oladi. Katta hajmli asarlarning ayrim

¹ Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T: O'qituvchi, 1996. 21-bet.

qismlarigina tanlab olinishi ham ta'lim-tarbiya jarayonida tez-tez uchray turadi. Badiiy asarning tahlili odatda uch qismni o'z ichiga oladi. Bular: asar bilan tanishishning dastlabki bosqichida uning yaxlitligini idrok etish, uning alohida elementlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish, nihoyat bu qismlarni yaxlit holatda birlashtirish. Adabiyotshunoslikdagi bu tamoyil maktab tahlili uchun to'la tatbiq etilishi joiz. Shunga qaramay maktab tahlilida bulardan har birining qat'iy tanlash, saylash asosida olib borilishi ham talab etiladi. Albatta, buning bir qator sabablari bor. Birinchidan, ta'limning muayyan bosqichida, ya'ni umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar ta'limi bosqichida badiiy asarning barcha qismlari emas, balki mazkur bosqich uchun eng muhim deb hisoblangan tomonlarigina tahlilga tortiladi. Ikkinchidan, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashi, umumiy adabiy tayyorgarligi nazarda tutiladi. Uchinchidan esa, vaqt imkoniyatlarining qat'iy chegarasi ham shuni taqozo etadi. Agar bitta asarning barcha jihatlarini qamrab oladigan tahlilni amalga oshirmoqchi bo'lsak, buning umuman mumkin bo'lmashligini tasavvur etishimiz qiyin bo'lmaydi: bunga qanchalik katta kuch va ko'p vaqt ketishini juda yaxshi bilamiz. Bordi-yu shunday ishga amaliy jihatdan kirishiladigan bo'lsa ham u foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirgan bo'lar edi, chunki bunday ishning, birinchidan, o'quvchilar uchun zarurati yo'q, demak u zerikarli va keraksiz mashg'ulotga aylanadi. Ikkinchidan esa, o'quvchining adabiyotga, badiiy asarni o'qish va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi so'nib, undan oladigan zavqi yo'qqa chiqadi.





O'rta epik asarlarni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Asarning o'quvchilar tomonidan to'la o'qib o'zlashtirilishiga erishish;
2. Asar g'oyasi mazmunini obrazlar tizimi va asar qurilishiga bog'lab o'rganish;
3. Badiiy asar tilini tahlil qilish;
4. Tahlilda janr talablarini e'tiborga olish. Eng qulay va to'g'ri tahlil metodi bilan usullarini tanlay olish;
5. Yozuvchi uslubi va mahoratini namoyon qiluvchi portret, peyzaj, joy tasviri, badiiy detallar, ruhiyat tasviri, qahramon xarakteri tasviri, asar konflikti va badiiy tasvir vositalariga o'quvchilar e'tiborini qaratish;
6. Asarning badiiy xususiyatlari va obrazlar tahlili asosida umumlashma xulosalar chiqarish.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asar tahlilidagi asosiy holatlarni izohlab bering.
2. Badiiy asarni tahlil qilish bosqichlarini muayyan asar misolida yoriting.
3. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablarini bilasizmi?

SHE'R VA UNING TUZILISHI. ARUZ VA BARMOQDAGI SHE'RLARNI O'QITISH BO'YICHA ZAMONAVIY USULLAR.

She'riy nutq nasriy nutqqa nisbatan ancha murakkab til hodisasidir. Chunki u ohang jihatdan tartibga solingan bo'lib, ritmik o'lchovlar asosida tashkil topgan poetik nutqdir. She'riy nutq ifodaviy vositalar (istiora, allegoriya, metonomiya); maxsus tasvir vositalari (sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a) va stimistik usullar intonatsiya, inversiya, parallelizm, ritorik so'roqlarning keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Shu xildagi ma'lum o'lchovchi ritmik, emotsional nutq she'r asosini tashkil etadi. Ohang jihatdan tartibga solingan, fikr va his-hayajon ifodasi sifatida vujudga kelgan emotsional ritmik nutq She'r deb ataladi. She'r asosida insonning ichki kechinmalari yotadi.

She'r shoirning voqelikdan ta'sirlanishi natijasi bo'lib, uning qalb qo'ridan o'tgan, o'zgacha jilo topib shakllangan fikr va tuyg'ulardir. Abdulla Qahhor "Poeziya – yuksak San'atdir" nomli maqolasida shunday fikrlarni aytadi:

"She'r – fikr ekstrakti bo'lishi jihatidan hikmat, ko'ngulga yo'l topishi, undan o'ziga hamohang sado chiqarishi jihatidan musiqa;

She'r – oshiqning ohi, musibatdiydaning ko'z yoshi, saodat va surur ifodasi bo'lgan qahqaha tovushi;

She'r – ko'ngilning oynasi, ko'ngilda nima bo'lsa, shuni aks ettiradi;

She'r – ma'sum go'dak, riyoni bilmaydi. Riyo bo'lgan yerda She'r bo'lmaydi;

She'r – bir mo'jiza. Uning mo'jiza – sirlaridan xabardor bo'lish bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo'lavermaydi.

She'r ziynatli nutq. She'r badiiy ijodning eng murakkab, qiyin shakli. She'riy nutq – murakkab sistema. Chunki she'riy asar ritm, vazn, bo'g'in (hijo), turoq, qofiya, band (strafa) She'r sistemalari (barmoq, aruz, oq, nasriy), intonatsiya, poetik figuralar va boshqalarning yaxlit uyushuvidan tashkil topgan. Bular she'rning shakliy tomonlaridir. G'oya har qanday asarning, shuningdek, she'rning ham asosidir. She'rda g'oya mana shu shakliy komponentlar vositasida ifoda etiladi. Demak, she'rda ham shakl mazmunga xizmat qiladi, shakl va mazmun mutanosibligi shu tariqa yuzaga va shakl komponentlari hamda ularning aloqasi haqida mumtoz shoirlarimiz bir qancha mulohazalarni ilgari surganlar. Masalan, Hofiz Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asarida shunday deydi:

Oqil agar soʻz birla soʻzni yopar,
Orif oʻshal soʻzda oʻzini topar.

Ulki bilur soʻz guhari qiymatin,
Soʻzda topar soʻzlaguchining otin...

Soʻzda kerak maʼniyu maʼnida zavq,
Soʻzlaguchida soʻz uchun dardu shavq.

Mazmun mohiyatini shakl va uning koʻrinishini belgilaydigan vositalardan yuqori qoʻygan Alisher Navoiy bir gʻazalida shunday deydi:

Ey Navoiy, shu Xusrav bila jomiy shavri
Sanʼatu rangni qoʻy, soʻzda kerak dard ila soʻz.

Sheʼriy sanʼatlarga oʻta berilib ketishi ham yaltiroqlikni, shaklbozlikni keltirib chiqadi. Sheʼriy sanʼatlar mazmun va gʻoyaning yorqinligi, mazmun va fikrning loʻndaligi, mazmun va shaklning mutanosibligi uchun xizmat qilmogʻi lozim. Shu maʼnoda Alisher Navoiyning quyi-dagi soʻzlari shoirning oʻzi uchun ijodiy dastur, boshqalarga daʼvat tarzida yangraydi:

Nazmki, ham suvrat erur xushanga,
Zimnidan maʼni dagʻi dilkash anga.


Sharq poetikasiga doir asarlarda qayd etilishicha, sheʼrning lugʻaviy maʼnosi “bilmak”, yaʼni shuur aylash, istilohiy maʼnoda esa “sheʼr” vaznli, qofiyali va obrazli kalomdir. “Sheʼr vaznsiz boʻlmaganidek, faqat qofiyaning oʻzi bilan ham Sheʼr yaralmaydi. Sheʼr uchun bularning har ikkisi ham zarur. Lekin sheʼrda maʼno boʻlmasa, uning joni ham yoʻqdir. Sanʼatlar sheʼrning bezagidir, xolos”, - deydi Vohid Tabriziy “Jamʼi muxtasar” asarida.

Sheʼrning xarakterli tomoni shundaki, u gʻoyani faqat musiqiy yoʻsinda aks ettiradi. Musiqiylik – sheʼrning bosh ifoda vositasi.

Sheʼr musiqiyligini vujudga keltiradigan bir qancha unsurlar boʻlib, ularni bajaradigan vazifasiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Asosiy unsurlar: ritm, vazn, qofiya, band.
2. Yordamchi unsurlar: intonatsiya, poetik sintaksis, she'riy san'atlar.

Asosiy unsurlar bilan tanishib chiqamiz:



Qalbdagi tovlanishlarning insoniy qiyosini ravshanlashtirishda, musiqiylikini ta'minlashda, qismat tarixini so'z vositasida jonlashtirishda uchta asos muhim ahamiyat kasb etadi. Bular ritm («Ritmika»), qofiya («Ilmi qofiya» - «Fonika»), band («Strofika»).

Ritm (gr.- teng o'ldhovlilik) borliqdagi barcha hodisa va holatlar tovlan-ishlarini ro'yobga chiqaruvchi, ulami izchillik bilan bir me'yorda takrorlanishi-ni ta'minlovchi asosdir. Shuning uchun ham insonning yurak urishida ham, qorningyog'ishida ham, fasllar almashinuvida ham, raqqosaning o'yinida ham, taralayotgan kuyda ham ritm (zarb) bor. Bu - dunyoning yaratilish qonuniyati.

Ritm- she'r misralaridagi bir-biriga keng nutq bo'laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlik. She'r ritmi, odatda, vazn, bo'g'in, turoq, turkum, pauza, band, qofiya, intonatsiya, poetik figuralar, poetik fonetika, she'r san'atlari bilan uzviy bog'liq. Ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri – vazndir. Vazn esa bo'g'in, turoq, turkum, pauza, urg'u kabi unsurlardan paydo bo'ladi.

Bo'g'in – bir nafas bilan aytiladigan so'z yoki so'zning bo'lagi - bo'g'indir. So'zlar talafTuz qilinganda, chiqarilayotgan havo oqimi turli-tuman ohang kasb etib, bo'g'inlarni hosil qiladi. Bo'g'inni hosil qiluvchi narsa — nutq tovushidir. Nutq tovushlari unli va undoshga bo'linganidek, undan hosil bo'luvchi bo'g'inlar ikki xil bo'ladi. Agar bo'g'inlarning oxiri unli bilan tugasa (bo-la, ka-ri-ma kabi) ochiq bo'g'in, undosh bilan tugagan bo'lsa (maktab, non kabi) yopiq bo'g'in sanaladi.

Bo'g'in – ritmni hosil qiluvchi eng kichik oichov birligi sanaladi. U ritm yaratish uchun guruhlanadi, ayni paytda, ritm qaysi misrada bo'g'in

soni ko‘p yoki kam ekanligini aniqlaydi. U ritm yaratish vazifasini bajarish uchun turoqlarga (aruzda ruknlarga) uyushadi. Bo‘g‘in – bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasi bo‘lib, she‘riy nutq o‘lchovida dastlabki ritmik birlikdir.

Barmoq tizimida bo‘g‘inlar turoqlarni, turoqlar turkumlarni, turkum vaznni, vazn ritmni, ritm musiqiylikni, musiqiylik poetik g‘oyani vujudga keltiradi. She‘riy unsurlarning ketma-ketligi va bog‘liqligini shunday ko‘rsatish mumkin:

Bo‘g‘in-turoq- turkum –vazn – ritm – musiqiylik – poetik – g‘oya - she‘r.

Bo‘g‘in mumtoz she‘riyatda hijo deb yuritiladi, unda qisqa va cho‘ziq hijolarning miqdori va tartibi muhim rol o‘ynaydi. Bo‘g‘in barmoq sistemasida turoqni, aruz sistemasida ruknni tashkil etadi.

Turoq – bo‘g‘inlarning misralarda qat‘iy tartibda guruhlanishi – turoqdir. Darvoqe, agar she‘rlarning ritmiga e‘tibor qilsak, bo‘g‘inlarning soni jihatdan bir turkumga kirgan she‘rlarning ritmida bir-biridan farq borligini sezamiz.

O — dam zo — ti / dun — yo — da — ki bor 4+5=9

U - ning bi ~ Ian / mu — hub - bat ~ dir yor 4+5=9

(H. Olimjon)

Na ko‘k-ning/ fo-na-ri / och-mas-dan 3+3+3=9

Na yul-duz / sayr e-tib / koch-mas-dan 3+3+3=9

(Uyg‘un)

Bir turkumga mansub ikki parchaning ritmik holatidan ikki xil ohangni yuzaga kelishi — bo‘g‘inlarning ikki xil tartibda (4+5=9; 3+3+3=9) guruhlanib kelishidir. H.Olimjon she‘rini Uyg‘un she‘ridagi turoqlanishga yoki Uyg‘un she‘rini H.Olimjon she‘ridagi turoqlanish tartibiga solib o‘qisangiz, she‘rdagi mazmun yo‘qoladi, ohangdorlik yasama va yoqimsiz shovqinga aylanadi.

Ko‘rinadiki, turoqlanish she‘rdagi his va fikrning uyg‘unligidan, maz-mundan kelib chiqadi, she‘r birdaniga (mazmun va shakli bilan) yaxlit tug‘iladi, vazni — o‘zligi bilan dunyoga keladi. Har bir turoqdan so‘ng tabiiy ravishda kelib chiquvchi izchil pauza (bilinar darajadagi sukut) ohangdorlik-ni, she‘rga mos ritmikani voqe qiladi.

Turoq-bo‘g‘inlarning misralar bo‘yicha muayyan tartibda takrorlanib kelishidir. Turoqlar aruzda rukn deb yuritiladi. Barmoq vaznida turoqlar bo‘g‘inlarning miqdoriga, aruz vaznida esa ruknlar hijolarning ham

miqdoriga, ham sifatiga qarab farqlanadi. Hozirgi o'zbek she'riyatida bir bo'g'indan tartib 8 hatto undan ortiq bo'g'indan tarkib topgan turoqlar ham uchraydi:

Masalan:

1. Alisherga alla aytib uxlatgan sen ona // 1+2 bo'g'inli turoq.

(Mirtemir)

2. Sukunat – shoirning so'zlari.

Ayta... // 2 bo'g'inli turoq

Olmay... // 2 bo'g'inli turoq

Ketgan... // 2 bo'g'inli turoq

So'zlari ... // 3 bo'g'inli turoq .

(Omon Matjon).

3. Ona mening haqqim ko'p.

Quyoshdan // 3 bo'g'inli turoq

Gullardan // 3 bo'g'inli turoq

Va sendan // 3 bo'g'inli turoq.

(Rauf Parfi).

O'zbek she'riyatida turoqlanish juda rang-barangdir. Hatto bir vaznda turoqlanish tartibi har xil bo'lishi mumkin:

3 3 3
Chashmadek / ziloldir / dillarim / = 9

3 3 3
Yomg'irdan / ko'kardi / yo'llarim / = 9 A.Umariy.

4 5
Sen odamning / minglab so'zini / = 9

4 5
Buloqlarning / ochding ko'zini / = 9 H.Olimjon.

2 3 4
Yana / quyoshning / o'ram nuri / = 9

Yuzimda o'ynar.

2 3 4
Yana yoshlikning / totli sururi / = 9

Ko'nglimda o'ynar.

Oybek.

Shuning uchun ham bir xil turkumga mansub bunday she'rlar har xil jaranglaydi. Talaffuzda bunday guruhning har biridan keyin kichik pauza qilinadi.

Turoqning o'zi ham bir misrada ikki katta guruhga bo'linib kelishi mumkin. Buning natijasida ritmning yana bir muhim omili – "bosh turoq" paydo bo'ladi. Odatda, bosh turoq misra yoki bayt oxirida keladi.

Masalan,

6	5
Hayot degani shu, / qalbning tubida //	
6	5
Qolgusi shodlik ham, / qayg'u ham qator//	
6	5
Va lekin umrimni / avval-so'ngida //	
6	5
Vatansiz tasavvur / etmog'im dushvor //	

Har bir misra oxiridagi turoq bosh turoqdir.

Turkum – misralarda muayyan qonuniyat asosida tarorlanib, She'r vaznini, ritmini vujudga keltiruvchi bo'g'inlar guruhi turkumni yaratdi. O'zbek she'riyatida bir necha turkumlik she'rlar mavjud:

Uchlik turkum

Zim-zim-zim, / 3 Di- lim-da / 3
Ko'p, so'-zim / 3 Bilim-dan / 3
Dil xur-sand / 3 Shimirsam / 3

To'rtlik turkum

Va -tan ko'r-kam, / 4
Ba-hor o'l-kam. / 4

Beshlik turkum

Yom-g'ir yo-g'a-loq, / 5
Yam- ya-shil o't-loq. / 5

Oltilik turkum

Men ba-hor kel-gan-da / 6
Os-mon-ga bo-qa-man / 6
Os-mon-ning ko'k-si-ga / 6

Yul-duz-lar ta-qa-man / 6

Yettilik turkum

Har – she’rim-da bir ba-hor, / 7

Gul-lar so-chib ku-la-di. / 7

Sakkizlik turkum

Ru-bo-bim to-ri- ik-ki-dur: / 8

Bi -ri quv- noq, bi-ri mah-zun, / 8

Ki-bay-tim sat-ri ik-ki-dur: / 8

Bi-ri dil-xush, bi-ri dil-xun. / 8

O‘zbek she’riyatida 7 lik, 9 lik, 11 lik turkumlar keng qo‘llanilladi. Turkum she’r vaznini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. She’r qaysi turkumda yozilgan bo‘lsa, vaznning nomi ham shu turkumga nisbat beriladi. Masalan, H.Olimjonning “O‘rik gullaganda” she’ri 9 lik turkumda yaratilgan va shunga ko‘ra, uning vazni – to‘qqiz bo‘g‘inli barmoq vazni deb yuritiladi.

Vazn – misralardagi bo‘g‘inlarning, turoqlanish tartibining muayyan o‘lchovga solinishi — vazndir. «Vazn nutqni o‘lchaydi, guruhlaydi va unga muayyan tartib kiritadi. Vazn o‘z holicha, alohida yashamaydi. U ham g‘oyaviy-estetik mazmunni yuzaga chiqarish uchun ishlaganda, ya’ni so‘zlarni, bo‘g‘in va turoqlarni o‘lchovga solgandagina «tiriladi», zarur vositaga aylanadi, she’riyatning qonuniyatini yuzaga chiqaradi.

Novdalarni / bezab g‘unchalar,

Tongda aytdi / hayot otini.

Va shabboda / qurg‘ur ilk sahar;

Olib ketdi / gulning totini.

(H.Olimjon)

Bu bandning birinchi misrasidagi 4+5 turoq tartibi she’rning oxirigacha qonuniyat tarzida takrorlanadi. Shu sabab bu she’rning vazni 4+5=9 bo‘g‘inli barmoq vaznidir. Ayni chog‘da she’r bir turkumga kiruvchi bo‘g‘inlar (4+5) guruhidan iborat bo‘lgani uchun *sodda vazn* deb yuritiladi.

Agar vazn ikki turkumga kiruvchi bo‘g‘inlar sonini bir she’rda

uyushtirish asosida yuzaga kelsa, bunday vazn — *qo'shma vazn* deb aytiladi:

Baland shoxda qizil olma = 8

Pishgan ekan. = 4

Uzib olib qarasam, qurt = 8

Tushgan ekan. = 4

She'ning turli misralarida musiqiylik turlicha tovlanib, o'zgarib tursa-da, lekin bir butunligini saqlasa, yakka va betakror namuna ekanligini namo-yish etsa — ana shu qonuniyat bo'y ko'rsatsa — *Erkin vazn* dunyoga keladi va u ham hayajonli holat («xos hol» va «xos ma'no») ni bunyod etgani, saqlagani, ta'sirdorlikka erishtirgani uchun (sodda, qo'shma vazn singari) mo'jizador bo'laveradi.

Vazn (arabcha o'lchov, tarozi) She'r o'lchovi, me'yori. Vazn she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy unsur hisoblanadi.

Bir turkumdagi She'r misralari, baytlari va bandlarida turoqlar va bosh turoqlarning muayyan qonuniyat asosida ishlatilishidan kelib chiqadigan ritmik hodisa — ohang vazn deb yuritiladi. Bo'g'inlarning miqdori turkumni belgilasa, turkumdosh turoqlar va bosh turoqlarning soni vaznni, ularning joylashish tartibi ritmni vujudga keltiradi.

Turli she'riy tizimlarda vazn turli yo'llar bilan hosil bo'lgan: barmoq tizimida she'ning birinchi misrasidagi bo'g'inlarning miqdori, turoqlarning soni va joylashishi boshqa misralarda ham muayyan tartibda takrorlanib kelishidan vazn hosil bo'lsa, aruz tizimida she'ning birinchi misrasidagi hijolarning miqdori va sifati, ruknlarning soni va tartibining boshqa misralarda aynan takrorlanishidan vazn paydo bo'ladi.

Ritmik pauza. «Pauza jahondagi hamma xalqlar va millatlarning she'r sistemalari uchun xos bo'lgan umumiy odatdir. Chunki ritmsiz she'r bo'lishi mumkin emas. Demak, pauzasiz ham she'r yo'q. Buning sababi shundaki, nutq bo'laklarining muayyan oichovda takrorlanishigina ritmni yuzaga keltiradi, takrorlanish tartibli to'xtamlarsiz, ya'ni pauzasiz yuz bermaydi.

Har bir tinish belgisidan so'ng ham pauza bor. Bu — oddiy pazadir. Ammo misra, band, turoq, rukn oxiridagi pauza o'zgachadir. Bu pazani ham mazmun, kechinma, sintaksis-intonatsion tuzilish belgilaydi. U prozada yo'q, chunki u o'lchangan, bir-biriga teng va paralel bo'lgan she'riy nutq xodisadir. Shuning uchun uni ritmik pauza

deb atash lozim.

*Nega menga / qaraydi debsan,
Va qilibsan / boqishimga g'ash.
Bilmasmding / qalbimga o'zing,
Solib qo'ygan / eding-ku otash.*

(Yusuf Rajab)

Bu to'rtlik $4+5=9$ bo'g'inli barmoqda yozilgan bo'lib, har bir turoqning oxirida ritmik pauza bor. Birinchi turoqdan (4) keyingi pauza — kichik, ikkinchi turoqdan (5) keyingi pauza — katta pauza (misraning oxiri bo'lgani sababli)dir. Shuni unutmaslik lozimki, ritmik pauza — shakl bo'lishi bilan bir qator-da u o'zini mazmun bilan vobastalikda voqe qiladi. Ritmik pazvani she'rdagi mazmun belgilaydi. Chunki har bir so'z, har bir holat muayyan ohang orqali aniqlanar ekan, ana shu ohangni yuzaga keltirishda ritmik pauza ish beradi.

*Asablar, / asablar, / asablar,
Sababsiz / sochilgan / g'azablar,
Gunohsiz / chekilgan / azoblar,
Ko'z yoshlar ... / bariga sabablar —
Asablar, / asablar, / asablar.*

(E.Vohidov)

Ushbu asardagi misralarning har birida uchta (2 ta kichik va bitta katta) ritmik pauza bor. She'rdagi «Asablar» so'zining uch bora pauza bilan takrorlanishi — asabga diqqatni qaratadi va bu tuyg'uning uyg'onishi sababsiz g'azablarga, gunohsiz azoblarga, ko'z yoshlarga olib kelishi mumkinligini va shu sabab unga o'ta ehtiyotkorlik, bosiqlik bilan yondoshish lozimligiga chorlaydi. Lirik qahramon qalbidagi ana shu mazmun — ritmik pauza tarki-bini, rivojini (birinchi misradagi tushunchani 2,3,4-misralarda bir pog'ona balandga ko'taradi va oxirgi misrada so'nggi — xulosaviy ma'noni ta'kid etadi), yechimini — shunga mos ohangni ro'yobga chiqaradi.

Turkum — muayyan misraga kirgan va boshqa misralarda (she'r oxiri-gacha) ham takrorlanib, ritmni yuzaga keltirgan bo'g'inlar soniga asoslangan o'lchov — turkumdir.

*Men dunyoga kelgan kundanoq,
Vatanim deb seni uygondim.
Odam baxti birgina senda,
Bo'luriga mukammal qondim.*

(H.Olimjon)

*Bir tutam sochlaring mening qotlimda,
Gijimlab opaymi, yo tarabyechay.
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,
Sir deb saqlayinmi yo yelga sochay.*

(Cho'lpon)

Hamid Olimjon she'ri «to'qqizlik», Cho'lponning she'ri «o'n birlik» turkumga kiradi.

Qofiya B.V.Tomashevskiyning fikricha, «...qofiyaning *ritmni tashkil qilish va ohangdoshlik yaratishdek* ikkita belgisi bor. Qofiya qandaydir fikrni o'z holicha ifodalay olmaydi. Biroq turli tushunchalami munosabatdor qilib, ularni ongimizda tovushlar ohangdoshligi orqali aloqador etib, u yoki banddagi asosiy fikrlarni ifodalashga olib keladi»¹. Demak, qofiya mazmun bilan bog'liq, u kerakli tushunchalami, ularni misralar oxiriga chiqarish orqali ta'kidlab ko'rsatishni taqozo etadi; ikkinchidan, qofiyaga ajratilgan bu muhim so'zlar fikr oqimidan kelib chiqadi va uning zarur halqasi bo'lib qoladi.

Qofiyaning mazmun bilan aloqadorligi ta'sirdorlikni yuzaga chiqaradi va she'rdagi mazmunni oson eslab qolishga (yodlashga) yordam beradi. Bu xususiyatlarning mujassami maqollarda ifodasini topgani uchun ham, ularni bir bora eshitgan kishi umrbod esida saqlab qoladi:

«*Mehnat — rohat*», «*Yaxshidan bog' qolar, yomondan — dog'*» kabi.

XX asrda keng tarqalgan erkin she'rda qofiyalash tartibi ham erkinlikni qo'lga kiritdi: bayt va bandlarda ba'zan bir necha misralar qofiyalansa, ba'zan ular qofiyalanmaydi.

Band. She'riyatda bo'g'inlar guruhlanib turoqni, turoqlar guruhlanib vaznni tashkil etadilar. Bunday guruhlanishdagi izchillik va takroriylik musiqiylikni yuzaga keltiradi. Bu qonuniyat misralarning ham guruh-

¹ Tomashevskiy B.V. Stilistika va she'r tuzilishi. —M.: 1979., 81-bet.

lanib kelishini, uning izchil va takroriyligini talab qiladi. Bu talabning ijrosi band deb yuritiladi.

Lirik asarga xos boʻlgan mazmun ham, syujet va kompozitsiya ham bandni zaruratga aylantiradi, chunki, muayyan asardagi mavzuning asosiy gʻoyasi, gʻoyaviy mazmunning qirralari, bir oniy kechinmaning xulosasini kengaytirib, yoyib, asoslab, ochib beruvchilik vazifasini band oʻtaydi. Ayni choqda, band bandlararo «sochilgan» fikr va kechinmalarni yaxlitlashtiradi; ularning ifodasidagi oʻzigagina xos birlikni yuzaga keltiradi, birgina soʻz bilan ifodalasak, band insoniylashadi, obrazli vositaga aylanadi.

Aruzdagi eng kichik ritmik bo‘lak sifatida ayrim mutaxassislar (arab va fors aruzshunosligi an‘analariga muvofiq) harfni, boshqalari esa (turkiy tillar va turkiy aruz xususiyatlaridan kelib chiqib) hijoni ko‘rsatishadi. Ya‘ni, eng kichik ritmik bo‘lak sifatida harfning olinishi arab tili (va yozuvi) uchun xosroq, o‘zbek tili uchun esa hijoning olingani qulayroq. Shunday bo‘lsa ham, aruzdagi tarkiblanishni yaxshiroq tasavvur qilish uchun harf eng kichik birlik sifatida olingan holatdagi tarkiblanishga qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Barmoq tizimidagi vaznlar – barmoq tizimi vaznlarga nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. She’rishunosligimizda barmoq tizimidagi vaznlarning tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlari aniqlangan:

1. Sodda vazn
2. Qo‘shma vazn
3. Murakkab vazn
4. Erkin vazn
5. Aralash vazn

1. Bir turkumga asoslangan turoqlar tartibi sodda vazn deyiladi.

4 5

Chiroylidir / go‘yo yosh kelin, // - 9

4 5

Ikki daryo / yuvar kokilin. // - 9

2. She'r ikki turkumda yozilgan bo'lsa, uning bir misrasida bo'g'inlar soni 1 xil, 2 – misrasida bo'g'inlar soni boshqa xil bo'ladi: ular muayyan tartib asosida butun she'r davomida takrorlanadi:

4 4

Boqsam yerlik / navolarga, // - 8

4 3

Bilmam, qachon / qaytaman. // - 7

4 4

Men dardimni / havolarga, // - 8

4 3

Shamollarga / aytaman. // - 7

Rauf Parfi.

4 5

Kel, do'st bo'lsang, / yoshimga boqma, // 9

3 4

Erib ket / shodligimda. // 7

4 5

Raqib bo'lsang / yonimda oqma, // 9

3 4

Botasan / girdobimda. // 7

Zulfiya.

Qo'shma vaznli she'rlarda ritm bir xil vaznli misralar takroridan emas, ikki xil vaznli misralarning muayyan qonuniyat asosida takrorlanishidan kelib chiqadi. Qo'shma vazn she'rning ritmik imkoniyatlarini oshiradigan vositalardan biridir.

3. She'r uch va undan ortiq turkumda yozilgan bo'lsa, murakkab vazn sanaladi. Masalan, Cho'lponning "Binafsha" she'ri bunga misol bo'la oladi. She'rning dastlabki ikki bandi qo'shma vaznda yaratilgan bo'lsa, qolgan bandlar uchlik, oltilik, to'qqizlik, sakkizlik, o'n ikkilikda yaratilgan.

4. Rus va usmonli turk she'riyatdan o'zbek she'riyatiga o'tgan yangi she'r yo'li. O'zbek adabiyotida erkin she'r namunasini birinchi bo'lib A.Fitrat yaratgan. Bu vaznning muhim xususiyatlari misralardagi so'zlarning ma'no va intonatsiyani kuchaytirishi uchun bir necha qatorga zinapoya shaklida joylashtirish; bir necha ritmik o'lchovlardan foydalanish; vazn, qofiya, band tuzilishida erkinlik, qadimiy qoidalardan bir muncha chetga chiqishda namoyon bo'ladi.

Cho'chima jigarim,

O'z uyingdasan.

Bu yerda na g'urbat, na ofat

Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat

Va mehnat nonini ko'ramiz baham. (G'.G'ulom)

Erkin vaznning yana bir ko‘rinishi *sarbast* (verlibr) dir. Sarbonida turoq, qofiya, ritm, poetik fikr yo‘nalishi kabi qoidalarga deyarli amal qilinmaydi. Asosan, o‘ziga xos she’riy mantiqqa amal qilinadi. Sarbastning bu xususiyati shoirga hayotning murakkab jihatlari haqida, dolzarb va keskin muammolar xususida jo‘shqin va erkin, ayni chog‘da oshkora, dangal fikr yuritishga yo‘l ochadi.

Men birinchi yomg‘ir bo‘lib yog‘im keladi
O‘zbekiston yerlariga
Men kekxa chinorlarning salobati bo‘lib,
Yashagim keladi O‘zbekistonda. (Miraziz A‘zam)

5. Aralash vazn rus erkin she’ri ta’sirida paydo bo‘lgan va rus shoirlari asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilish jarayonida she’riyatimizga kirib kelgan. Bu vaznning ikki xil ko‘rinishi bor:

- a) sodda va qo‘shma vaznlardan foydalaniladi;
- b) sodda, qo‘shma va erkin vazndan foydalaniladi. Mirtemirning “Onaginam” she’ri bunga misol bo‘la oladi.

Band – she’rning alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan lirik ritmik bo‘lagidir. Qofiya va intonatsiya bilan birikkan misralarning muayyan tartib asosida takrorlanishi band deyiladi. O‘zbek she’riyatida 2 misradan tortib 24 misragacha bo‘lgan bandlar mavjud bo‘lsa-da, 2-8 misrali bandlardan ko‘proq foydalaniladi. Adabiyotshunoslikda shartli ravishda ikkilikdan oltilikka bo‘lgan bandlar sodda bandlar; yettilikdan o‘n oltilikka bo‘lgan bandlar murakkab bandlar deyiladi.

Aruz tizimi bir necha yillar davomida arab, fors-tojik va turkiy she’riyatlarida amaliy jihatdan qo‘llanib kelingan. VIII asrda Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan bu vazn o‘ziga xos latif musiqiylik, ohanglar rang-barangligi, hayot boqiyiligi va insoniy hissiyotlar olamini serjilo misralar vositasida ta’sirchan jozibador ifodalash imkoniyatlarining benihoyaligi bilan belgilanadi. Arab she’riyatiga VIII asrdan tatbiq etilgan mazkur o‘lchov tizimi IX asr boshlaridayoq fors-tojik adabiyotida ham qo‘llanila boshlandi. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Umar Xayyom, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodidan mustahkam o‘rin oldi. IX - X asrlarda turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan ko‘plab shoirlar o‘sha davr an’anasiga ko‘ra o‘z asarlarini arab tilida yozar ekanlar, aruz o‘lchoviga asoslandilar,

xilma-xil musiqiy va jozibador vaznlar zaminida g‘oyaviy va badiiy jihatdan barkamol qasida va g‘azallar, ruboiy va qit‘alar yaratdilar. IX asrda yaratilgan “Yatimat ud-dahr” kitobidan mashhur adabiyotshunos olim Abu Mansur as-Saolibiy arab tilida ijod qilgan ko‘pgina adiblarning nomlari va asarlarini qayd etadi. Ana shu ijodkorlar turkiy tilda ham aruzning yengil va o‘ynoqi o‘lchovlarida ko‘plab lirik she‘rlar yozganligi shubhasiz. Zero, bu xil tajribalarsiz IX asrda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”dek yirik dostonining maydonga kelishi mahol edi. Ana shu davrdan boshlab to XX asrgacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida aruz tizimi asosiy tizimlardan biri bo‘lib qoldi.

Sharq mumtoz adabiyotida keng qo‘llanib kelgan aruz vazni she‘r misralarida qisqa va cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham aruz nazariyasiga oid ilmiy asarlarda sokin (mustaqil undosh yoki cho‘ziq unli) hamda mutaharrik (harakatlanuvchi, ya‘ni qisqa unli oldidagi undosh) harflar vazn yaratuvchi eng kichik juzv hisoblangan. She‘riy vazn uch xil-qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijoga asoslanadi.

Qisqa talaffuz qilinuvchi unlikdan iborat bo‘lgan yoki shunday unlik bilan tugagan ochiq hijolar qisqa hijolar deb ataladi. U vazn chizmasida V belgisi bilan ifodalanadi.

Cho‘ziq talaffuz qilinuvchi unlikdan iborat bo‘lgan yoki shunday unlik bilan tugagan ochiq hijolar, shuningdek tarkibida qisqa unlik bo‘lgan yopiq hijolar cho‘ziq hijo sanaladi. Bunday hijolar vazn chizmasida – belgisi bilan ifodalanadi.

Yopiq cho‘ziq hijo tarkibida cho‘ziq unlik kelsa, u ancha cho‘ziq talaffuz etiladi. Bunday hijolar o‘ta cho‘ziq hijo sanaladi. Shuningdek, qo‘sh undosh bilan tugagan hijolar ham o‘ta cho‘ziq hijo hisoblanadi. Bunday hijolar misra ichida – V belgisi bilan, misra oxirida ~ belgisi bilan ifodalanadi.

Masalan:

So‘rma holimniki, bo‘ldim burnog‘idin zorroq,

Jism jondin zoru, jonim jismdin afgorroq.

Baytni vaznga muvofiq o‘qisak, birinchi misradagi *zorroq* so‘zining har ikki hijosi, afgorroq so‘zining keyingi ikki hijosi tarkibidagi “o” unlisining cho‘ziq talaffuz qilinishi tufayli boshqa yopiq hijolardan ajralib turadi. Chunki ular o‘ta cho‘ziq hijolardir.

Baytning vazn chizmasi quyidagicha tuziladi:

So‘r-ma-ho-lim ni-ki, bo‘l-dim bur-no-g‘i-din zor-roq,
 - V - - - V - - - V - - - V ~

Jism-jon-din zo-ru jo-nim jism-din af gor-roq.
 - V - - - V - - - V - - - V ~

Qisqa va cho‘ziq hijolarning birikuvidan sabab, vatad, fosila deb atalgan bo‘laklar tashkil topadi.

Sabab, vatad va fosilalarning birikuvidan she‘riy misralar hosil qiluvchi eng yirik bo‘lak – rukn maydonga keladi.

Bir sabab bilan vatadi majmu‘ birikmasidan “faulun” va “foilun” ruknlari hosil bo‘ladi. Agar vataddan so‘ng sabab kelsa, “faulun” rukni, aksincha, sababdan so‘ng vatad kelsa, “foilun” rukni tuziladi. Faulun rukni chizmada V - - tarzida, foilun rukni esa – V – tarzida ifodalanadi.

Ikki sabab bilan bir vatadning birikuvidan to‘rtta to‘rt hijoli rukn tuziladi. Bular *mafoiylun*, *foilotun*, *mustaf‘ilun* va *maf‘ulotu* ruknlaridir.

O‘zbek aruzida sabab, vatad hamda fosilalar birikuvidan aruz vaznining asllar deb ataluvchi quyidagi ruknlari hosil bo‘ladi:

Rukn nomi	Chizmasi	Rukn nomi	Chizmasi
Faulun	V - -	Mustaf‘ilun	- - V -
Foilun	- V -	Maf‘ulotu	- - - V
Mafoiylun	V - - -	Mutafoilun	V V - V -
Foilotun	- V - -	Mafoilatun	V - V V -

Aruz vaznidagi She‘r o‘lchovlarining asosiy turlari – bahrlar yuqoridagi 8 ruknning turli tartibda birikib takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bir ruknning aynan takroridan tuzilgan bahrlar. Bunday bahrlar 7 ta bo‘lib, maf‘ulotu bo‘lak, yuqoridagi yetti ruknning aynan takroridan hosil bo‘ladi. Ya‘ni faulun rukni takroridan mutaqorib bahri, foilun rukni takroridan mutadorik bahri, mafoiylun rukni takroridan hazaj bahri, foilotun rukni takroridan ramal bahri, mustaf‘ilun rukni takroridan rajaz bahri, mutafoilun rukni takroridan komil bahri hamda mafoilatun rukni takroridan vofir bahri hosil bo‘ladi.

Bir paytda bu ruknlar to‘rt marta takrorlansa, bunday vaznni murab-

ba' (arabcha "to'rtlik" degani), olti marta takrorlansa, musamman (arabcha "sakkizlik") deb yuritiladi.

Misollar:

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,
Bu charxi bemuruvvatdan ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Mazkur baytning ruknlari va chizmasi quyidagicha:

Za-mo-na-kul	fa-ti-din-bu	ko'-ngul-do-g'o'l	di-do-g'o'l-di,
V - - -	V - - -	V - - -	V - - -
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun

Bu-char-xi-be	mu-ruv-vat-din	ko'-ngul-do-g'o'l	di-do-g'o'l-di.
V - - -	V - - -	V - - -	V - - -
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun

ko'rinadiki, bu baytda mafoiylun rukni sakkiz marta takrorlanayapti. Demak, ushbu She'r hazaji musammani solim vaznida yozilgan ekan.

2. Ikki xil ruknli bahrlar. Aruz vazniga mansub bir qator bahrlar ikki xil ruknning ma'lum tartibda takrorlanishidan yuzaga keladi. Bunday birikib takrorlanish ikki turlidir:

Bittadan olingan ikki xil ruknning takrorlanishidan hosil bo'lgan bahrlar. Bunday bahrlar bizga ma'lum 8 ruknning ikkita-ikkita bo'lib takrorlanishidan tuziladi.

Ikki bir xil va bitta boshqa xil ruknlarning takrorlanishidan tuzilgan bahrlar. Bunday bahrlar har bir misrada uch ruknning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ulardan ikkitasi bir xil, uchinchisi boshqa xil rukndan iborat bo'ladi.

Bir misrada uch, bir baytda esa oltita rukn ishtirok etgani uchun bunday bahrlar olti ruknlik, ya'ni musaddas shakldagina namoyon bo'ladi, ular murabba' va musamman ko'rinishlariga ega bo'lmaydi:

1. Qarib bahri.
2. Mushokil bahri.
3. G'arib bahri.
4. Sari' bahri.

Savol va topshiriqlar:

1. She'riy nutqning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo'g'in va turoq She'r tuzilishida qanday vazifani bajaradi?
3. Aruz va barmoq she'riy sistemalari bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Barmoq tizimidagi turli vaznlar haqida gapiring.
5. Erkin, oq va sochma she'r vaznlarining bir-biridan farqli jihatlari ayting.
6. Aruz vazni o'zbek adabiyotiga qachon kirib kelgan?

MUMTOZ ADABIY JANRLAR: G‘AZAL VA QIT‘A. TUYUQ, RUBOIY VA FARDLAR. MUSAMMATLAR. MUMTOZ SHE‘R UNSURLARI, ULARNI O‘RGANISH METODLARI

G‘azal – arabcha “ayollarga hushomad” degan ma‘noni bildiradi. Mumtoz she‘riyatdagi yetakchi lirik janr. Qofiya tizimi a-a, b-a, v-a, g-a vahokazo, ya‘ni faqat juft misralari qofiyalanadi.

“KELMADI” RADIFLI G‘AZAL

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo‘lida intizor;
Keldi jon og‘zing‘a-vu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.
Ko‘zlariningdin necha su(v) kelgay, deb o‘lturmang meni, —
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi.
Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘akim, awalqadam ma‘shuqe o‘tru kelmadi.
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.
«Badoye‘ul-vasat»ning 608-g‘azali.*

G‘azal ishqiy mavzuda, o‘zbek tilidagi she‘riyatda eng ko‘p ishlatilgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya‘ni «foilotun—foilotun—foilon (yoki foilon)» vaznida (taqte‘si:— V / — V / — V /— V—) yozilgan. An‘anaviy yetti baytdan iborat. Radifga o‘zbekcha so‘z («kelmadi») ishlatilgan va qofiyasidagi sakkiz («gulro‘ — uyqu — badxo‘ — qorong‘u — kulgu — su(v) — o‘tru — qayg‘u») so‘zdan oltitasi — o‘zbekcha, ikkitasi («gulro‘» va «badxo‘») — tojikcha. Badiiy jihatdan shunday qat‘iy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda kamida bir tazod (zidlantirish, qarama-qarshi ma‘nolardagi so‘zlarni qo‘llash) san‘ati namunasiga duch kelamiz. Bu badiiy san‘at g‘azalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan. Matla‘da lirik

qahramon kecha (buni «*kechasi*» deb ham, «*kecha*», ya'ni bir kun oldin deb ham tushunish mumkin) yor («*sarvi gulro*») kelaman deb, kelmadi, shuning uchun tong otgunga qadar ko'zlarimga uyqu kelmadi, deydi. Shuning o'zidayoq lirik qahramon holati ma'lum qilinadi. Betoqat yor har zamon-har zamon chiqib, ma'shuq yo'liga intizor bo'ldi, hatto, j on uning og'ziga keldi-yu, u yomonlik istovchi sho'x go'zal kelmadi (ikkinchi bayt). Keyingi ketma-ket uch baytda yorning orazi (yuzi) oqligi bilan oshiq hayotining qorong'iligi, hajrida devonavor yig'lagani bilan uni ko'rib, ustidan kuladigan bormi-yo'qligi, ko'zlaridan suv emas, qon kelganligi o'rtasidagi ziddiyatlar qalamga olinadi. Mumtoz she'riyatimizda «begona bayt» degan tushuncha mavjud. Bu maqta'dan oldingi baytni bildiradi. Uning begonaligi shundaki, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov so'zlari bilan aytganda, «*bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa,*

maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umumyo'nalishiga u qadar bog'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham, shu yerda aytib qoladi.

G'azalning «begona» baytida lirik qahramon tolibi sodiq topilmasligidan shikoyat qilishga o'tadi. Shunday bo'lmasa edi, kimki yo'lga qadam qo'ysa, undan oldinroqda yuradigan bir ma'shuq ro'baro' kelmaydimi?! Bu yerda nozik falsafiy-tasawufiy masala ko'tarilgan. «Yo'l» baytda tasavvufni, Alloh ishqini bildiradi. Bu yo'lda esa sadoqatli talabgor (oshiq) topilmayapti. Ayni gap bilan shoir pirga ishora qilgan. Chunki pir hamisha bu yo'lni muriddan avvalroq bosib o'tgan, ya'ni «awalqadam» bo'ladi. Awalqadam oshiq esa Alloh vasliga yetib, ma'shuqqa aylanadi. Murid ana shu shayxning etagidan tutib, unga ergashmoqchi. Navoiy g'azallarining yozilgan yillari ma'lum emas. Taxmin qilish mumkinki, bu g'azalni shoir ustози va piri Abdurahmon Jomiy vafotlaridan, ya'ni 1492-yildan keyin bitgan. Maqta' ham juda tahlil talab. Chunki unda ikki karra «boda» so'zi tilga olinadi. Shaklan, ya'ni yuzaki qaraganda, o'quvchida mayparastlik targ'ib etilayotgandek tasavvur tug'ilishi mumkin.

Holbuki, Navoiy buyuk islom shoiri edi. Islomda esa mast qiluvchi ichimliklar harom hisoblanib, man etilgan. May, sharob, boda, chog'ir... O'tmishda ajdodlarimiz iste'mol etgan kayf beruvchi ichimliklar shunday so'zlar bilan nomlangan. Albatta, bu to'rt ichimlik nimadan hozirlangani, tayyorlanish usuli, tarkibidagi spirt miqdori

jihatidan o‘zaro bir-biridan farq qilgan bo‘lishi kerak. Biroq shoirlarimiz bu so‘zlarni o‘zaro ma‘nodosh (sinonim) sifatida qo‘llayvergan. Nega? Gap shundaki, adabiyot, xususan, she‘riyatda bu so‘zlar o‘z ma‘nosida emas, aksaran ko‘chma ma‘noda — badiiy timsol (obraz) sifatida ishlatilgan.

Xo‘sh, badiiy timsol nima? *Timsol* — asli, *suvrat*, *rasm* degani. Suvrat esa narsaning o‘zi emas, u haqda ma‘lumot beradi, xolos. Uni ko‘rib, o‘sha narsaning o‘zini tasawurga keltirasiz. Badiiy timsol ham shunga o‘xshash. Shoir bir nimani ko‘zda tutadi, o‘sha narsani o‘quvchi yaxshiroq, osonroq ko‘z oldiga keltirsin uchun biror timsol ishlatadi. May, sharob, boda, chog‘ir timsollarini ham mumtoz shoirlarimiz shu maqsadda qo‘llagan. Endi asosiy masalani o‘rtaga tashlasak bo‘ladi: bu timsollar nimani anglatadi? Boshqacha aytganda, mumtoz she‘riyatimizda *may*, *sharob*, *boda*, *chog‘ir sol zlan* uchrasa, o‘quvchi *may*, *sharob*, *boda*, *chog‘imi* emas, boshqa narsani ko‘z oldiga keltirishi kerakmi? Bu masalada shosilmaslik zarur. Xususan, Alisher Navoiy ijodi ana shunday ehtiyotkorlikni taqozo etadi. Agar bu so‘zlar shoirning she‘riy ijodida uchrasa — ular badiiy timsol. Bordinyu, bu so‘zlarnimuallif ilmiy yoki umuman nasriy asarlarida ishlatlsa, vaziyat o‘zgaradi: endi uni badiiy timsol deb emas, aynan o‘sha spirtli ichimlikning o‘zi deb hisoblashimiz shart. Bobokalonimiz ijodida unisi ham, bunisi ham uchraydi. Avval o‘sha o‘z ma‘nosida qo‘llangan asarlariga to‘xtab o‘taylik. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarida tasvirlanishicha, Sayyid Hasan Ardasher xos ma‘naviy suhbatlar chog‘ida bodaxo‘rlik qilishni xush ko‘rganlar. Lekin har gal ichkilikbozlikdan keyin Yaratganga iltijo qilib, mayxo‘rlikdan tavbaberishini so‘raganlar... Bu yerda o‘z ma‘nosidagi mastlik ko‘zda tutilgan.

Navoiy zamondoshlariga yo‘llagan xatlarini yig‘ib, «Munshaot» nomi bilan to‘plam qilgan. Shu asardagi hukmdorlardan biriga jo‘natilgan maktubda ikki narsa maslahat tariqasida qattiq shart qilib qo‘yiladi: birinchisi — Haq taolo amriga to‘la itoatda bo‘lib, buyurgan ishlarini so‘zsiz bajarish; ikkinchisi — Tangri man etgan ishlar(nahy)ni qilmaslik. Odamlar ustidan hukm yuritish baxtiga muyassar bo‘lgan kishi uchun Alloh amriga itoat etishda adolatga teng keladigani yo‘q. Man etilgan ishlardan tiyilishning hech biri esa «*chog‘ir tarkicha bo 4mas*». Navoiy bu gaplarning o‘zi bilan ham cheklanib qolmaydi. Adolatning qadrini ham, may ichmaslikning foydasini ham Muhammad


paygʻambarning soʻzlari bilan mustahkamlab tushuntiradi:

«...*Hazrat risolat* (ya'ni Muhammad) *sallallohu alayhi vasallam buyurubturkim*, «*Adlun saatun xayrun min ibodat is-saqalayn*» («*Bir soatlik adolat ikki dunyo — insonlar va jinlar dunyosi ibodatidan yaxshiroq*») va *chogʻirni «umm ul-xabois»* («*yaramasliklar onasi*») *debduklarjamʻiyomonligʻandin mutavallidboʻlurkim* (ya'ni tugʻiladikim), *borcha yaxshiliq va yomonliq bu ikki nima zimnida mundarijdur*».

Bundan maʼlum boʻladiki, ulugʻ mutafakkir hech ikkilanmasdan ichtilikbozlikni Xudo man etganini, barcha yomonliklar shu ichkilikdan kelib cMqishini taʼkidlab turibdi. Shunday soʻzlarni sheʼr qilib emas, asar deb emas, toʻgʻridan-toʻgʻri hukmdorga nasihat tarzida bitgan Idshining oʻzi ichkilik tarafdori boʻlishi, uni maqtashi mumkinmi? Masalani shu tarzda juda aniq qilib qoʻygan paytimizda beixtiyor shoirning ana shu mashhur gʻazali maqtaʼsida aytilgan fikr yodimizga tushadi. Ana shunda bu parchadagi «*boda*» *aslo* oʻz maʼnosida emasligini tushunib olish kerak. Adabiyotda islom taʼsiriz ham dunyoviy maʼnodagi mastlik kayfiyatini tarannum etish, mayni taʼriflash bor edi. Tasawuf adabiyoti shu shaklni saqlab qoldi. Ammo endi mayni Xudoga ishqning timsoli qilib oldi. Shuning uchun tasawuf sheʼriyatida ham shaklan, yaʼni tashqi tarafdin aynan dunyoviy adabiyotdagidek may va mastlik tilga olinaveradi, mohiyatida esa ilohiy ishq koʻzda tutiladi. Boda kelgan uyga qaygʻu kelmasligining dunyoviy asosi bor: ichgan kishining, sunʼiy ravishda boʻlsa ham, kayfiyati koʻtariladi, qaygʻusi, vaqtincha boʻlsa ham, esdan chiqadi. Tasavvufiy maʼnoda esa Yaratganning ishq bilan kuyib-yonib yashayotgan kishining gʻam chekishiga oʻrin qolmaydi. Shuning uchun ham lirik qahramon yorining kelmaganiga, ochiqroq ifodalaganda, bu dunyoda Alloh vasliga yetolmayotganiga koʻp ham gʻam chekavermay,

Yaratgan zotni sevlashini davom ettiraversin, shunda barcha kulfatlar bartaraf boʻlaveradi... Shoirning may, sharob, boda, chogʻir haddi aʼlosida taʼriflangan sheʼrlari shu qadar koʻpki... Bayt — asli oshiqona gʻazalning maqtaʼsi. Lekin boda tilga olindimi, demak, gʻazalga rindonalik ruhi ham qoʻshildi. May taʼrifida kelgan gʻazallar *rindona gʻazallar* deyiladi. Ulugʻ shoir asarlari mohiyatini tushunib olishga qiynalmaslik, xususan, soʻzlarning oʻz maʼnosi bilan koʻchma, yaʼni badiiy maʼnosini tushinishda adashib ketmaslik uchun shoirning timsollar olamidin boxabarlik talab etiladi. Demak, Navoiy asarlari

magʻzini chaqishda ilm juda kerak. Bu shoirning oʻta mashhur gʻazallaridan hisoblanadi. Hozirgacha ham qoʻshiq qilib kuylanadi. Koʻp hofizlarimiz shu gʻazal ijrosida oʻz kuchini sinab koʻradi. Gʻazal mashhur «Munojot» kuyi bilan aytiladi. Kuyda haqiqiy yor, yaʼni Alloh vasliga yetolmaslik dard-u gʻami, iztirobi aks etgan. Har qanday sheʼriy asarni quyidagicha tasniflash mumkin:



Mumtoz sheʼriyat janrlarini quyidagicha shaklda berish hamda shu asosda janrlarning mohiyatini bilib olishga daʼvat qilish mumkin. Bilamizki, musammatlar “ipga tizilgan marjon” degan maʼnoni bildirib, bandlar sonii va qofiya shakli oʻzgargani sayin nomi ham oʻzgarib boraveradi.

Masalan:

1. Masnaviy – ikkilik bayt shakli;
2. Musallas uchlik
3. Murabbaʼ – toʻrtlik
4. Muxammas – beshlik;
5. Musaddas-oltilik
6. Musabbaʼ – yettilik
7. Musamman-sakkizlik
8. Mutassaʼ – toʻqqizlik
9. Muashshar – oʻnlik...

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Fard, musallas, ruboiy, tuyuq	NAZARIY MA'LUMOT	Fard – shoir tomonidan ma'lum mavzu, g'oyaviy maqsadda ijod qilingan baytdan iborat janr. Musallas – uchlik. Ruboiy – aruzning ma'lum bahrida yaratilgan to'rt misra she'r. 1-misra tezis, 2-si antitezis, 3-si moddayi ruboiya, 4-si sintezdir. Tuyuq – turkiy she'riyatdagina mavjud bo'lgan, tajnis san'ati qo'llangan, to'rt misradan iborat she'r.
G'azal, marsiya, sonet	NAZARIY MA'LUMOT	G'azal – oshiqona so'z degan ma'noni bildirib, matla', maqta', begona baytdan tashkil topgan, keng qo'llangan janr. Marsiya – biror shaxsning vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan motam she'ri. Sonet – 14 misradan iborat bo'lgan, to'rtlik qism (katren) va uchlik qism (terset)dan iborat she'r.
Tarji' band, tarkibband, soqiynoma	NAZARIY MA'LUMOT	Tarji' band – har bandi g'azal hajmiga teng bo'lgan, birinchi bandning oxirgi bayti qolgan bandlarda takrorlanuvchi lirik janr. Tarkibband – har bandi g'azal hajmiga teng bo'lgan, qolgan bandlarning oxirgi bayti birinchi bandga xos qofiyalanuvchi lirik janr.

Savol va topshiriqlar:

1. «She'riy vazn» va «she'r tizimi» istilohlariga ta'rif bering. Ularning o'zaro munosabatini qanday tushunasiz? Jahon she'riyatida qo'llaniluvchi qaysi she'r tizimlarini bilasiz?
2. O'zbek she'riyatida qaysi she'r tizimi yetakchilik qiladi, nima uchun? Fitrat nima sababdan barmoqni «milliy vazn» deb atagan?
3. Turoqlanish tartibining ohang hosil qilishdagi rolini tushuntiring.
4. «Sodda vazn», «qo'shma vazn» deganda nima tushuniladi?

TASAVVUF ADABIYOTI. SO'FIYONA ASARLARINI ZAMONAVIY METODLAR ORQALI O'QITISH

Lirika (yun. *cholg'u* asbobi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyat sifatida uning tuyg'ukechinmalarni tasvirlashi olinadi. Epos va dramadan farq qiladi, lirika voqeliknitasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramonruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahami-yatlidir. Shu bois ham lirik asarda voqelik lirik qahramon qalb prizmasi or-qali ifodalanadi, yana ham aniqrog'i, lirikada kechinmani tasvirlash uchun yetarli miqdordagi voqelik "parchalari", detallargina olinadi.

Lirikaning asosiy obrazi lirik qahramon (ba'zan u lirik su'byekt deb ham yuritiladi). Ko'pincha lirik qahramon deganda muallif tushuniladiki, bu har doimham to'g'ri bo'lavermaydi. Zero, shoir o'zining kechinmalarini tasvirlashi hamo'zganing ruhiyatiga kirgan holda o'sha "o'zga shaxs" kechinmalarini tasvirlashi ham mumkin. Bu o'rinda yana bir muhim masala shuki, she'rda hatto shoir o'z kechinmalarini tasvirlagan holda ham lirik qahramon bilan real shoir orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmaydi. Chunki, L.Tolstoy aytmoqchi, har bir inson qalbida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qalblar imkoniyat tarzida mavjuddir, shunga ko'ra, shoir o'zganing holatiga kirishi, ma'lum hayotiy situatsiyadagi istalgan insonning kechinmasini his qilishi ham mumkin.

Timsol — asli, *suvrat*, *rasm* degani. Suvrat esa narsaning o'zi emas, u haqda ma'lumot beradi, xolos. Uni ko'rib, o'sha narsaning o'zini tasawurga keltirasiz. Badiiy timsol ham shunga o'xshash. Shoir bir nimani ko'zda tutadi, o'sha narsani o'quvchi yaxshiroq, osonroq ko'z oldiga keltirsin uchun biror timsol ishlatadi. May, sharob, boda, chog'ir timsollarini ham mumtoz shoirlarimiz shu maqsadda qo'llagan. Endi asosiy masalani o'rta tashlasak bo'ladi: bu timsollar nimani anglatadi? Boshqacha aytganda, mumtoz she'riyatimizda *may*, *sharob*, *boda*, *chog'ir sol zlan* uchrasa, o'quvchi *may*, *sharob*, *boda*, *chog'imi* emas, boshqa narsani ko'z oldiga keltirishi kerakmi? Bu masalada shosilmaslik zarur. Xususan, Alisher Navoiy ijodi ana shunday ehtiyotkorlikni taqozo etadi. Agar bu so'zlar shoirning she'riy ijodida uchrasa — ular badiiy timsol. Bordi-yu, bu so'zlarnimuallif ilmiy yoki umuman nasriy asarlarida ishlatlsa, vaziyat o'zgaradi: endi uni badiiy timsol deb

emas, aynan o'sha spirtli ichimlikning o'zi deb hisoblashimiz shart. Bobokalonimiz ijodida unisi ham, bunisi ham uchraydi. Avval o'sha o'z ma'nosida qo'llangan asarlariga to'xtab o'taylik. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarida tasvirlanishicha, Sayyid Hasan Ardasher xos ma'naviy suhbatlar chog'ida bodaxo'rlik qilishni xush ko'rganlar. Lekin har gal ichkilikbozlikdan keyin Yaratganga iltijo qilib, mayxo'rlikdan tadbaberishini so'raganlar... Bu yerda o'z ma'nosidagi mastlik ko'zda tutilgan.

Navoiy zamondoshlariga yo'llagan xatlarini yig'ib, «Munshaot» nomi bilan to'plam qilgan. Shu asardagi hukmdorlardan biriga jo'natilgan maktubda ikki narsa maslahat tariqasida qattiq shart qilib qo'yiladi: birinchisi — Haq taolo amriga to'la itoatda bo'lib, buyurgan ishlarini so'zsiz bajarish; ikkinchisi — Tangri man etgan ishlar(nahy)ni qilmaslik. Odamlar ustidan hukm yuritish baxtiga muyassar bo'lgan kishi uchun Alloh amriga itoat etishda adolatga teng keladigani yo'q. Man etilgan ishlardan tiyilishning hech biri esa «*chog'ir tarkicha bo'lmay*». Navoiy bu gaplarning o'zi bilan ham cheklanib qolmaydi. Adolatning qadrini ham, may ichmaslikning foydasini ham Muhammad payg'ambarning so'zlari bilan mustahkamlab tushuntiradi:

Ana shunda bu parchadagi «*boda*» aslo o'z ma'nosida emasligini tushunib olish kerak. Adabiyotda islom ta'sirisiz ham dunyoviy ma'nodagi mastlik kayfiyatini tarannum etish, mayni ta'riflash bor edi. Tasawuf adabiyoti shu shaklni saqlab qoldi. Ammo endi mayni Xudoga ishqning timsoli qilib oldi. Shuning uchun tasawuf she'riyatida ham shaklan, ya'ni tashqi tarafdin aynan dunyoviy adabiyotdagidek may va mastlik tilga olinaveradi, mohiyatida esa ilohiy ishq ko'zda tutiladi. Boda kelgan uyga qayg'u kelmasligining dunyoviy asosi bor: ichgan kishining, sun'iy ravishda bo'lsa ham, kayfiyati ko'tariladi, qayg'usi, vaqtincha bo'lsa ham, esdan chiqadi. Tasavvufiy ma'noda esa Yaratganning ishqini bilan kuyib-yonib yashayotgan kishining g'am chekishiga o'rin qolmaydi. Shuning uchun ham lirik qahramon yorining kelmaganiga, ochiqroq ifodalaganda, bu dunyoda Alloh vasliga yetolmayotganiga ko'p ham g'am chekavermay,


Yaratgan zotni sevishini davom ettiraversin, shunda barcha kulfatlar bartaraf bo'laveradi... Shoirning may, sharob, boda, chog'ir haddi a'losida ta'riflangan she'rlari shu qadar ko'pki... Bayt — asli oshiqona g'azalning maqta'si. Lekin boda tilga olindimi, demak, g'azalga rindonalik

ruhi ham qo‘shildi. May ta‘rifida kelgan g‘azallar *rindona g‘azallar* deyiladi. Ulug‘ shoir asarlari mohiyatini tushunib olishga qiynalmaslik, xususan, so‘zlarning o‘z ma‘nosi bilan ko‘chma, ya‘ni badiiy ma‘nosini tushinishda adashib ketmaslik uchun shoirning timsollar olamidan boxabarlik talab etiladi. Demak, Navoiy asarlari mag‘zini chaqishda ilm juda kerak. Bu shoirning o‘ta mashhur g‘azallaridan hisoblanadi. Hozirgacha ham qo‘shiq qilib kuylanadi. Ko‘p hofizlarimiz shu g‘azal ijrosida o‘z kuchini sinab ko‘radi. G‘azal mashhur «Munojot» kuyi bilan aytiladi. Kuyda haqiqiy yor, ya‘ni Alloh vasliga yetolmaslik dard-u g‘ami, iztirobi aks etgan.


Har qanday she‘riy asarni quyidagicha tasniflash mumkin: o‘rgan-ganda, sevganda u ta‘siri beqiyos mo‘jizaga, dono maslahatch-iga, insoniy ezgu tuyg‘ularning buyuk tarbiyachisiga aylanadi. Faqatgina ana shu tushuncha. Haqiqat borlig‘icha namoyon bo‘lishiga to‘liq tasav-vur bersin degan asosda biz uni qismlarga bo‘lib o‘rgandik; har bir badiiy unurning asosiy vazifasini aniqroq tahlil qilishga intildik. Aslida asar mazmuni va shakli vobasta bo‘lganda yaratuvchanlik qudratiga ega bo‘ladi, ajralganda ikkalasi ham o‘ladi, yaratuvchanlik kuchidan tamoman mahrum bo‘ladi. Bu haqiqat Mavlono Rumiya chiroyli ifodasini topgan: "Agar danakni chaqib, mag‘izini eksang, unmaydi. Agar qobig‘i bilan tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi yuz beradi". Demak, inson ruhi jismidek badiiy mazmun-u shakli ham doimo yaxlit bo‘lgandagina yangilik beradi, bunyodkor bo‘ladi, olamdan komil dunyolar yaratadi.

Soʻfiyona obrazlar tizimi.

1-ilova



2-ilova



Savol va topshiriqlar:

1. Mumtoz lirik janrlar haqida nimalarni bilasiz? Mumtoz sheʼriyat ramzlarini toʻliq tushunasizmi?
2. Soqiy deganda nimani nazarda tutish lozim?
3. Nima uchun mumtoz shoirlarda “may”, “boda” soʻzlari koʻp uchraydi?
4. Gʻazal qofiyalari har doim qatʻiy bir oʻrinda keladimi?
5. Taxallus hamma lirik janrlarda qoʻllanadimi?

QASIDA JANRI. MUMTOZ VA ZAMONAVIY QASIDALARNI ENG ZAMONAVIY ILMIY-AMALIY METODLAR YORDAMIDA O‘QITISH

V.G.Belinskiy yozganidek, «Lirik asarning mazmuni ob'yektiv voqeaning taraqqiyoti emas, sub'yektning o'zi va u orqali o'tgan hamma narsadir. Kishini mashg'ul etgan, to'qinlantirgan, shodlantirgan, qayg'uga solgan, zavqlantirgan, tinchitgan, hayajonlantirgan nima bo'lsa, qisqasi, subyektning ma'naviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyekt ichiga nima kirsam, unda nima paydo bo'lsa, shularning barchasini lirika o'zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi»¹.

Demak, lirikaning bosh xislati shoir qalbida yuz beradigan kechinma, shu kechinma uyg'otgan tuyg'ularni so'z orqali voqe qilish san'atidir.

1. Muallifning hayotga munosabati nuqtai nazaridan. San'atkor «o'z shaxsini o'zgartirmasdan, o'z-o'zligicha qoladi» (*Aristotel*). «Bunda poeziya ichki dunyo elementida, sezuvchi va fikrlovchi xayol doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib, o'z ichiga o'zi yashirinadi va tashqi dunyoni o'zida aks ettirgan ichki hayotning mislsiz jilo va jilvalarini poeziyaga hadya etadi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi planda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat va faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz» (*V.G.Belinskiy*). Bu shaxsiylik, sub'yektivlikdir.

2. «Vaqt hissi» nuqtayi nazaridan. Lirik asarni:

Sensiz menga sabrdan o'zga nuqson yo'q,

Dilda hijroningdan o'zga armon yo'q,

Jonimda shu darddan o'zga xirmon yo'q,

Yo'q, yo'q, sabr ham yo'q, dil ham yo'q, jon yo'q!

(*A.Navoiy «Devoni Foni»*)

deya o'qir ekansiz, bu dil izhori hozirgina qilinganday, hozirgina sodir bo'lib o'tganday taassurot qoldiradi. Uning qalbingizdagi harorati hali sovumaganday tuyuladi.

3. Hajmi va tashqi ko'rinishi jihatidan. Lirik asar eng kichik asardir, chunki u bir oniy tuyg'uning birvarakayiga hayajonli tarzda ifodasidir. Tashqi ko'rinishi misralardan, baytlardan iborat, muayyan vaznga solib yo-zilganidan musiqiy bo'ladi.

¹ Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. –M.: 1972., 184-bet.

4. Xarakter. Hayot go‘yo bir azim daryo bo‘lsa, lirika ana shu azim daryoning sekin va sokin joylariga nazar tashlaydi (*I.Sulton*). She‘r bir oniy fikr va hisning mahsuli, mahsuli bo‘lganda ham yaxlitligi — jonliligi bilan maftun etuvchi, ohangi bilan dilni qitiqlovchi bo‘lgani sabab — bir zumlik «harorat» bilan uzoq yillarni, qalblarni «isitadi», boyitadi, orzularga qanot beradi, ishonchlarni mustahkamlaydi. Lirik qahramon «shoir shaxsi bilan estetik idealining quymasi» ekan, ular doimo yaxlitlashganda, musiqiylashganda, samimiylashganda ta’sir-dordir, jozibadordir.

5. Syujet. Lirik qahramon tarixi (konkret har bir she‘rdagi kechinma – obraz tarixi)ning mavjudligi lirikadagi syujetni voqe qiladi. Lirik asar bir oniy kechinmaga suyangani uchun ham undagi syujet eposdagi kabi «voqealar silsilasi» tarzida namoyon bo‘lmaydi, balki u oniy-ruhiy harakat tarixi ifodasi tarzida yuzaga chiqadi.

Syujet adabiyotning uchinchi elementi va usiz badiiy asar bo‘lishi mumkin emasligi qoidasini eslasak, demak, lirikada syujet o‘ziga xos bo‘ladi. O‘ziga xoslik lirikaning subyektivlik mohiyatidan, lirik qahramonning dunyosidan kelib chiqadi va har bir lirik asarda ifodlangan oniy - ruhiy kechinma tarixi boshlanishi, rivoji, xulosasi bilan o‘lchanadi. Nodir Jonuzoq to‘rtligining birinchi bayti:

*Bir xabar ilgadim sahargi yeldin,
Chiqqanmish qachondir Majnun bu eldin,—*

degan fikr-xabar berilsa, keyingi baytda:

*Yo Olloh, nahotki anglamadilar —
Usoyam edi-yu... men endi keldim!*

tarzida fikrga yakun beriladi.

Demak, lirik qahramon kechinmasining bir oniy parchasiga joylangan tarix, garchi kechinma harakati siqiq va oddiy bo‘lsa-da, ushbu asaming syujetidir.


Qasidalar biron-bir voqeaga yoki odatda ko‘pincha tarixiy shaxslarga balishlab yaratilgan. Qadimda ta’kidlashlaricha dastavval qasida rivojlangan. Undan esa keyinchalik g‘azal o‘sib chiqqan. Lekin keyinchaik har ikkisining tasvir ob’yekti ancha o‘zgarib ketdi. Qasida hamon o‘zining mavzu, g‘oyasi, tantanavor-ko‘tarinki uslubidan voz kechmagan esa-da, g‘azal tamoman boshqa — oshiqona yo‘nalishga o‘tib ketgan.

Aytish joiz qasidalar katta ijtimoiy vazifalarni ham bajargan.

Ogahiyning Foeruzga bag‘ishlangan “Qasidai nasihat”ini eslashni o‘zi kifoya.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlarning vatan mavzusidagi qasidalari juda mashhur sanaladi.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA DOVRUG‘ QOZONGAN MASHHUR QASIDANAVISLAR



Savol va topshiriqlar:

1. Navoiy qasidalari haqida bilasizmi?
2. Sakkokiyning qasidalari kimga bag‘ishlangan edi?
3. Qasida moddalari qaysilar?
4. Hamid Olimjonning “O‘zbekiston qasidasi qaysi misralar bilan boshlanadi?

DIDAKTIK ADABIYOT. PANDNOMA ASARLARINI O'RGANISHDA MUMTOZ VA HOZIRJAVOB METODLAR

«Didaktika» yunoncha «*didakticos*», ya'ni «*ibratli*» degan so'zdan olingan. Demak, «*didaktik adabiyot*» deganda nasihat, o'git, ibrat ruhidagi asarlartushuniladi. Bu Sharqda ham, G'arbda ham bo'lgan. Sharq so'z san'atida pand-nasihat ruhi ustunroq, ochig'i, u shunisi bilan G'arb adabiyotidan farq qiladi ham. X asrdayoq buyuk Abu Ali ibn Sino Sharq ko'proq nasihat yo'li bilan G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini max-sus qayd etib o'tgan edi. Og'zaki va yozma adabiyoti, diniy merosi pand va hikmatga o'ta boyligi uchun ham Sharqni jahonda donishmand deb bilishadi. Bizda she'riyatning bu darajada ravnaq topib, xalq orasida katta mavqe egal-lashiga sabab bo'lgan omillardan biri ham shu. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov: «*Sharqqa she'riyatni o'rgatib bo'lmaydi*», – deganida ham aynan shu jihatlarni ko'zda tutgan.

Adabiy shakliga ko'ra, quydagicha nisbiy tasnif qilish mumkin:

1. Nasriy didaktik asarlar:

Masalan, milodiy IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur «Panchatantr», ya'ni keyinchalik «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo'lib ketgan buyuk didaktik asar dunyoga keladi. Uning butun Sharq, qolaversa, jahon adabiyotigakatta ta'siri bor. Bu kitob asrlar mobaynida bir necha tillarga tarjima qilingan. Arab ertaklari asosida shakllangan «Ming bir kecha»da ham mohiyatan didaktik ruh juda ustun turadi. Keyinchalik Kaykovusning mashhur «Qobusnoma»si yozildi.

XVI asr o'zbek adibi Xoja (Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja) ning «Gulzor» hamda «Miftoh uladl» («Adolat kaliti») asarlari ham sof nasriy yo'lda bitilgan didaktik adabiyot namunalari hisoblanadi.

2. *Nasriy-she'riy didaktik asarlar:* Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning bag'oyat mashhur «Guliston» asari aynan shu guruhga mansub. U ham nasriy, ham she'riy, ya'ni aralash yo'lda bitilgan. Alisher Navoiy ham pandnoma ruhidagi «Mahbub ul-qulub» asarini aynan nasriy-she'riy shaklni o'zaro omixta qilib yozdi. Garchi majoziy timsollar,

hayvonlar, asosan, qushlar misolida bitilgan bo'lsa ham, Gulxaniyning «Zar- bulmasal»i ham didaktik adabiyotning ana shunday nas-

riy-she'riy, ya'ni aralash turiga kiradi.

3. *She'riy didaktik asarlar.*

Sharqda faqat nazmiy usulda yaratilgan maxsus didaktik she'riyat ham shakl-langan. Aytaylik, o'zbek mumtoz she'riyatida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bi-lig», Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy «Maxzan ul-asror»ini erkin tarji-ma qilish asnosida bitgan «Gulshan ul-asror», Alisher Navoiyning «Xamsa»ga birinchi asar sifatida kiritilgan «Hayrat ul-abror» dostonlari aynan o'zbek didaktik she'riyatining yorqin namunalari hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida axloqiy-ma'naviy fazilatlarining hayotiy hikoya-tasvirlar, mantiqiy tahlil xulosalar orqali berilishi, birinchidan, muallif nuqtayi nazarini nihoyatda tiniqlashtirib ifodalash imko-nini beradi, shu tariqa uning aynan qanday g'oyani ilgari surayotganini aniq bilib turasiz, ikkinchidan, bu ta'sirchanlikni sezilarli darajada oshiradi, uchin-chidan, ko'tarilgan masala-muammolar bugun uchun ham o'z ahamiyati, ya'ni dolzarbligini aslo yo'qotmaganidan dalolat beradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham didaktik ruhdagi asarlar yaratilib turadi. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Shukurullo qalamiga mansub «Javohir-lar sandig'i» aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. U nasriy yo'l bilan bitilgan.

Didaktik adabiyot - badiiy ifodalangan pand-nasihat tarzidagi adabiyot. Bunda axloqiy-ta'limiy, ilmiyfalsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi. Didaktik adabiyot ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi (mas, "Qobusnoma"). G'arb va Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida didaktik adabiyot uzoq, tarixga ega. Didaktik adabiyotga doir ilk namunalar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning dastlabki yirik namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostonlaridir. Bu asarlarda xalqning adolat, ma'rifat, axloq, odob haqidagi qarashlari, pand-nasihatlari she'riy shaklda bayon etilgan. Didaktik adabiyotdan ijtimoiy, falsafiy, ilmiy qarashlarni ommalashtirish vositasi sifatida ham foydalanganlar (mas, Ibn Sinonpnt tabobatga oid "Urjuza" she'riy asari). Didaktik adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlardan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy Sulaymon, So'fi Olloyor, Huvaydo, Haziniy kabi tasavvuf namoyandalari ham samarali foydalanganlar.

XX asr o'zbek adiblari Behbudiy, Ayniy, Avloniy va boshqalar ijodida pandnasihatga alohida ahamiyat berilgan. Ularning asarlarida, maktablar uchun qo'llanmalarida ta'limtarbiyaga oid didaktik adabiyot namunalari ko'plab uchraydi.

Davr va g'oyaning, jamiyat va odamlarning estetik ehtiyojlaridan kelib chiqib, adabiyotshunoslik ilmining bugungi qiyofasini kashf etish qadimdan qolgan an'anadir. Albatta, bu an'ana yangicha ilmiy tafakkurga, navbatdagi bosqich harakatdagi estetika talablariga javob berishi uchun shu sohada hozirgacha erishilgan yutuqlar, tajribalar, saboqlar umumlashtirilishi, sintezlashtirilishi lozim. Va ularning cho'qqisida turib adabiy-nazariy qarashlarning kashfi, adabiyotning siru asrori, adabiy jarayonning rivoji tamoyillari haqida mushohada yuritish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek adabiyotshunoslarining, qolaversa qardosh va jahon adabiyoti olimlarining asarlariga, manbalariga, darsliklariga, qo'llanmalariga tayanib ushbu tadqiqotni bunyod etdi. Bu bunyodkorlikka adabiyotshunoslarning barchasi hammuallif kabi daxldordirlar, har birlarining hissalarini bordir. Faqatgina muallifning «o'zligi» — bilganlari, his etganlari, anglaganlari, orzulari, umidlari ularni yaxlitlashtirdi — «Adabiyotshunoslik nazariyasi» darsligi yaratildi. Adabiyot — bir butun, yaxlit hodisa, jonli vujud.

XII asrga kelib bir talay adabiy hodisalar yuz berdi. Shulardan eng ahamiyatliilaridan biri bu — Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi ayniqsa diqqatga sazovor adabiy hodisa sifatida mashhur bo'ldi. Unda asosan to'rt qahramon atrofida bo'lib o'tadig o'zaro suhbatlar beriladi. Asosan didaktik (pand-nasihat) ruhdagi bu suhbatlarda juda ko'p mavzular tilga olinadi. Jumladan: adolat, tinchlik, xalqparvarlik, xalqqa g'amxo'rlik, hayot, umr qadri kabui va hokazo. Ma'lumki, «Didaktika» — nasihat degani. Ya'ni bu turdagi asarlarda pand-nasihat g'oyasi yetakchilik qiladi. Bularga «Hibatulhaqoyiq», «Qutadg'u bilig», «Devoni hikmat» kabi asarlar kiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Didaktik adabiyot nima, u qanday o'ziga xosliklarga ega?
2. Didaktiklik xususiyatiga ko'ra, Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasidagi o'x-shashlik va farqli tomonlar nimalarda ko'rinadi?
3. Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida didaktik asarlarning qanday turlari bor?

YODNOMALAR. “BOBURNOMA” ASARINI O‘QITISHNING MUHIM METODOLOGIK JIHATLARI

Zahiriddin Muhammad Bobur «Chig‘atoy sultonlarining eng sara-si va zo‘r shijoatlisi edi» Hasanxo‘ja Nisoriy «Bobur-dilbar shaxs. Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlariga ega bo‘lgan». Javoharlal Neru.

«Bobur Mirzo so‘z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o‘zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o‘g‘li Humoyunga “Boburnoma”ni tugallab taqdim etganda unga bir ruboiy ilova qiladi;

*Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu vaqoyi‘ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranju ne mashaqqatu ne g‘amlar ko‘rdum.*

«Vaqoyi’» - «Boburnoma»ning dastlabki nomi edi. Bobur o‘z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko‘rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko‘rsatiladi. Uning eng zo‘r istagi «Vaqoyi’»ni o‘qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar.

Yirik Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning Mironshoh degan o‘g‘li shajarasidan tarqalgan bo‘lib, uning beshinchi avlodiga mansubdir. V sinf o‘quvchilari darslikdagi shoir haqida berilgan qisqa ma’lumotni tezda o‘qib, o‘rganib olishadi. Boburning o‘zbek xalqining buyuk o‘g‘loni ekanini anglatish uchun Prezidentimizning quyidagi so‘zlarini oldindan yirik harflar bilan yozib osib qo‘yish joizdir: “Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O‘zbek xalqining dovruq‘ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan o‘laroq, ul zot bizni o‘tmish tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatdi”.

Keyin esa shoir hayotidagi eng muhim sanalarni ko‘rsatuvchi jadvalni bolalar e‘tiboriga havola qilish yana ham yaxshi natija beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodiga oid muhim sanalar:

- 1483 yil 14 fevralda Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona viloyatining poytaxti Andijon shahrida tug‘ilgan;
- 1488 yilda Bobur birinchi marta Samarqandda bo‘lgan va bu shahar bilan tanishgan;
- 1494 yil 6 iyulda Bobur Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘ldi;
- 1496 yilda Bobur shoirlar Muhammad Solih va Binoiy bilan ko‘rishgan;
- 1497 yil oxirida Bobur birinchi bor Samarqandni qo‘lga kiritgan;
- 1500 yilda Bobur ikkinchi bor Samarqandni egallagan. U Alisher Navoiy bilan maktublar yozishadi;
- 1503 yilda Bobur Afg‘onistonga ketadi;
- 1504 yil sentyabrda Bobur Qobilni egallagan. Shu yili u “Xatti Boburiy”ni ixtiro qilgan;
- 1506 yilda Bobur Hirot shahriga Husayn Boyqaroning ta’ziasiga boradi va Alisher Navoiy qurdirgan barcha binolar bilan mufassal tanishib chiqadi;
- 1508 yil 8 martda Boburning Humoyun nomli o‘g‘li tug‘ilgan;
- 1511 yilda Bobur Samarqandni uchinchi marta egallagan;
- 1519 yil iyulda Bobur Samarqand shahridagi Fulod Sultonga o‘zining devonini yuborgan;
- 1528 yil 27 dekabrda Bobur Hindistonda yaratgan she’rlari “Hind devoni”ni tugatgani haqida dastxat chekadi. Bu dasxat-avtograf Boburdan bizgacha yetib kelgan yagona nusxadir;
- 1530 yil 26 dekabrda Bobur Agra shahrida 47 yoshida vafot etgan;
- Boburdan 4 o‘g‘il-Humoyun, Komron, Askariy, Hindol; Uch qiz-Gulchehra, Gulrang, Gulbadan tug‘ilgan.

Ushbu ma’lumotlardan so‘ng shoirning ruboiylari tahliliga asosiy o‘rin ajratiladi. Ruboiylar tili ancha murakkab bo‘lib, darslikda lug‘at berilgan. Ammo, qiyin so‘zlarning barchasi lug‘atda qamrab olinmagan. Shu sababli tubandagi so‘zlarni ham albatta sharhlash lozim:

*“Vaqoye” –Boburnoma,
Turfa-turli, g‘aroyib,
Chu-shu sababli.*

Zahiriddin Muhammad Bobur yug‘onish davrining yirik vakili. Afg‘oniston va shimoliy Hindistonni birlashtirib, yagona markazlashgan

davlat tuzgan daho. Barcha davrlar ulugʻlari qatorida sanaluvchi alloma ijodkor bizning vatandoshimiz ekani dillarimizga fix tuygʻusini soladi. Dunyo fothlari orasida oʻzi haqida rost soʻzlarni yozish oʻta kam uchraydigan noyob hodisa.

Bobur yozgan edi:

*Har qachon koʻrsang soʻzumni,
Soʻzumni oʻqub anglagaysan oʻzumni.*

Darhaqiqat, "Boburnoma" adib haqida barcha ma'lumotlarni jamlagan. Bunaqasini birorta tarix kitobida ham topolmaysiz.

Ma'lumotlarga qaraganda "Vaqoye"da 1560 ta inson nomi tilga olingan. Bu asar adabiy, tarixiy, geografik, etnografik va boshqa fan sohalariga oid ma'lumotlarni jamlagan. Va bularning hammasini roʻyi-rost Boburning oʻzi yozgan.

Zahiriddin Munammad Bobur mashhur vatandosh allomalarimiz kabi koʻp sohalardan chuqur xabardor boʻlgan. Asarda muhim jihatlar koʻp.

Ularni quyidagicha shartli guruhlash mumkin:

1. Joy nomlari taʼrifi.
2. Tarixiy shaxslar taʼrifi.
3. Badiiy ijod haqida.
4. Milliy urf-odatlar haqida.
5. Harbiy sir –asrorlar haqida.
6. Maishiy hayot lavhalari.
7. Boshqaruv tizimi haqida. Oila, ota va farzandlar munosabatlari haqida va hokazo.

Koʻrinadiki, muallif juda koʻp sohalardan ma'lumot bermoqdaki, shuni oʻzi ham asarning har tomonlama qimmat kasb etganini bildiradi. Bu kitobdan Shayboniyxon, Rono Sango, Ibrohim Lodi kabi sarkardalar bilan katta-katta jang tafsilotlarini, jahonga mashhur "Koʻhinur" olmosi sarguzashtini, savafiylar bilan ogʻriqli kelishuvlar tafsilotlarini va yana koʻplab ma'lumotlarni olishingiz mumkin.


Bobur sheʼriy devonlari ikkita. Hind va Kobul devonlari. Sheʼrlarining umumiy salmogʻi 400 dan ortadi. Lekin bularning bari qalb harorati bilan yozilgan bitiklar.


Dunyoning juda koʻp mashhurlari Zahiriddin Muhammad Bobur

shaxsini, uning ijodini, "Boburnoma"ni tan olishgan. Bobur she'riyati eng dardchil, eng ta'sirchan she'rlardan ekanligi barchaga ma'lum.

O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishda nisbatan eng ko'p manba va ma'lumotlar saqlangan adib bu -Zahiriddin Muhammad Bobur sanaladi. Chunki u haqda eng asosiy manba bu - "Boburnoma" dir. Bundan tashqari O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimgul Qodirovning " Yulduzli tunlar" ("Bobur") asari ham kitobxonga yaxshi ma'lumot beradi: Undan tashqari Bobur va boburiylar haqida o'zimizda va xorijda manbalar juda ko'p.

Adabiyot darslarida har doim ijodkor biografiyasini o'rganish muhim faktlarga e'tibor garatish muhim. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida Hidistoni zabt etgach, xursandlik hamda tushkun holatlarida bitdgan ko'plab ash'orlar bor. Ana shularni she'r tahlili bilan bog'lab tahlil qilish yaxshi samara beradi. O'quvchi ong- shuurida chuqur o'rnashadi.





Bobur Mirzo

Shayboniyxon

Yaxshi-yomon 240 nafar
navkar

5-6 minglik ko'p sonli
qo'shin

Tajribasiz yosh sarkarda

Katta tajribaga ega yoshi
ulug' hukmdor

Boshqa temuriyzodalardan
yordam bo'lmadi

Shayboniyxonddek ulug'
hukmdorga qarshi chiqishga
hech kimning haddi sig'masdi

Bobur Mirzo sovuq qish
kunlarida qo'rg'on
tashqarisida edi

Shayboniyxon qo'rg'on
ichida edi

Shuningdek, Bobur biografiyasida **imperiya** degan so'z bor. Bu so'zga ham yirik, **ko'p millatli davlat** tarzida sharh berish lozim. Ma'lumki, Bobur ruboiylari real hayotning badiiy ifodasidir. Shu sababli ularda shoir hayoti bilan bog'liq Vatan sog'inchi, hijron azobi, afsus-nadomat, jabru jafo kabi motivlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada "Tole' yo'qi..." deb boshlanuvchi ruboiy ayniqsa xarakterli bo'lib, uni muallim Bobur hayoti bilan bog'lab keng va batafsil tahlil qilishi shart.

Dars jarayonida darslikda koʻzda tutilganidek ruboiy janri haqida nazariy maʼlumot beriladi. Bu janrning oddiy toʻrtlikdan farqini misollar yordamida ochib berish zarur.

Darslikdagi nazariy maʼlumotda qayd qilingan “xos hol”, “xos maʼno” birikmalarining mazmunini yoritish lozim.

“Xos hol” shuki, ruboiy albatta a,a,b,a tarzida qofiyalanishi shart. “Xos maʼno” shuki, ruboiylarda tabiat va jamiyat bilan aloqador ijtimoiy-falsafiy gʻoya ustuvor boʻlishi kerak.

Boburning “Har kimki...” deb boshlanuvchi ruboiysiga razm solsangiz uning aforizm darajasiga koʻtarilganiga qanoat hosil qilasiz.

Albatta, oddiy xalq qoʻshiqlarining ham toʻrtlik shakli ruboiy tarzida qofiyalanishi mumkin. Ammo ulardagi maʼno koʻproq his-hayajon bilan aloqador boʻladi. Oʻqituvchi ruboiyga xos xususiyatni ochib berish uchun albatta bitta-ikkita toʻrtlikni misol tarzida keltirib qiyosiy tahlil qilsa yanada tuzuk boʻladi.

Bobur ijodini oʻrganish jarayonida koʻrgazma material sifatida uning asarlariga ishlangan minnatyuralardan foydalanish mumkin. Shuningdek, Bobur gʻazallariga aytilgan ashulalar eshittirilsa yanada yaxshi natija beradi. Albatta dars nihoyasidan soʻng bolalarga shoir ruboiylaridan ayrimlarini yodlash vazifa qilib berilsa, oʻquvchilar ularni yod olib hamisha lozim boʻlgan paytlarda aytib yurishadi. Qolaversa mazkur ruboiylardagi gʻoya ularning hayotida oʻziga xos tarbiya maktabi boʻlib xizmat etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Zahiriddin – nima degani?
2. Bobur vatandan oʻz ixtiyori bilan chiqib ketganmi?
3. Uning vatanda qolsa nimalar qila olishini ayta olasizmi?
4. “Boburnoma” qaysi mamlakatlar haqida maʼlumotlar beradi?
5. Boburning oʻzbek mumtoz adabiyotiga qoʻshgan hissasini qanday tushunasiz?
6. Bobur gʻazal va ruboiylaridan yoddan aytib bera olasizmi?

HAJVIYALAR. HAJVIY ADABIYOTINI O'QITISHNING MAQBUL METODLARI

Hajviya – badiiy adabiyot turlaridan; satira va yumor. Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo'ladi. O'tmishda Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek adabiyotida, asosan, she'riyat va folklorda mustaqil janr sifatida rivojlangan. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi. Hajviyada tanqid qiluvchi ob'yektga qaratilgan kinoyaviy masxaralovchi yoki fosh etuvchi kulgi asarning g'oyaviy mundarijasini va badiiy vositalarini belgilaydi. Hajviya turli janrlarda yozilishi mumkin. Masalan, "O'lik jonlar" (N.V.Gogol) hajviy roman shaklida, "Maysaraning ishi" (Hamza), "So'nggi nusxalar" (A.Qahhor) hajviy pyesa shaklida, "Yovuz niyatli kishilar" (A.Chexov), "Sudxo'ring o'limi" (S.Ayniy), "Qabrdan tovush" (A.Qahhor) hajviy hikoya shaklida, "To'yi Iqon bachcha" (Muqimiy), "Hajvi yikchi eshon" (Zavqiy) hajviy she'r shaklida, "Bizning mulohazalarimiz" (A.Qahhor) hajviy felyeton shaklida yozilgan.

Hajviy asarlarda voqeani bo'rttirib tasvirlash, mubolag'a va fantaziyadan keng foydalanish xarakterli. Hajviya jamiyat hayotidagi ayrim illatlarni yo'qotishga, kamchiliklarni tuzatishga, oldini olishga xizmat qiladi.

Badiiy asarlar uchta katta guruhga – **epik, lirik hamda dramatik turlarga** ajraladi. Epik, lirik va dramatik asarlar, avvalo o'zlarining nutqiy shakllanishi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, epik asarlar asosan sochma-nasriy yo'l bilan yoziladi. Har bir adabiy tur o'z ichiga qator janrlarni jamlaydi. Hayot hodisalarini badiiy qamrash ko'lami nuqtayi nazaridan epik janrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Kichik epik janrlar: latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, badia, etud, ocherk, esse.

2. O'rta epik janrlar: qissa (povest).

3. Katta epik janrlar: epos, epik doston, roman, epopeya.

Latifa arabcha - *nozik, yoqimli, zarij*. Xalqning o'tkir mushohadasi asosiga qurilgan yoqimli va nozik kulguli eng kichik va nodir „hikoya“ („zarifa“, „ajiba“) sidir. Latifaning eng muhim xususiyatlaridan yana biri undagi konfliktning ikki (ijobiy va salbiy) qutbliligidir, uning yorqin, bo'rtib ko'rinishidir; „boshqacha bo'lishi mumkin“, degan tus hunchaga o'rin qoldirmasligidadir.

Masal (arabcha - *namuna*) voqelikni *allegorik (kinoyaviy)* va *simvolik (ramziy)* obrazlar yordamida ifodalovchi, real turmush va odamlarning ko‘rinishlari, xarakter qirralarini kinoya, kesatish, kulgu, g‘azab kabi xususiyatlar vositasida ochuvchi epik janrdir. U masal-hikoya, masal-ertak, masal-felyeton. masal-pamflet, masal-epigramma ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Hikoya. Abdulla Qahhomning “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri” kabi asarlari hikoya janri talablariga to‘liq javob berishi bois, ular *mumtoz hikoyalar* sanaladi.

Asotirlar ertaklarga yaqin turadi. Ularning har ikkisida ham fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi. Qahramonlarga g‘ayriodatiy sifatlar «yuklanadi». **Rivoyatlar** esa tarixga yanada yaqin turadi.

Povest so‘zining lug‘aviy ma‘nosi ruscha so‘z bo‘lib, *hikoya, rivoyat qilish* demakdir. Povest o‘zbek adabiyotshunosligida “Qissa” deb yuritiladi.

Epos yunoncha “epos” so‘z, nutq, hikoya ma‘nosini anglatadi.

Epopeya yunoncha “epopia” - rivoyatlar, qo‘shiqalar majmuyi ma‘nosini anglatadi.

Ko‘ryapsizki, qissa janri ham mazmunan, ham shaklan o‘rtaliqda joylashgan. Unda qamrab olinadigan voqealar ko‘lami, qahramonlar ishtiroki talqin etish mo‘ljallangan muammolar hajmi hikoyanikidan katta bo‘lsa, romannikidan kichkinadir. Masalan Siz 5-sinfda o‘rgangan Abdulla Qodiriyning «Uloqda» G‘afur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyalari doirasiga qamrab olingan mazmun-mohiyat G‘afur G‘ulomning «Shum bola» qissasiga singdirilgan mazmun-mohiyatdan birmuncha kichikligini darrov ilg‘agandirsiz. Bu o‘rinda Sizni asarlarning hajmi aldab qo‘ymasligi lozim. Masalan. shunday hikoyalar borki, ulaming hajmi uncha-muncha qissanikidan kattaroqdir. Va aksincha, shunday romanlar yoziladiki, ularning hajmi qissadan kichikroq bo‘lishi mumkin. Bu yerda gap, boya aytganimizdek, yozuvchi tomonidan asarga singdirilgan mazmun-mohiyat ko‘lamidadir. «Mening o‘g‘rigina bolam» degan ikki betlik hikoyadagi mazmunni noshud yozuvchi ellik betlik hikoya yoki yuz betlik qissada bera olmasligi ham mumkin. Ayrim yozuvchilarning yostiqday romanlari borki, ulardan «Shum bola» qissasi bergan taassurotni mutlaqo topa olmaysiz. Demak, har qanday janrning muvaffaqiyatini yozuvchi tafakkur darajasi belgilaydi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Siz turli-tuman qiziqarli hodisalarga boy sarguzasht asarlarni ozmi ko'pmi o'qigansiz, albatta. Aslida sarguzasht deb boshdan kechirilgan, voqealarga aytiladi, biroq adabiy asardagi har qanday voqeani ham sarguzasht deyish mumkin emas. Sarguzasht asarda favqulodda qiziq va g'aroyib voqealar, o'quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko'p bo'ladi. Bunday asar kishini doim hayajonda ushlab turadi uni o'qiganingizda bu yog'i nima bo'larkin deya qiziqishingiz ortib boradi. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» kabi kitoblari ana shunday asarlardandir. Ularda qahramonlar ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealarni boshdan kechiradilar, dahshatli to'siqlarga duch keladilar. Bunday asarlarda biroz mubolag'a, biroz fantastik tasvir ustunlik qilgani tufayli ularni muxlislar boshdan oxir hayajon bilan o'qiydi.

O'zbek adabiyotida ham qahramonlar hayoti sarguzashtli kechadigan asarlar anchagina. Jumladan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini sarguzasht asarning mukammal namunasi desa bo'ladi. Unda Farhodning Axraman devni yengishi bilan bog'liq voqealar, Yosuman kampir kirdikorlari haqiqiy sarguzasht asarga xos tarzda tasvirlangan.

Keyingi davr adabiyotimizda yaratilgan asarlar, jumladan, Siz yuqorida tanishgan Xudoyberdi To'xtaboevning "Sariq devni minib" romani ham sarguzasht usulida bitilgan asar hisoblanadi. Unda 6-sinf o'quvchisi Hoshimjon Ro'ziyevning qilmishlari juda qiziqarli voqealar asosida hikoya qilinadi. Xudoyberdi To'xtaboevning "Sariq devni minib" romanida fantastik va detektiv holatlar uyg'unlashgan tarzda ifoda etilgan. Garchi asarda real voqealar tasvirlanayotgan bo'lsa-da, undagi fantastik, detektiv unsurlar romanni hayajon bilan o'qilishini ta'minlaydi.

Sarguzasht asarlar qiziqarli bo'lishi, ajoyib-g'aroyib voqealarga boy bo'lishi tufayli kitobxon dunyoqarashini, fantaziyasini o'stirishga xizmat qiladi.

Hajviy asar tanqidiy va kulgi uyg'otadigan badiiy asar hisoblanib, mazmuni va shakliga ko'ra satirik va yumoristik ruhda bo'ladi.

Hajviy asarlar jamiyat va kishilardagi salbiy jihatlarni tanqid qilish va fosh etish darajasiga qarab, satirik va yumoristik ruhda bo'ladi.

Muqimiy qalamiga mansub «Tanobchilar» she'riy hikoyasi satirik

asardir. Chunki unda tanobchilarning asl qiyofasi ayovsiz fosh qilingan.

Hajviy asarlarda jamiyat hayotidagi kamchiliklar, ayrim shaxslar fe'l-atvoridagi, xatti-harakatidagi qusurlar tanqid qilinadi, ya'ni kulgili qilib tasvirlanadi. Hajviy asarlar turli usullarda yozilishi mumkin:

- **She'riy hikoya**
- **Pyesa**
- **Hikoya**
- **Roman**

Muqimiyning «Maskovchi boy ta'rifida», «Saylov», «Dodhohim» va «Tanobchilar» asarlari she'riy hikoya tarzida yozilgan. Hamzaning «Maysaraning ishi», «Tuhmatchilar jazosi», Abdulla Qahhorning «Og'riq tishlar», Gogolning «Revizor» asarlari pyesa shaklida, Chexovning «Yovuz niyatli kishi», «Chiqdi», «Qiyshiq oyna», Abdulla Qahhorning «Adabiyot muallimi» hajviy asarlari hikoya janrida yaratilgan. Jahon adabiyotida Ilf va Petrovning «O'n ikki stul», «Oltin buzoqcha», Ne'mat Aminovning «Yelvizak» kabi hajviy yo'nalishda bitilgan romanlari ham mavjud.

Hajviy asarlarda jamiyatdagi illatlarni, yomon xulqli kimsalarning kirdikorlarini yaqqol fosh etish uchun voqealar bo'rttirib ko'rsatiladi, mubolag'a, fantaziya, sifatlash, o'xshatish, qarshilantirish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi.

Masalan, «Tanobchilar» satirasidagi tasvir vositalariga e'tibor beraylik:

*Sallalari boshlarida oq savat,
Ko'rpacha tagda hamavaqt uch qavat.
Birlari mo'ltoninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pix-u gavda har.* (Sifatlash)

*Sulton Alixo'ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun. birisi bo'ldi kuyav.
Osh yesalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja chiroq yog'i, Hakimjon pilik.* (O'xshatish)

*Og‘izlari maqtanib o‘n besh qarish,
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish. (Mubolag ‘a)*

O‘zgalarga rohat-u, menga azob. (Qarshilantirish)

Bunday tasvir vositalarini boshqa hajviy asarlarda ham ko‘plab kuzatish mumkin.

Jahon adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham hajviy asar yozma va og‘zaki adabiyotning mustaqil yo‘nalishi sifatida taraqqiy etib kelyapti.

Mumtoz adabiyotimizning Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Zavqiy;

Bugungi adabiyotimizning Said Ahmad, Ne‘mat Aminov, Anvar Obidjon kabi hajvchi adib va shoirlari ijodi buning yorqin misolidir.

Kulgi turli janrdagi asarlarda uchrashi mumkin bo‘lgan hodisa, holat. Biror voqea tarkibida yoki biror obraz tasvirida kulgi, kulgili holatlar bo‘lishi mumkin. Kulgi o‘z o‘rnida mahorat bilan, me‘yorli qo‘llanilsa, har qanday asarga hayotiylik, o‘quvchiga qiziquvchanlik, yengil kayfiyat bag‘ishlaydi. Bunday asarlarga kitobxon ehtiyoji ham katta bo‘ladi.

Odatda, mutaxassislar badiiy asardagi kulgini ikki yo‘nalishga ajratadilar — satira va yumorga.

Satira so‘zi yunoncha **turli**, **aralash** degan ma’nolarni anglatib, badiiy asarda keng ma’noda kishilardagi yoki ma’lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish. masxaralab bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladi.

Yumor ingliz tilidagi **namlik**, **suyuqlik** so‘zidan olingan bo‘lib, u keng ma’noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo‘zg‘ash, hazil-mutoyiba sifatida qo‘llaniladi. Bunda ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoyakesatidsiz do‘stona, xayrixohlik bilan kuladi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo‘lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hoziriavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiriladi.

Said Ahmadning Siz yuqorida o‘qigan ikki hikoyasi o‘sha ikki yo‘nalishda yaratilgan asarlardir. Jamiyatdagi turli illatlar. nuqson va kamchiliklar, odamlar o‘rtasidagi kulgili munosabatlar, har xil toifa xarakterlar mazkur hikoyalarning bosh mavzusidir.

Dramatik asarlarda, ayniqsa, komediya va tragikomediyalarda

kulgining ikki xil ko‘rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular xarakter kulgisi va holat kulgisidir. Ularning birinchisi asar qahramonlarining xarakteriga, tabiatiga xos bo‘lgan kulgi hisoblansa, ikkinchisi asarda tasvirlanayotgan vaziyatlar, holatlardan kelib chiqadigan kulgidir.

Rus yozuvchisi Gogolning «Revizor» komediyasida ko‘proq holat kulgisi;

O‘zbek dramaturgi Sharof Boshbekov qalamiga mansub «Temir xotin» komediyasining bosh qahramoni Qo‘chqor o‘z xarakterining bag‘oyat ajabtovurligi bilan har bir epizodning kulgili tus olishiga (xarakter kulgisiga) sababchi bo‘ladi.

Satirik obrazlar: Mulla Dilkash (“Hiylayi shar’iy”. *G‘.G‘ulom*).

Kalvak mahzum “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” *A.Qodiriy*
Qori Isbkamba (“Sudxo‘rning o‘limi”, *S.Ayniy*).

Yumoristik obrazlar: Mullado‘st (“Maysaraning ishi”, *H.H.Niyoziy*).

Hamrobuvi, Xolnisa (“Shohi so‘zana”. *A.Qahhor*).

Toshbolta (“Toshbolta oshiq”, *G‘.G‘ulom*).

Savollar va topshiriqlar:

1. Hajviya tushunchasiga izoh bering.
2. Hajviy asarlarning yaratilishiga nima sabab deb o‘ylaysiz?
3. Satira va yumor asarlarni bir biridan farqlab bering.

ZAMONAVIY MODERN O‘ZBEK SHE‘RIYATI NAMUNALARINI O‘QITISH METODOLOGIYASI.

Modernizm – falsafa, san‘at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama. Kunbotish mamlakatlarida XIX asrning so‘nggi choragida yuzaga kelgan va fransuzcha “eng yangi”, “zamonaviy” ma’nolarini anglatuvchi modernizm o‘zini o‘sha zamon hamda kelajakdagi yagona haqiqiy estetik va falsafiy yo‘nalish hisoblab, olamni falsafiy hamda badiiy idrok etish, izohlash va tasvirlash borasida mavjud bo‘lgan an‘anaviy yondashuvlarni inkor qilishi bilan ajralib turadi. Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o‘ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo‘sinini inkor etish yo‘lidan borgan g‘oyat ko‘p tarmoqli falsafiy-estetik hodisadir.

Modernizm klassik falsafadagi san‘atga real voqelikning in‘ikosi tarzida qarashdan voz kechib, borliqqa qat’iy bog‘lanib qolish san‘atkorni cheklab qo‘yadi, u o‘z o‘yu xayollari bilan voqelikdan tashqarida turganida ko‘proq ijodiy imkoniyatga ega bo‘ladi deb qaraydi. Realistik nazariya san‘atning yagona ob‘yekti borliq deb bilgani sababli ham undan yuz o‘girish kerak deb hisoblaydi. San‘at borliqning nusxasi emas, balki uning o‘zi alohida mustaqil borliq deb biladi. Modernistik adabiyot va san‘atning barcha yo‘nalishlarda yaratilgan asarlarda unga qadar qo‘llanib kelingan an‘anaviy badiiy vosita va usullar yo butunlay inkor qilinadi, yoxud ulardan tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgartirilgan holda foydalaniladi. Modernizmn-ing akmeizm, simbolizm, dadaizm, futurizm, imajinizm, syurrealizm, ekspressionizm, fovizm, shoizm, suprematizm, absurd kabi oqimlari turli ijtimoiy-ma‘naviy qalqishlar davrida yuzaga kelib, badiiy adabiyotda yorqin namoyon bo‘lgan yo‘nalishlardir. Ta‘kidlash kerakki, agar oldinlari bu xildagi ijtimoiy-axloqiy silkinishlar bashariyat uchun har zamonda yuz beradigan tasodifiy holat hisoblangan bo‘lsa, endilikda tobora doimiylik kasb etib bormoqda.

Modernistik hissiy-intellektual yondashuvga ko‘ra hayot hamisha tartibsiz va beboshvoq; inson tirikligining tiyiqsiz va tayinsizligi odamning hayotdan o‘z o‘rnini topolmay yolg‘izlanib qolishiga olib keladi; insonning hayoti yechimi hech qachon topilmaydigan ziddiyatlardan iboratdir. Bunday kayfiyat modernchi ijodkorlarda san‘at

hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, unga tartib va ma'no baxsh eta olmaydi degan umidsiz to'xtam shakllanishiga sabab bo'ladi.

Modernistik asarlarda qahramonning ichki monologi, uning o'ylari, iztiroblari tasvirining mavqei misli ko'rilmagan darajada o'sganligi badiiy yaratiqlarda muallif nuqtai nazari va uning nutqi ahamiyatining pasayishiga olib keldi. Modernistik adabiyot uchun hayot haqiqati va an'analarga muvofiq amalga oshirilgan tasvirga nisbatan olam hamda odamni o'z xohishiga muvofiq tarzda tasvirlay oladigan san'atkorning erkin nazari ustuvor hisoblanadi. Muallifning nimani nazarda tutgani emas, bitganida nimalar tasvirlangani muhim sanaladi.

Badiiy adabiyot uchta muhim elementdan tashkil topadi. 1-til, 2-mavzu, 3-syujet. Bu raqamlarni yana davom ettirish mumkin (xarakter, konflikt, g'oya, qahramon, tasvir, usul kabi). Ammo mavzusiz asar yuzaga kelmaydi, xuddi umurtqasiz organizmga o'xshab qoladi. Rus adibi M.Gorkiy aytganidek, "Mavzu muallif tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergan, ammo hozircha muallif tasavvurida hali to'la-to'kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlar orqali gavdalanitirishni talab qilib, yozuvchida ishlashga mayl uyg'otadigan g'oyadir" (M.Gorkiy. Adabiyot haqida. T., 1962. 241-b.). Mavzuni asar g'oyasidan ajratib bo'lmaydi, agar mavzu muallif tasvirlayotgan narsa, voqea, hodisa bo'lsa, g'oya ana shu ifodalanayotgan mavzu orqali aytilmoqchi bo'lgan fikrdir, yozuvchining xulosasidir. SHu ma'noda mavzu – bu yozuvchi tomonidan asarda qo'yilgan va aniq hayotiy materiallar asosida yoritilgan muammodir. Mavzu va g'oya asarning g'oyaviy – tematik birligini ta'minlovchi asosdir. Mavzu tushunchasi asarning butun mohiyatidan kelib chiqadi, g'oya esa yozuvchining miyasida etilgan asosiy fikrdir. Bu fikr ma'lum bir voqelik orqali badiiy obrazlar yordamida o'quvchiga etkaziladi. Badiiy asar mavzusini odatda voqelik belgilaydi. Mavzuning yoritilishi ko'p jihatdan san'atkor mahoratiga bog'liq. Bir mavzu turli adiblar tomonidan turlicha yoritilishi mumkin. O'quvchini qiziqtiradigan, davrning muhim va dolzarb mavzulari haqida yozish, mavzu tanlay bilish ijodkorning talantiga bog'liq.

Endi mavzu va g'oya birligi masalasini hozirgi o'zbek she'riyati misolida ko'rib chiqaylik. Shu narsa quvonchliki, mustaqillik davri o'zbek adabiyotida mavzu cheklanmagan, sho'rolar paytidagidek ta'qiqlangan mavzu yo'q. Ijodkor xohlagan mavzu bo'yicha asar

yaratishi mumkin. Faqat uning g'oyasi umumbashariy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lsin. Insonni yovuzlikka emas, ezgulikka chorlasin. Ijodiy erkinlik berilganligi tufayli hozirgi o'zbek she'riyatining mavzu ko'lami keng va rang-barangdir. Adabiyotshunos U.Hamdami "bugungi o'zbek she'riyati mavzularining ishlanish ko'lami va darajasiga qarab" quyidagicha tasnif etishni taklif qiladi:

- ishqiy intim mazmundagi she'rlar;
- intim mazmunli she'rlar (bularning farqi shundaki, birida oh-voh, tushkunlik ko'p; ikkinchisida – umidbaxshlik kuchli; yana ko'ngilning turfa intilishlari, faqat yor emas, ona, yurt, do'st va h.k.).

- madhiya – bag'ishlov she'rlar;
- uhroviy mazmundagi she'rlar (biz buni ruhoniylar she'rlari deb ataganmiz, ya'ni dunyoning o'tkinchiligi. Yaratganga iltijo, tavba – tazarru – Y.S.);

- tarixiy mazmundagi she'rlar;
- pand – nasihat she'rlar;
- Vatan va uning mustaqilligi haqidagi she'rlar;
- o'lim mavzusidagi she'rlar;
- boshqa har xil mavzudagi she'rlar;

Albatta, olimning o'zi aytganidek, bu tasnif g'oyat shartli bo'lib, uni yanada kengaytirish ham, qisqartirish ham, ba'zilarining o'rnini almashtirish ham mumkin. Bu mavzular orasida ishqiy hamda intim mavzudagi she'rlar salmog'i juda baland, hatto keyingi 20 yillik o'zbek she'riyatining asosiy qismini egallaydi. Ammo ularning ko'pchiligi o'ta sub'ektivligi, tushkun kayfiyatda yozilganligi, o'quvchini muhabbatning hayotbaxshligi, kuch-qudratiga ishonchini ottirishga o'rgatish o'rniga, nuqul hijron, yolg'izlik, bevafoqlik, yo'qotish, sarsonlikdan iborat oh-unolalarni ifodalayotgani ham sir emas (bu haqda qarang: Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. 158-168-b.). Binobarin, sevgi, vafo va vafosizlik, hijron va o'lim singari umuminsoniy mavzular hamma davrda ham bo'lgan, har bir davr kishisi sevishtirish, sevilishga, yig'lash yoki kulishga, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishga, bular to'g'risida o'ylashga, yozishga haqlidir. Biroq ushbu manguliklarga daxldor tuyg'ular, barqaror fikrlarni bachkanalashtirib, soxtalashtirib, nuqul ko'z yoshi bilan sug'orib ifodalashga har doim ham yaxshiliklarga olib kelavermaydi.

Istiqlol davri she'riyatining bosh maqsadi Vatanga sadoqatli barkamol

avlodni tarbiyalash, xalqning milliy ongini shakllantirish, o'zligini tanitish, erkin ruhni o'stirishdan iboratdir. Hozirgi paytda she'r haqidagi tasavvur ham, she'riyatga munosabat ham tubdan o'zgardi. Istiqlool she'riyati ham shakli, ham mazmuni jihatidan boshqacharoq sifat kasb eta bordi. Unda ijtimoiy tafakkur yuki ortdi. Bu borada ijodkorlarning o'rta avlodiga mansub toifa ibrat ko'rsatayotir. E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi, U.Azim, X.Davron, H.Xudoyberdieva, ularning izidan borayotgan S.Sayyid, I.Mirzo, M.Mirzo, A.Qutbiddin, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova, G.Begim singari o'nlab shoirlar ibrat ko'rsatmoqdalar. Shunisi muhimki, ularning she'rlari zamonning chirsillab turgan voqealaridan xoli emas, ayni chog'da qadim mumtoz she'riyatimiz an'analaridan ajralib ham qolgan emas.

Biroq shuni ham yashirmaslik joizki, mustaqillik davri adabiyotining ilk bosqichi (1990-2000)da g'oyadan, g'oyaparakstlikdan uzoqlashish sezildi. Bu adabiy hodisaning ikki tomoni bor: biri foydali, ikkinchisi zararli. G'oyadan voz kechishning foydali tomoni shunda ediki, o'zbek she'riyati istiqlool yillarida sovet davridagi singari g'oyaparakstlikdan qutildi. Ma'lumki, o'zbek "sovet" shoirlari kommunistik partiya siyosatini ulug'lashga, shiorlarni bayroq qilib olishga, kommunizmni madh etishga majbur edi. Insonning ko'ngli, tashvishi bilan mutlaqo ishi bo'lmasdi. Endi she'riyat hukmron g'oyadan, yagona etakchi mafkuradan qutilgach, bir muddat nimani kuylashni, qanday g'oyani ilgari surishni bilmay garangsib qoldi. Boisi, adabiyot paydo bo'lganidan beri, ayniqsa, chorak kam bir asr davom etgan sovet mustamlakachiligi davrida turli darajada, har xil shakllarda zimdan kuylab, intilib kelgan asosiy orzusi (erk mavzusi) – mustaqillik qo'lga kiritilgan, yurt ozodlikka erishgan, milliy g'urur tiklangan, xullas, muammolar hal qilingandi. Vatan ozod bo'ldi, maqsadga erishildi. Xo'sh, endi nimani kuylash, qanday g'oyani ilgari surish kerak? G'oyasizlik shundan kelib chiqdi.

Ammo bu g'oyasizlik uzoq davom etmadi. Ma'lum bir taradduddan so'ng shoir o'z "men"iga murojaat qildi. "Men"ning ichi – ko'ngil - dardga to'la edi, u juda zanglagan, diqqinafas bo'lgan edi. O'ziga e'tibor berilganidan quvonibmi, o'ksinibmi, oh-voh qila boshladi. Og'ziga kelganini ayta boshladi. Uni hamma ham eshitavermadi, chunki har kimning tashvishi o'ziga etarli edi. Umumning dardini tushunish, kuylash uchun ko'ngilni zanglardan, g'uborlardan tozalash

kerak edi. Ko'ngilga erishilgan maqsadning ulug'ligini, mustaqillikning shukuhini, uni mustahkamlash tuyg'usini, millatning ertangi qayg'usini, buyuk davlat yaratish orzusini singdirish zarur edi. Bora-bora bunga erishildi ham. Binobarin, she'riyat XXI asr boshlaridan to'la ma'noda yangilikka yuz o'girdi, unda tom ma'nodagi ijobiy, o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ko'z o'ngimizda yuz ochayotgan bu nafis olam – mustaqil yurt fuqarosining o'zligi, xalqning shakllanayotgan va tobora yangilanayotgan milliy ongi, madaniyati, qadriyatlarining tiklanish, ma'naviyati, milliy istiqlool g'oyasi singdirilgan mafkura bilan chambarchas bog'liq edi.

She'r bu – insonning qalbi, ruhi ekanligi amalda isbotlana boshladi. Qalb bilan ruh esa ilohiyatga tegishli, unga yondashdir. Yaxshi she'r yozilmaydi, balki tug'iladi, voqe' bo'ladi. Bu g'ayb ilmi bilan bog'liq bir sirli holatdir. Darvoqe, haqiqiy shoir ham bironing yo'l-yo'rig'i bilan emas, yaratganning amri bilan ijob qiladi. Shunga amal qilish asnosida shoirlar va she'rlar saralana boshladi. Binobarin, she'r yaratish baqiroqlik mahsuli emas, balki ibodat ekanligini, ijob bu sajdaga bosh qo'yishdek muqaddas holat ekanligini, huddi oyatlar mehr bilan shivirlab o'qilgani singari she'r ham suhbatdoshni yoningga chaqirib, “Dilingdagi sirni do'stingga ochmoq kabi qutlug' marosim” (X.Davron) ekanligini anglagan shoirlar ajralib chiqdi. Ular Vatan, millat, yor, inson, er, vafo, baxt, qayg'u to'g'risida bu so'zlarni ishlatmay ham shu qadar ehtiros bilan yozdilar ki, ularni o'qib, hayajondan o'zingizni bosolmaysiz, muhabbat iforidan boshingiz aylanadi.

Shunday shoirlardan biri hamyurtimiz Tursun Alidir. Uning she'rlari asosan Vatan mavzuiga bag'ishlanadi. Ammo ularning aksariyatida “Vatan”, “diyor”, “yurt” degan so'zlar, odatdagi otashin va yolqinli xitoblar, oh tortish, ko'ksiga urib baqirish uchramaydi. SHoir bu tuyg'ularini sekingina, ohista, bosiqlik bilan aytadi (shuning uchun ham kitobning nomi “Sokin hayqiriq” deb qo'yilgan). Ajabki, mana shu sokinlik bag'rida Vatanga muhabbatning o'chmas va qudratli olovi, tuyg'uni portlatuvchi atom zarrasi, kayfiyatni osmon qadar ko'taruvchi po'rtana yashiringan. Masalan:

Uyimdan uzoqda

biroq

yashayman uyimda.

Shunday satrlarni shu va boshqa shoirlar ijodidan toping va tahlil

qiling.

Shu bilan birga bu davr she'riyatida "Vatan! Men seni sevaman! Sensiz menga hayot yo'q!" deb baqirayotgan shoirlar ham ko'paydi (aslida u juda bemalol, beg'am-betashvish yashayotgan bo'ladi). Quruq dabdaba, ayyuhannos solish, baqirish – kuchsizlik belgisi ekanligini unutmaslik zarur. Vatanga muhabbat, yorga sadoqat singari ulug' tushunchalar haqida quruq safsata sotuvchi shoirlar nazarimda, bank xodimlariga o'xshaydi: kuniga qo'lidan behisob pul o'tadi-yu, unga ega bo'lolmaydilar. Chunki bu pullar o'ziniki emas-da! Pulning hidi na to'ydiradi, na sarxush qiladi; na rangining yuqi qoladi. Hozirgi shoirlar orasida qandaydir "she'rbozlar" ko'payib ketganga o'xshaydi. Ular hamma narsadan she'r yaratishga, o'quvchini hayratda qoldirishga urinayotgandek ohanjama usullarda, balandparvoz so'zlarda "shig'ir" bitishga urinmoqdalar. Vaholanki, ularning ta'sir kuchi kam, go'yo qog'oz gullardan yasalgan guldastaga o'xshaydi. Shalldiroq ovoz chaqiradi-yu, hidi yo'q, ko'rinishi g'oyat go'zal-u, tarovati yo'q.

Istiqloq davri adabiyotining ilk bosqichida xususiy matbuot va nashriyotlarning paydo bo'lishi va umuman, jamiyatda, fikrlashda oshkoralik, erkinlik turli darajadagi past-baland, qing'ir-qiyshiq, ko'pincha, o'ta sayoz asarlar oqimining paydo bo'lishiga olib keldi. Ba'zi qalamkashlar to'g'ridan-to'g'ri G'arb adabiyotiga taqlid qila boshladilar. Taqlidchilik esa ijodkorni hech qachon ro'yobga chiqarmaydi. Davrning o'zi shoirlardan yangi she'riy shakllarni talab qila boshladi. Bu talabga birinchi bo'lib E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdieva, O.Matjon, O.Muxtor, A.Obidjon kabi shoirlar javob berdilar. Masalan, insonning hijron va vafo sog'inchini bosiq ohanglarda kuylashga moslashgan g'azal janri E.Vohidov uchun zamonning o'ta siyosiy, isyonkor masalalarini keskin publitsistik ohangda bayon etishga xizmat qildi. Yoki A.Oripovning chuqur dard bilan sug'orilgan she'rlari istiqloq mazmunining kuchi bilan bir qadar qisqa va keskin shaklga kirdi. O.Matjon yurt ozodligi, xalq tafakkuridagi to'lg'oqlarni ifodalash uchun "Xamsa" shakllariga murojaat qildi. A.Obidjon esa she'riyatda mazmun va shaklning mutanosibligini o'zining usta Gulmat tilidan aytilgan g'azallari, bir satrdangina iborat "ignabarg she'rlar"i, ikki misradan tashkil topgan "fard"lar (raqamlar bilan belgilangan) shaklida bayon qildi. Siz uning ijodini amaliy mashg'ulotda o'rganganingizda ixcham shakllarda kuchli kinoya orqali zamon illatlari fosh etilganiga,

ya'ni mazmunning kichkina xumga solingan oltin singari yarqirab turishiga e'tibor bering. SHoir juda katta ijtimoiy mazmunni "ignabarg she'rlar"ida bir satrga, "fardlar"ida ikki misraga, "Uch chanoqlar"ida uch qatorga sig'dira olishning ustidan muvaffaqiyatli chiqa oldi. Ularni o'qigan o'quvchi chuqur o'yg'a toladi, fikrlaydi, xulosa chiqaradi. Buning uchun uning o'zi ham katta bilim zahirasi ega bo'lishi talab etiladi.

Masalan, mana bu satrlarni sharhlang-chi:

Qarmoq solsam, kulfat ilindi.

* * *

Uxlasa, sal halol yashaydi.

* * *

YOlg'on tarix shol qildi meni.

* * *

Qarz olsang, soqovdan ol.

* * *

Itni itga tishlatib, vaqti chog'dir itboqar,

Bo'ldi majruh ikki it, o'zi sog'dir itboqar

* * *

Kirib olding xonamga,

Hech bo'lmasa bolamga

So'yla mening tilimda

* *

Ochsam tarix kitobin,

Xo'jayin cho'zib oltin,

Der: "Qilsang-chi maishat!"

Bu ixcham shakllarda bayon etilgan mazmunni izohlash, tushuntirish uchun qancha vaqt, necha qog'oz kerak. A.Obidjonning shakl va mazmun borasida o'tkazayotgan eksperimentlari g'oyat muvaffaqiyatli chiqayotganini, A.Qodiriy aytganidek, "So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht" bo'lishiga erishayotganini, "so'z so'ylash va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha"ga rioya qilayotganini ta'kidlash o'rinlidir.

Farida Afro'z, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Shermurod Subxon, Abduvali Qutbiddin kabi shoirlar ham yangi shakllar izlash, unga mutanosib ma'noni sig'dira olish borasida jiddiy izlanishlar olib borayotirlar. Masalan, F.Afro'z ham ko'plab uch misralik

she'rlar yaratdi va ularni o'quvchisiga "tasbehtar" deb taqdim etdi. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev esa shoira F.Afro'z tasbeh janriga asos soldi deb aytdi. Shu olim A.Suyunning "Ey, do'st!" turkumidagi besh misralik she'rlarini "qayirma" janri deb e'lon qildi. Bu shakllarning ildizlari o'zimizning ko'hna Sharq adabiyotida ham mavjudligini inobatga olsak, ularga alohida janr deb baho berish ortiqchaligi sezilib qoladi.

Shakl borasida ko'pdan beri turli eksperimentlar o'tkazayotgan shoirlardan biri Faxriyordir. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev aytganidek, avvalo, "Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham unchalik oson emas" ("Yoniq so'z", T., "Yangi asr avlodi", 2006). Chunki u o'z tafakkurida paydo bo'lgan o'y, narsa va hodisalarni, histuyg'ularni turli shakllarda ifodalashga urinadi. Shoir birinchi galda boy o'zbek tilidagi so'z shakllariga ("Suygulim, suy, gulim, suygu lim" kabi), geometrik formulalarga e'tibor beradi, she'rda aytmoqchi bo'lgan mazmunni chizma shakllar vositasida ifodalaydi. Uning shakl borasidagi izlanishlariga sinchiklab qaralsa, mumtoz Sharq she'riyatidagi harflar san'ati ("jonim"dagi "jim"...), G'arb adabiyotidagi kalligrafiya san'ati, grafik usul, kubizm yo'nalishi ta'sir etganligini anglash qiyin emas. Siz amaliy mashg'ulotlarda shu san'atlar bilan bog'lab tahlil qilsangiz, shaklning mazmunni ifodalashdagi o'rni va rolini ochgan bo'lasiz.

Xullas, otashnafas shoir Cho'lpon ustozl Fitratga bag'ishlangan she'rida "Sen so'zga ipakdan ko'ylaklar kiygazding" deb yozganida shoir she'rlarining mazmuni shakliga nihoyatda mos kelishiga urg'u bergandi. Binobarin, har qanday fikr, mazmun o'zining go'zal shakliga muhtojdir. SHundagina u o'quvchi qalbidan munosib o'rin oladi va uzoq yashaydi.

Ijodiy metod borliq hodisalarini tanlash, umumlashtirish va baholash prinsiplaridir. Yozuvchi asar yozish davomida ijodiy metodning quyidagi tamoyillariga amal qiladi: a) metod voqelikni aks ettirish usulidir; b) hayotni tipiklashtirib tasvirlaydi; v) asar g'oyasini tashuvchi obrazlarni o'zaro qiyoslaydi va rivojlanishda ko'rsatadi; g) yozuvchi hayotiy voqelarni tanlaydi va baholaydi; d) san'atkor voqelikka ijodiy yondashadi, ya'ni qayta quradi. Yanada aniqrog'i, akad. I.Sulton aytganidek, ijodiy metod masalasi, dastavval, san'atkorning hayotga, voqelikka munosabati masalasidir. Shunga ko'ra, u yoki bu davr adabiyoti metodini o'rganishda shu davrda yashagan va ijod qilgan

soʻz sanʼatkorlarining oʻz zamoni hodisalariga qanday munosabatda boʻlganligiga eʼtibor berish kerak. Shu nuqtai nazardan, metod adabiyotning maʼlum bir taraqqiyot bosqichida hayot taqozosiga koʻra ustivor yoʻnalishga ega boʻlishi mumkin. Masalan, oʻtgan asrning 30-yillaridan boshlab umumsovet adabiyotida yagona metod qaror topdi va u “sotsialistik realizm” deb ataldi. Bungacha adabiyotda klassitsizm, romantizm, realizm kabi metodlar mavjud edi.

Istiqlol adabiyotida metod erkinligi mavjud. Ijodkor oʻz koʻnglidagi gapni istagan metod, oqim yoki yoʻnalishda aytish erkinligiga ega. SHu bois hozirgi sheʼriyatda tom maʼnodagi realizm bilan birga romantizm ham, modernizm ham, absurd ham, ekzisental ijod namunalari ham, sentimental sheʼrlar ham koʻplab yaratilmoqdaki, bu oʻzbek adabiyotini faqat boyitmoqda. Ammo bu boylikning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish foydalidir.

Fransuz tabiatshunosi Byuffon Jorj – Lui Leklerkning taʼbiri bilan aytganda, “uslub bu odamdır”. Demak, u ijodga oid hamma narsani oʻziga qamrab oladi. Uslubni belgilovchi xususiyatlar adabiy asarning shaklidan tortib mazmunigacha boʻlgan barcha narsani oʻzida mujassamlashtiradi. Uslub bu ijodkorning oʻzligini namoyon etadigan adabiy hodisa boʻlib, u:

- 1) muallif dunyoqarashini;
- 2) tanlagan ijodiy metodini;
- 3) gʻoyaviy niyatini;
- 4) ijodiy fantaziyani;
- 5) isteʼdod salohiyatini;
- 6) tipiklashtirish mahoratini;
- 7) hayotiy materialni qalb prizmasidan oʻtkaza olish qobiliyatini;
- 8) estetik ideal va uni asarning badiiy toʻqimasiga singdira olishini;
- 9) adabiy janrni aniqlash va uning imkoniyatlaridan foydalana olish;
- 10) bayonga xos nutq tipini tanlay bilish va soʻzdan foydalanish sanʼatini egallay olish;
- 11) ifoda usulini tanlay bilish;
- 12) mazmunga mutanosib shakl topa bilish kabi koʻplab fazilatlarni oʻz ichiga oladi.

Har bir ijodkorning oʻz shaxsiy (individual) uslubi va maʼlum bir davrda shakllangan umumiy adabiy uslub boʻlishi mumkin. Masalan, Navoiy uslubi, A.Qahhor uslubi, E.Vohidov yoki U.Azim uslubi,

Uygʻonish davri adabiyoti uslubi, jadid adabiyoti uslubi kabi. Adabiy uslubning shakllanishida maʼlum davr ijodkorlarining umumiy maqsadida mushtarak xususiyatlar muhim oʻrin tutadi. Masalan, jadid adabiyotiga xos umumiy uslubiy yoʻnalishni olib koʻraylik. Maʼlumki, jadid bobolarimizning bosh maqsadi xalqni maʼrifatli qilish, shu yoʻl bilan Turkiston mustaqilligiga erishish edi. Mana shu maqsad ularning ijodiy uslubi mushtarakligini belgilashda muhim rol oʻynadi. Ular qanday janrda asar yaratishmasin (asosan drama va hikoya), ularda jaholat va maʼrifat oʻrtasidagi kurashni otalar va bolalar mojarosi asosiga quradilar. “Demak, uslub faqat ijod jarayoni, konkret ijodkor bilangina emas, maʼlum darajada adabiy jarayon bilan ham bogʻliq kategoriya ekan” (Qarang: D.Quronov, Z.Mamajonov, M.SHeralieva. Adabiyotshunoslik lugʻati. - 2010). Hozirgi adabiy jarayonda uslubning har ikki koʻrinishi ham (umumiy va xususiy) mavjud. Mustaqillik va uni mustahkamlash gʻoyasi Oʻzbekistonda ijod qilayotgan barcha qalamkashlarni birlashtirdi. Ayni chogʻda Vatan, vatanparvarlik, yurt ozodligini kuylayotgan shoirlar ulkan bir simfonik orkestrga birlashgan sozandalarga oʻxshaydi. Bilasiz, orkestrda ishtirok etayotgan sozandalarning har biri alohida cholgʻu asbobi bilan qatnashadilar. Har bir sozning ovozi oʻziga xos eshitiladi (bu ijodkor uslubining individualligi) va bir paytning oʻzida simfonik ohangni boyitadi (bu umumiy uslub). Albatta bu orkestrning umumiy ohangiga tushmayotgan cholgʻu asboblari ham bor. Bunday ijodkorlar oʻz uslubini shakllantirish va originallikka erishish yoʻlida jiddiy ishlashlariga toʻgʻri keladi.

Hozirgi oʻzbek sheʼriyati uslublarning rang-barangligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada E.Vohidov, A.Oripov, S.Sayyid, I.Otamurod, I.Mirzo kabilarning uslubi oʻziga xosligi bilan ajralib turishini alohida taʼkidlash oʻrinlidir. Masalan, Oʻzbekiston xalq shoiri E.Vohidov Vatan mustaqilligini ham aruz, ham barmoq vaznida, ham hazil, ham hajviy sheʼrlarida oʻta bosiqlik va sodda uslubda kuylaydi. Erkni ulugʻlar ekan, E.Vohidov mumtoz adabiyotimizdagi koʻhna bulbul timsoliga murojaat qiladi va uning yangi qirrasini ochadi:

*Bir-biriga navbat bermay qoʻshiq aytdi bulbullar,
Shukur boʻlsin, bogʻimizga yana qaytdi bulbullar.*

Nihoyatda bosiqlik bilan aytilgan bu sodda misralar o'quvchini ham mahzun o'yga toldiradi, ham iftixor tuyg'usini uyg'otadi, ham uning yangi ma'nolarini o'ylashga undaydi (Siz shu aytilganlardan ulgu olib, amaliy va seminar mashg'ulotlarida shoirlar uslubini aniqlang).

Endi hozirgi o'zbek she'riyatida Vatan mavzusining yoritilishidagi uslubning umumiyliigi va individualligiga bitta misol keltiray. O'zbekiston xalq shoiri S.Sayyidning "Bevafolik" nomli she'rida shunday satrlar bor:

*U ne yanglig' xalq bo'lgaydir, millat bo'lgay,
Elningkim o'z peshvosiga vafosi yo'q.
Biz Vatanni ona deymiz, lekin nechun
Farzandining onasiga vafosi yo'q.*

Nihoyatda kuyunchaklik va dard bilan aytilgan fikrlar Sizga CHo'lponning "Xalq" she'ridagi uning qudratiga bo'lgan buyuk ishonchni, A.Oripovning "Qachon xalq bo'lasan, sen ey olomon?!" satrini, E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasini, M.YUsufning "Xalq bo'l, elim" she'ridagi kuyunchaklikni eslatmadimi?

Xullas, metod va uslub haqida ko'p gapirish mumkin. Ular bir-birini taqozo etadi, to'ldiradi, boyitadi va davom ettiradi. San'atkor qaysi metodda ijod qilmasin, ko'nglidagi g'oyaviy niyatini o'ziga xos uslubda ifodalashga mas'uldir. Shundagina uning asari mangulikka daxldor bo'ladi.

DRAMATIK ASARLARNI INNOVATSION VA ZAMONAVIY METODLAR BILAN O‘QITISH

Dramatik asarlar kompozitsion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi. Shuning uchun drama janri so‘z san‘atiga mansub bo‘lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Drama har bir obraz o‘z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, xatti-harakati orqali nomoyish qiladi.

Shunga ko‘ra dramada proza va poeziyaga xos bo‘lgan bevosita muallif nutqi bo‘lmaydi, balki uning nutqi qavs ichida izohlanadi. «Nasrchi va nazmchi hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarni ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo‘lidan borishsa, dramaturg esa so‘zlarni harakatga solish, qahramonlarni so‘zlatib qo‘yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi»¹¹³. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo‘layotgan voqea va qahramonlarning o‘zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o‘z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko‘rsatadi.

Drama adabiyotning gultoji hisoblanadi. Unda dramaturgga nisbatan tashqi voqea-hodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxslarni o‘z-o‘zini namoyon qilish vositasida aks ettiriladi. Har qanday hodisa ham dramatik bo‘lavermaydi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchi va talabalar bir necha dramatik asarlar bilan tanishib chiqishadi. Ular orasida qadimgi Yunon drama-turklarining asarlaridan boshlab, xorijiy mamlakatlardagi adiblar qalamiga mansub bo‘lgan sahna asarlarigacha mavjud. Tabiiyki, ularning orasida o‘zbek dramalari asosiy o‘rin tutadi. Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasi ham shu siraga kiradi. Dramatik asarlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarga tayanish mumkin. Ayniqsa, Izzat Sulton, N.Mallaev, H.Abdusamatov, B.Imomov, I.G‘afurov, Sh.Rizaevlarning tadqiqotlari bu jihatdan e‘tiborlidir.

Cho‘lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20-yillar arafasida maydonga kelgan bo‘lsa-da, ular, shuningdek, 1920-yilda yozilgan -Yorqinoyl dramasi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Moskvadagi o‘zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug‘ilganida Cho‘lpon mazkur pesani qayta ishlab, uni 1926-yilda kitob shaklida nashr etgan. Pesaga Cho‘lponning quyidagi so‘zlari ilova etilgan: -Totli va boy tili bilan

ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan KAMPIR ONAga hurmat bilan bag‘ishlayman. Bu so‘zlardan ma‘lum bo‘lishicha, -Yorqinoyl pesasi zaminida Cho‘lponning -kampir onasildan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa -Yorqinoyl pesasida Andijondagi Po‘latxon qo‘zg‘aloni bilan bog‘liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Aslida ham, Cho‘lpon yoshligida -kampir onasildan Po‘latxon qo‘zg‘oloni haqidagi ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak-voqeadan foydalangan bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilar shu fikrni qo‘llab-quvvatlashadi.

-Yorqinoylning qisqacha mazmuni quyidagicha:

O‘lmas botir ismli sarkardaning qizi Yorqinoy bilan uning qarorgohida bog‘bonlik qilgan Po‘lat o‘rtasida muhabbat rishtalari bog‘lanadi. Po‘lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa o‘ziga to‘q xonadonning farzandi bo‘lgani uchun bog‘bon yigit o‘z ezgu niyatining amalga oshishiga ko‘zi yetmaganligidan bu xonodondan ketmoqchi bo‘ladi. Kutilmaganda Po‘latni Yorqinoy bilan yolg‘iz uchratib qolgan O‘lmas botir uni nomussizlikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Bu ham kifoya qilmasdan o‘z qizi Yorqinoyi ham or-nomusni unutib, nomunosib, kambag‘al, bechora bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi.

Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limdan ham qaytmaydi, shu yo‘lda u o‘limga ham tayyor. Shuning uchun ham u bo‘ynini egganida O‘lmas botir: —*Otang nohaq yerga bir qatra qon to‘kkan emas. Mundan keyin ham to‘kmaydir!*— deb mag‘rur javob beradi.

O‘lmas botir va unga o‘xshash kimsalar uchun haq va haqiqatning talqini bir xil emas: o‘z manfaati uchun haqqa qarash boshqacharoq: bu yo‘lda u odamlarni qirib tashlash, istagancha qon to‘kishni ham joiz hisoblaydi. O‘z manfaatidan kelib chiqqan haq tushunchasi uni o‘zining yolg‘iz qizini jazolash to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham undamaydi. Ayni shu paytning o‘zida o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni Po‘latni qatl etish uchun izn beraveradi: - *Ammo, davom etadi u Po‘latni ko‘rsatib, - mana bu ko‘rnamakning qoni to‘kilsa, aslo nohaqlik bo‘lmaydir!* Ana shunday e‘tiqod bilan yashagan O‘lmas botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo‘r sarkarda ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

U bilan juda noqulay ahvolda to‘qnashgan va o‘z sha‘ni, yigitlik or-nomusini himoya qilishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zi va otasi haqidagi aniq ma‘lumotlarni bilishga intiladi. Xuddi shu narsa O‘lmas botirning

qahrini yanada kuchaytiradi. Zero, bu vahshiylik O'lmis botirning hech kimga ochib berolmaydigan eng dahshatli siri edi.

Dramatik asarlarda konflikt alohida urg'u bilan namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, tahlil jarayonida asardagi asosiy konfliktning namoyon bo'lishiga e'tibor berish shartdir. Masalan, «Padarkush»da Ziyoli bilan Boy o'rtasidagi ziddiyat ham mavjud. Bu ziddiyat Boy bilan Domullo orasida ham mavjud. Muallif ikki tomonning o'ziga xos dunyoqarashi, o'y-fikrlari, maqsad-muddaolarini birbirlariga qarama-qarshi qo'ygan holda tasvirlaydi. Ziyoli va Domullo ezgulikning, yangilikning targ'ibotchisi va muxlisi sifatida ko'rinsa, Boy eskilikka mukkasidan ketgan, yangilanish va o'zgarishlarga nisbatan beparvo, hatto dushman maqomida tasvirlanadi. Ikki obrazda yurt qayg'usi, el-yurt tashvishi, uning kelajagi uchun qayg'urayotgan kishilar ko'rsatilsa, Boy qiyofasida o'zining tor, biqiq dunyosidan tashqarini ko'ra olmaydigan, manfaatparast va johil shaxs namoyon bo'ladi.

Asarda ilm va ilmsizlik, ma'rifat va jaholat orasidagi ziddiyat ham yorqin ko'rsatib berilgan.

Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» dramasiidagi ziddiyatlarning namoyon bo'lishi ham o'ziga xosdir. Bir qarashda u mutafakkir ota va mansabparast o'g'il orasida sodir bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida esa u shaxs bilan zamon, alohida shaxs va ijtimoiy tuzum orasidagi ziddiyatlarga tayanadi. Eng muhim va bo'rtib ko'rinadigan ziddiyatlar Ulug'bek bilan uning o'g'li Abdullatif, Ulug'bek bilan Gavharshodbegim, Ulug'bek bilan Said Obid, Ulug'bek bilan Piri Zindoni orasida ko'zga tashlanadi. Bu ziddiyatlarda aql-idrok va jaholat, ezgulik va qabohat, bag'rikenglik va manfaatparastlik, donolik va johillik singari bir-biriga zid bo'lgan fazilat va nuqsonlar ham o'zaro bir maydonga tushiriladi. Ular orasidagi bahsu munozaralar, keskin kurashlar orqali chuqur hayotiy mantiq va xulosalar yorqin namoyon bo'ladi.

Dramatik asarlarning o'rganilishida ularning tiliga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Yirik adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sulton aytganiday: «Kishi roman o'qir ekan, unda tushunilmagan so'z ustida o'ylash, uning ma'nosini esga olish yoki lug'atlardan qarab topish imkoniyati bor. Tomoshabin bunday imkoniyatlarga ega emas. Shu

sababli sahnada aytilgan har bir soʻz tushunarli boʻlishi shart»¹.

Dramatik asarlarni tahlil qilishda asardagi qahramonlarning harakati, birbirlariga munosabatigina emas, balki undagi har bir soʻz, har bir ishora ham oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunga koʻra uni tahlil qilishda muallif remarkasidan boshlab, qahramonlarning bir-biri haqidagi fikrlari, ularning oʻz soʻzlari, muallif qoʻllagan tasvir vositalarining barchasi, til imkoniyalari ham hisobga olinishi kerak. Buni ixcham namunasini «Yorqinoy» dramasi misolida shunday koʻrsatish mumkin:

Dramatik asarlarni tahlil qilishning yaxshi namunasi Q.Ahmedovning «Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmatchi» dramasini oʻrganish» kitobida tavsiya etilgan. U yerda asar matni ustida ishlash, jramaning kompozitsiyasini oʻrganish usullari, undagi alohida personajlar ustida ishlash, dramaning tilini oʻrganishga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Taʼlimning turli bosqichlarida dramatik asarlarni oʻrganishning oʻziga xos xususiyatlari nimalarda deb oʻylaysiz?
2. Dramatik asarlarni oʻrganishda koʻproq nimalarga eʼtibor berish kerak deb oʻylaysiz?

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, Oʻqituvchi, 1980, 289-bet.

BADIIY ASARNI BAHOLASH KRITERIYALARI. BADIY ASARNI BAHOLASHDA KITOBXON VA ADABIY JARAYON BAHOSI

Adabiy asar yaratilib kitob holiga kelgunicha u muallifning, ijodkorning xos, shaxsiy mulki bo‘ladi. Kitobxon hukmiga havola etilgan kundan boshlab, u ijodkorning shaxsiy mulki maqomidan chiqadi. Endi u shu mulkdan bahramand bo‘ladigan, uni o‘qib o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, muayyan mulohazalar yuritish imkonini beradigan ijtimoiy ob‘yektga aylanadi. Shunday ekan, mana shu “ijtimoiy ob‘yekt”ning mohiyati nimadan iborat? Nima uchun barcha “ijtimoiy ob‘yekt”lar jamiyat a‘zolari o‘rtasida bir xil mavqe va obro‘ qozonmaydi? Ularning zamondoshlarga, xususan, yosh avlodning ongu shuuriga ijobiy ma‘nodagi “daxl qilishi”ga nimalar xalaqit beradi? O‘qilmayotgan kitob haqida faqat yoshlar, kitobxonlar emas, yozuvchi, shoir, dramaturgning o‘zi ham, yozuvchi va kitobxon muloqotini ta‘minlash uchun safarbar qilingan tanqidchi, murabbiy, o‘qituvchi, ota-onalar ham bu haqda o‘ylab ko‘rishi kerak emasmikan?! Gap shundaki, haqiqiy asarning badiiyligi, demakki, uning zamonaviyligi, haqqoniyligi, odam va olam haqidagi haqiqatlarni aks ettirib berish, insonlar ko‘nglidagi rang-barang tuyg‘ular bilan uyg‘unlik darajasi, o‘zbekona so‘zning ohor va ifodasi mavjud ehtiyojlarga mos va munosib kelishi kerak. Bu ijodkorning “badiiy mahorat” deb nomlanadigan mavqeiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa, biz adabiyotning qaysi yo‘ldan yurishini, qayoqqa qarab boshlashini ayni mana shunday oliyqadr namunalarning ko‘p va ozligi bilan o‘lchashga majburiyat sezamiz.

Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayonida realizm pozitsiyasi ancha kuchli. Misol tariqasida Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir”, “Puankare”, Hakim Sattoriyning “Sog‘inch”, Zulfiya Mizbaxning “So‘fito‘rg‘ay”, Shodmon Otabekning “Agar oshiqligim aytsam...” kabi jamoatchilik e‘tiboriga hamda tanqidchilar e‘tirofiga sazovor bo‘lgan asarlarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, realizm badiiy metod sifatida kelajakda ham asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Binobarin, adiblarimiz hali bu metodning ko‘plab usul va vositalarini o‘zlashtirishlari lozim. Turgan gapki, bu yangilangan realizm bo‘ladi, deb aytishga asosimiz bor. Chunki hayotiylik badiiyati mavjud voqelik tasvirini zamonaviy vositalar majmuida berilishini talab etadi. Ehtimol, bugun o‘zbek

adabiyotida ildiz otgan boshqa tendensiya neorealizmning vujudga kelishidan nishonadir. Biz bugungi qator asarlarda kuzatilayotgan hodisa – realizm va modernizm uslubining simbiozini nazarda tutmoqdamiz.

O‘zbek adabiyotidagi postmodernizm unsurlari haqida so‘z borar ekan, aytish joizki, bu hodisa o‘zbek adabiyotidagi milliy chizgilar va o‘zbekona matn qurilishidagi azaliy ohangdorlik xususiyatlarini o‘zlashtirgan bo‘lib, poetik-uslubiy yo‘nalishi nuqtai nazaridan g‘arb va rus postmodernizmidan tubdan farq qiladi. Ushbu yo‘nalishga Omon Muxtorning “Ikki qiyofa”, Isajon Sultonning “Munojot”, No‘mon Rahimjonovning “Jimjit jolalar” qissalarini misol qilib keltirish mumkin. Zamonaviy adiblarning jahon adabiyotida allaqachon urfdan chiqqan postmodernizmga moyilligini oqlaydigan yana bir ijobiy belgilardan biri postmodernchilar bosh prinsip deb hisoblangan prinsip – “asardan muallif shaxsini olib tashlash” prinsipini pisand qilmaslikdir. Fikrimizcha, zamonaviy o‘zbek nasrida quyidagi postmodernistik uslub belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) o‘zbek mumtoz adabiyotidan “iqtibos”lar keltirish; 2) qahramonning “shizoanaliz”⁴ usuli bilan sun’iy hayajon asosida ochib berilgan ruhiy holatini oldingi o‘ringa chiqarish; 3) muallifning falsafiy pozitsiyasi aks etgan ramzlar kombinatsiyasini (kodini) qurish; 4) olamni birlamchi ko‘rinishda qabul qilish; 5) janr eksperimentlari; 6) borliqning o‘ziga xos modelini yaratish; 7) zamonaviylikdan chekinib, o‘tmish “izlari” tushgan ifoda tilini yaratish.

Bu adabiy hodisalarni hali anglab yetishimiz zarur. Biroq shuni qayd etish lozimki, o‘zbek yozuvchilari izlanmoqdalar, ifoda etish yo‘llari hamda vositalarini kengaytirib, tinmay tajribalar qilmoqdalar. Aniqrog‘i, bu borada postmodernizm haqida metod, yo‘nalish yoki oqim sifatida emas, balki realistik asarda ko‘ringan unsur yoki asar yaratishdagi badiiy usul sifatida gapirish ma’qulroqdir.

Hozirgi adabiy jarayonda adabiyotshunos olimlarning o‘rni beqiyos. Quyida bir necha olimlarning fikrlarini keltirib o‘tamiz: Hakimjon Karimov ilgari surgan paradigma¹ in’ikos nazariyasiga va ijtimoiy-madaniy hamda adabiy tafakkurning rivojlanishida ong kategoriyasining roliga asoslanadi. Tadqiqotchi yozish uslubi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini nasrning janr prinsipiga asosan bo‘linishidan kelib chiqqan holda ko‘rsatib o‘tadi:

- 1) adabiyotda g‘oya va mavzu maydonining kengayishi;
- 2) ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, oilaviy masalalarga e’tiborning

kuchayishi;

3) insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi;

4) o'zbek xalqining o'zligini tanishi va mentaliteti masalalariga murojaat etilishi;

5) hayot mazmunini falsafiy mushohada etish.

X.Karimovning fikricha, mazkur yo'nalishlarning barchasi yozish uslubining realistik va modernistik turiga asoslanadi. Adabiyotshunos olim voqealikning modernistik prinsipda aks ettirilishini o'zbek adabiyotidagi sifat jihatdan yangi hodisa deya ta'kidlaydi. U "totalitar sharoitda mazkur estetik qarashlarni qo'llash imkonsiz edi", deya ob'yektiv sabablarni ham, "adabiyotda modernizmning barcha prinsiplari va uslublarini to'la qo'llay oladigan ijodkorlar hali yetishib chiqmagan edi", deya, sub'yektiv sabablarni ham ko'rsatib o'tadi. X.Karimov zamonaviy so'z ijodkorlarining eng muvaffaqiyatli tajribalari ramz va majozlarga tayanganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u o'zbek adabiyotida "detektiv yo'nalish" paydo bo'lganini va bu ham yangilik ekanini qayd etadi.

Adabiyotshunos olim "Zamonaviy o'zbek adabiyoti uchun muallifning dunyoni his etish konsepsiyalaridagi xilma-xillik, voqelikni anglashning yangicha shakllari paydo bo'lishi hamda adabiy obrazlarni milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan qayta anglash xosdir", deya xulosa qiladi. Yo'ldosh Solijonov ham o'zining zamonaviy adabiy jarayonlar konsepsiyasini adabiy janrlarning bo'linish prinsipiga asoslangan holda tuzadi. Olimning ta'kidlashicha, zamonaviy o'zbek adabiyoti "... Sharq adabiy an'alarini boyitgan holda jahon adabiyoti tendensiyalarini o'zlashtira boshladi"². Lekin, deya ta'kidlaydi Y.Solijonov, jahon adabiyoti an'analari o'zbek badiiy asarlarini yaratishda mustahkam poydevorga aylanib ulgurmadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarni baholash kriteriyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy asarni baholashda adabiy jarayonning fikri va bahosi muhimmi?
3. Badiiy asarga baho berishda adabiyotshunos-olimlarning o'rni.

ADABIY TA'LIM BOSQICHLARIDA O'RGANILADIGAN KICHIK NASRIY ASARLARNI O'RGANISH METODIKASI

Masal, axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko'proq she'riy tarzda yoziladi. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan xissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi. Bu o'quvchilarni ahloqiy tomondan tarbiyalashga katta imkon beradi. Masalda fikrning qisqa, lo'nda, chiroyli va ifodali tasvirlanishi, tilining o'tkirligi va xalqchilligi o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishda muhim material hisoblanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminasion nuqta va echimi bo'lgan kichik pesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

Bolalarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda, obrazlarning go'zalligi o'ziga jalb qiladi. SHuning uchun masal ustida ishlashni hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya ustida ishlash kabi uyushtiriladi. Odatda, masal personajlari o'z xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari bilan, nutqiy uslublari, odatlari bilan o'zlarini tavsiflaydilar, ba'zan u xarakteristikani masalning boshqa personaji to'ldiradi. Muallifning o'zi esa bir-ikki so'z bilan tavsifni mukammallashtiradi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganishda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga (masalni to'liq qayta hikoya qildirish tavsiya etilmaydi), ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. 1- sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2- sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar. Masal tili ustida ishlaganda, o'quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o'quvchilarga mustaqil toptiriladi: o'quvchilar o'qituvchi bergan gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar. Masalan, SHukur Sa'dullaning

“Laqma it” masalining tili ustida ishlash jarayonida o‘qituvchi “Qish kelib sovuq boshlandi. Bo‘ron turdi” gaplarini beradi, o‘quvchilar gaplarini topib aytadilar. Masal tahlil qilinayotganda voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba‘zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Personajga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, xar bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Masalan, “Laqma it” masalini o‘qiganda, laqma itning yalinib-yolvorishi, mushukning to‘g‘riso‘zligi muomalasi orqali ifodalandi. Dialogli masallarni rollarga bo‘lib o‘qish, insenirovka qilib, aytdirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: masal mazmunini aniq idrok etish; kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish allegoriyani aniqlash;

Qish keladi qilich olib,

Bo‘ron bilan dovrug‘ solib

masal qismlaridagi asosiy fikrni aniqlash; masal xulosasini tahlil qilish. Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o‘qish darsining qurilishi quyidagicha bo‘ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda masalning xususiyatlari va qaysi sinfda o‘qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi:

- 1) masal muallifi haqida o‘qituvchi hikoyasi;
- 2) o‘qilgan masal materiali yuzasidan viktorini (savol-javob o‘yini);
- 3) o‘qilgan masalda qatnashuvchi shaxslar (hayvonlar) xarakteriga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o‘qituvchi o‘qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko‘rsatish). Emosional baholash planida suhbat.

3. Masalning aniq mazmunini analiz qilish:

- 1) masal struktura va kompozitsiyasini aniqlash (o‘qish, reja tuzish v.h.);

2) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe‘l-atvori sabablarini, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o‘qish, so‘z bilan va

grafik rasm chizish, savollarga javob);

3) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib undagi asosiy fikrni belgilash.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan o'xshash hodisalarga taqqoslash.

She'r-ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ya'ni she'riy hikoyalar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'riy hikoyada syujet, ya'ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashga to'g'ri keladi". Bunda "ohangdorlik va musiqiylilikni vujudga keltiradi".

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy (g'oyaviy) mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. SHuning uchun she'rni tahlil qilib, uning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish lozim. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilinganidagi ish turlaridan foydalanish mumkin. Tursunboy Adashboevning "Navoiy bobomlar" she'riy hikoyasi mazmuni savollar yordamida gapirtirilishi mumkin. Ammo lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she'rni o'qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o'qishdir. She'r ifodali o'qilgach, undagi tushuntirilishi zarur bo'lgan so'z va iboralar ikki-uch so'z bilan qisqacha izohlanadi.

She'rni o'qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa aytib beradi. Ba'zi she'rlarni o'qishga o'quvchilarni uzoqroq tayyorlash, masalan, Quadrat

Hikmatning “Qish”, “Bahor” she’rlarini o’qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o’tkazish maqsadga muvofiq.

Boshlang’ich sinflarda ko’rgazmali ta’limning asosiy formasi lirik she’rni ifodali o’qish hisoblanadi. Lirik she’rni ham, she’riy hikoyani ham o’quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir, uning uchun she’r birinchi marta o’qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o’quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O’qituvchi she’rni shunday ifodali o’qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so’z kuchliroq ta’sir etsin. O’qish oddiy bo’lishi kerak. O’qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g’azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo’l qo’ymaslik zarur. Bolalar she’rni o’qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari, she’r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She’r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she’r mazmuni haqida o’quvchilarga ko’p savol berish tavsiya etilmaydi. O’quvchilarga she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o’zi kifoya. Masalan, 4-sinf o’quvchilari Quدرات Hikmatning “Qish to’zg’itar momiq par” she’rni o’qiganda, “Qaysi fasl haqida o’qidingiz?” savoliga javob berishlari etarli; 4-sinf o’quvchilari shu sho’irning “Bahor” she’rini o’qiganda, o’qituvchi: “She’rda yilning qaysi fasli haqida o’qidingiz? (Bahor)”. “Shamol haqida nima deyiladi? Terak, bedapoya, qushlar haqida-chi?” savollarini beradi. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o’ziga xos fikrlari, his-tuyg’ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek zamonamiz qaxramonlari, o’zbek xalqi Vatan himoyasi, xalqimizning qaxramonona ishlari haqidagi she’rlar mazmunini to’laroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she’rlarni o’qishga o’quvchilarni maxsus tayyorlanadi: she’r mazmuniga asos bo’lgan tarixiy voqea haqida qisqa so’zlab beriladi yoki suhbat o’tkaziladi.

Boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan ko’pgina she’rlarni tahlil qilib, ifodali o’qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (o’quvchilar darsda ifodali o’qimagan she’rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

Bolalar she’rni yoqtiradilar. She’riy nutq engil yodlab olinadi, estetik his-tuyg’u uyg’otadi, kichik yoshdagi o’quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she’rlarni

bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o'qiydilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida ritmik pauza qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgi bo'lishi shart emasligi, ritmik pauzada ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Z.Diyorning "Bahor keldi" she'rini izohli o'qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);

2) she'rda tasvirlangan bahor belgilari haqida suhbat (analiz);

3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);

4) uyda she'rni ifodali o'qish va yod aytib berishga tayyorlanish;

5) keyingi darsda she'rni ifodali o'qitish, ifodali yoddan aytdirish.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy adabiyot janrlari, ularning xususiyatlari haqida ma'lumotlar bering. Misollar keltiring.

2. Masal janriga xos xususiyatlarni ayting.

3. Masal matni ustida ishlash qanday o'zlashtiriladi?

ADABIY TA'LIM BOSQICHLARIDA O'RGANILADIGAN KATTA EPIK JANRLARNI O'RGANISH METODIKASI

Epik turning xususiyatlari haqida gap ketganda avvalo voqea bandlikni tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, soʻz vositasida oʻquvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan toʻlaqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagiga monand, oʻzining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni "plastik" tasvirlangan deb aytiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda noplastik elementlar ham mavjud boʻlib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi. Tabiiyki, noplastik unsurlar, plastik unsurlardan farqli oʻlaroq, asarni oʻqish davomida oʻquvchi tasavvurda jonlanmaydi. Epik asarda obyektiv va subyektiv ibtidolarning uygʻun birikishi kuzatiladi: asardagi badiiy voqelikni biz shartli ravihda obyektiv ibtido deb olsak, asar toʻqimasining har bir nuqtasiga singdirib yuborilgan muallif shaxsini biz subyektiv ibtido deb yuritamiz. Badiiy voqelikni shartli ravishdagina "obyektiv" ibtido deyishimizga sabab, u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor koʻzi bilan koʻrilgan, ideal asosida idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksi ekanligidir. Shunday ekan, muallif obrazi hatto "obyektiv tasvir" yoʻlidan borilib, muallif imkon qadar oʻzini chetga olgan asarlarda ham mavjud boʻlishi tabiiydir. Demak, epik asarlarda badiiy voqelik bilan bir qatorda noplastik muallif obrazi ham har vaqt mavjuddir. Epik turga mansub asarlar asosan nasriy yoʻlda yozilishi, shuningdek, nasriy yoʻlda lirik asarlar ham yaratilishi mumkinligini ilgari aytiladi. Demak, 11 nasriy yoʻlda yozilganligining oʻziga asarni epik deyishimizga asos bermaydi, "nasriy asar" va "epik asar" tushunchalari bitta maʼnoni anglatmaydi. Voqebandlik epik turning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Epik asarda, odatda, makon va zamonda kechuvchi voqealar tasvirlanadi, muallif yoki hikoyachi-personaj tomonidan hikoya qilinadi. Bu esa epik asarlarda rivoya, tavsif, dialogning qorishiq holda kelishini taqozo qiladi, zero, ularning bari birlikda oʻquvchi tasavvurida badiiy voqelikni plastik jonlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eposda

rivoya an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallaydi, uning vositasida asarga dialog hamda tafsilotlar (peyzaj, portret, narsa-buyumlar va h.) olib kiriladi. Rivoya bu unsurlarning barini yaxlit butunlikka birlashtiradi. Epik turning takomili jarayonida undagi rivoyaning salmog'i kamayib borishi kuzatiladi. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi ertaklar, hikoyat va rivoyatlarda rivoyaning salmog'i katta bo'lgani holda, dialogning salmog'i unchalik katta emas, tafsilotlar esa badiiy voqelikni to'laqonli tasvirlashga ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Rivojlanish jarayonida eposda keyingi ikkisining salmog'i va ahamiyati ortib boradi. Bu narsa badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan aloqasi, ularga xos usul va vositalarni o'ziga singdirishi natijasidagi tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi sifatida tushunilishi mumkin. Masalan, dramaturgiya va teatrning rivojlanishi natijasida inson xarakterini yaratishning dramaturgik usullari ishlab chiqildi, sayqallandi; teatr san'atining rivoji o'quvchi ommani dramaturgik usulda yaratilgan inson xarakterini anglashga, dialoglar vositasida yaratilayotgan badiiy voqelikning mohiyatini tushunishga tayyorladi, ya'ni, badiiy didni rivojlantirdi. Shu asosda eposga dramatik unsurlar kirib keldi. Epik asardagi dialog dramatik asardagi dialogdan o'zining hayotiyliigi, ma'no ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Buning asosi shundaki, epik asarda dialog amalga oshayotgan konkret hayotiy situatsiya, unda qatnashayotgan personajlarning ruhiy holati, xarakter xususiyatlari haqida kengroq tasavvur berish imkoniyatlari mavjud. Ya'ni, personajning dialogda aytilayotgan har bir gapi butun asar kontekstida tushunilishi mumkin.

Lisoniy ta'lim o'quvchi dunyoqarashini shakllantiradi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi; oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishga o'rgatadi. Badiiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchining falsafiy qarashlari kamol topadi, mushohadalari teranlashadi. Hayot – katta maktab. Shunday bo'lsa ham o'quvchini ana shu hayotning butun murakkabliklariga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o'tishga, eng qiyin damlarda ham o'zini yo'qotmay oldinga intilishiga o'rgatadigan beminnat maslahatchi, samimiy do'st – bu adabiyot, adabiy ta'lim hisoblanadi. "Maktabda adabiyotni so'z san'ati sifatida o'qitish o'quvchilarda uni emotsional qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi. O'quvchida hayotni, hayotiy voqea-

hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asarni o'qitish orqali o'quvchilarda hosil bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san'at olamiga olib kiradi, o'quvchilarning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiiy didini o'stiradi" 1. Badiiy tahlilda qat'iy ilmiy tartibga rioya etgan holda so'zdan obrazga, obrazdan g'oyaga qarab boriladi va tahlilning barcha bosqichlarida badiiy so'zning estetik jozibasi diqqat markazida turadi. Tahlil etilayotgan asarni qaysi jihatdan o'rganish, tadqiq etish lozimligini belgilash uning yo'nalishini tayin etadi. Badiiy asar tahlilning to'laqonli bo'lishi, ko'p jihatdan, tahlilchining matnni qanday yo'nalishda tekshirishni aniq bilishiga bog'liqdir.

Badiiy asarni genetik yo'nalishda tahlil etishda asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etilishi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda muayyan asarni yuzaga keltirgan omillarning ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tipologik yo'nalishda esa, asar muallifi bilan adiblar orasidagi ijodiy ta'sir, badiiy vorislik, asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o'xshash hamda farqli jihatlari singari jihatlariga e'tibor qaratilishi lozim. Funktsional yo'nalishda amalga oshirilgan tahlilda tekshirilayotgan asarning ijtimoiy ta'sir kuchiga alohida diqqat qaratiladi. Unda o'rganilayotgan asarning muayyan millat va insoniyat ma'naviyatiga ko'rsatgan ta'siri tekshiriladi. Tahlillanayotgan asarning milliy adabiy jarayonda tutgan o'rni, uning yaratilgan zamondagi odamlar yoki tekshirilayotgan davr kishilari tafakkuriga ta'siri o'rganilishi lozim. Asarda qanday ijtimoiy qonuniyat qaysi obraz orqali ochilganini tekshirishi zarur. Keyingi vaqtda o'zbek adabiyotshunosligida ham Botish estetikasida har doim ustuvor maqomga ega bo'lgan funksional yo'nalishdagi tahlil keng yoyilgan va bu hol bir qator ijobiy xususiyatlar bilan birgalikda tendensiozlik, biryoqlamalik, matnning badiiy jozibasini 15 e'tibordan qochirish singari salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Falsafiy yo'nalishda yozuvchi dunyoqarashining xususiyatlari va tahlil etilayotgan asarda adib e'tiqodining: olamni ko'rish, anglash, tushuntirish hamda aks ettirish tarzining namoyon bo'lishi tekshiriladi. Lekin bunday tahlil badiiy matndan ayri falsafiy mushohadalarangina iborat bo'lib qolmasligiga e'tibor qilinishi kerak. Chunonchi, badiiy matnga bog'lanmagan,

ijodkorning ayni o'rganilayotgan asaridan kelib chiqmaydigan har qanday "chuqur ma'noli" xulosa tahlil uchun mutlaqo ahamiyat kasb etmaydi va o'rganilayotgan matnning na badiiy va na falsafiy jihatini ochib beradi. Psixologik yo'nalishda adibning ijodkor shaxs sifatidagi o'ziga xosligi jarayon psixologiyasi, asar ustida ishlash usuli, shu jarayondagi ruhiy holati va ularning tahlillanayotgan asarda qoldirgan nuqsi, uning saviyasiga ko'rsatgan ta'siri kabilar o'rganiladi. Bunday tahliliy yo'nalishda yuqorida sanalgan jihatlarining qay yo'sinda badiiy uslubga aylangani badiiy haqiqat shakliga kirganligi tekshiriladi. Filologik yo'nalishda asosiy e'tibor o'rganilayotgan asarning estetik hodisa ekanini har jihatdan asoslashga qaratiladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda o'rganilayotgan asar filologik hodisa sifatida ham til, ham tasvir vositalari, hamda ular o'rtasidagi davomiylik va novatorlik nuqtai nazaridan tekshiriladi. So'zning o'z va badiiy ma'nosi kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning ham hayotiy, ham estetik sabablari singari bir qator jihatlariga ustuvor e'tibor qaratiladi. Didaktik tahlilni uyushtirishning nazariy asoslarini belgilashdan oldin o'quv tahlilning ilmiy tahlildan farqini aniqlab olish zarur bo'ladi. Aslida, didaktik tahlil ham badiiy matnning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan 16 jihatlarini aniqlashga qaratilgan faoliyatdir. O'quv tahlili bir qator qirralari bilan filologik tahlildan muayyan darajada farq qilsa-da, unga zid narsa emas. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va unga yetganda o'quv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda, badiiy asarni didaktik tahlil qilish filologik tahlil etishdan jiddiy farq ham qiladi. O'quv tahlili ilmiy tahlil singari faqat ilmiy-estetik faoliyat bo'lib qolmay, balki pedagogik-psixologik jarayon hamdir. Chunki pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik didaktik tahlilning asosiy belgisidir. Agar filologik tahlil, asosan, faqat olimning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili o'qituvchining talabalar bilan bevosita muloqoti mobaynida amalga oshiriladigan tadbirdir. Didaktik tahlilning ishtirokchilari ko'proq bo'lishadi va barcha aqliy-estetik operatsiyalar qatnashchilarning imkoniyatlari va saviyalariga moslashtirilgan holda bajariladi. O'quv tahlilidan maqsad badiiy asarni to'g'ri qabul etish orqali o'quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifalari badiiy asarning o'ziga xosligi, jozibasi va

ta'sir qilish sabablarini aniqlash orqali talabalarda ta'sirchan qalb, has-sos tuyg'ular, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirish-dan iboratdir. Shunga ko'ra o'quv tahliliga badiiy asar matnining ha-yotiy va badiiy mantiqi hamda estetik jozibasini kashf etish orqali tar-biyalanuvchilarda komil insonga xos ma'naviy belgilarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat tarzida ta'rif berish mumkin. Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyat-lari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A.Ribnikova: «Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Bal-ladani reja asosida tahlil qilish mumkin, Biroq lirik she'rni rejalashti-rish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib, qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quv-chilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o'qituv-chining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi» deb ta'kidlaydi. Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. professor Q.Yo'ldoshevning yozishicha, «turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchi-ning asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi»¹. Buning juda kat-ta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, «asarlarni tur va janr xususi-yatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlan-tirishni nazarda tutadi».² Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usul-laridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z

¹ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996. B.18.

² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996. B.29.

oldida osonroq gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Gap hikoyalar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi, Chunki qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati hikoyalarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – hikoyalar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi. Adabiy o'qish o'qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo'la oladi. Adabiy o'qish vositasida alohida olingan qahramonning, yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko'zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e'tibor tortilishi mumkin. Masalan, Akademik litseylarning 1 bosqichida Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni yoki Rabg'uziyning «Qissayi Rabg'uziy» asarini o'qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o'quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko'zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag'zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo'qqa 19 chiqadi, ular o'quvchilar ongiga etib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam berolmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb hunar kollejlarning adabiy dasturlarida xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo'lgan xilma-xil janrlardagi epik asarlarni o'rganish ko'zda tutiladi. Jumladan, 5-sinfda «Uch og'a – ini botirlar», «Susambil» xalq ertaklari, H.Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», Hans Xristian Andersenning «Bulbul», Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning «Sher bilan Durroj», Sa'diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning «Uloqda», G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam», Oybekning «Fonarchi ota», Nodar Dumbadzening «Hellados», O'tkir Hoshimovning «Urushning so'nggi qurboni» hikoyalari berilgan. Ko'rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o'zidayoq hikoya janriga mansub bo'lgan xilma-xil asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og'zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o'rganish ham ko'zda tu-

tiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o'zlari mansub bo'lgan janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo'ladi, aks holda o'quvchilarda noto'g'ri taassurot yuzaga kelishi, ko'zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin. Adabiy asarning, jumladan hikoyalarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e'tibor 20 qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi. Hatto ayni bir xil janrlardagi epik asarlar tahlilida ham o'ziga xos yondashuvlar talab etiladi. Alisher Navoiyning «Xamsa»si tarkibida beshta doston bor. Ularning barchasi bir xil janrlarda yozilgan. Shunga qaramay, ularning har biri o'z oldiga mutlaqo boshqa-boshqa badiiy-estetik maqsadlarni qo'ygan. Demak, Ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo'ladi. «Hayrat ul-abror» falsafiy-didaktik doston. Unda adibning olam va odamga qarashidagi o'ziga xosliklar falsafiy-axloqiy ruhdagi hikoya, qissa va mulohazalar orqali ifodalanadi. «Farhod va Shirin»da qahramonlik yo'nalishi ustuvor. U ishqiy-romantikaga to'yintirilgan qahramonlik dostonidir. «Layli va Majnun» esa adabiyotimiz tarixidagi «eng fojiaaviy ishq qissasi» sifatida mashhurdir. «Sabbai sayyor» – ishqiy-sarguzasht yo'nalishida bo'lsa, «Saddi Iskandariy» qahramonlik dostonidir. Ularda insoniyatning o'ziga xos ruhiy olami, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy qarashlari, o'sha davrlardagi ijtimoiy hayot manzaralari aks etgan. Ularda voqealar qamrovi nihoyatda keng, ishtirok etuvchi qahramon va personajlarning soni ham ko'p, ularning har biriga bog'liq ravishda esa muallif ko'zda tutgan badiiy niyat ham rang-barangdir. Tahlil jarayonida mana shu rang-baranglik ham doimiy e'tiborda turishi kerak bo'ladi. Ularning qay birini tahlil qilayotganda qanday usul va yo'llardan foydalanish kerak degan savolga bir xildagi javob berish mumkin emas. Bu vazifani alohida olingan sharoit, sinfning o'ziga xosligi, o'quvchilarning adabiy tayyorgarligi, qolaversa, o'qituvchining o'z bilim va tajribasidan kelib 21 chiqib hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hikoyalarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi

asosiy o'rinda turadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinflarida asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganiladi. Yirik epik asarlarni o'rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu qarash hajm nuqtayi nazaridan. Hikoyalarning o'zini ham tanlashda, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mazmuniy jihatdan ham sinfdan sinfga murakkablashib boradi. Masalan, akademik litseylarning 2-bosqichida Navoiyning epik asarlari, jumladan, «Xamsa» dostonlarini o'rganish belgilangan. Dastlab, Navoiyning hayoti va ijodi o'rganilgan ekan, unda adibning adabiy merosi, bu merosning faqat o'zbek adabiyoti rivojida emas, balki umumturkiy adabiyot tarixida ham, jahon adabiyoti tarixida ham nihoyatda ulkan voqea bo'lganligi qayd etiladi. So'ng adibning asar ustidagi jiddiy mehnatini ko'rsatib beruvchi epizodlarga e'tibor tortiladi. Bunday o'rinlar beshala dostonida ham istalgancha topiladi. O'qituvchi o'zi uchun qulay bo'lgan variantdan foydalanishi mumkin. Bularning natijasida o'quvchilarda Alisher Navoiy dahosini ta'minlagan ijodiy rivojlanish bosqichlari haqidagi asosli va real tasavvurlar hosil bo'ladi. Ular adib ijodining ilmiy-ma'rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatni teranroq ilg'aydilar. Bunga erishish esa osonlikcha kechmaydi. Bu natija turli-tuman metod va usullar qo'llanishini taqozo etadi. Bular orasidan biz o'qituvchining kirish so'zi, yakunlovchi ma'ruzasi, o'quvchilarning mustaqil 22 ijodiy ishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ularda asarlardagi asosiy g'oyaviy-badiiy mag'iz, alohida olingan epizodlarning asarning yaxlit sujeti va kompozitsiyasi bilan aloqadorligi, oldingi sinflarda Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq holda o'rganilgan materiallarni eslash va takrorlash nazarda tutilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir narsani eslatish ham o'rinli bo'ladiki, hajmiga ko'ra yirik bo'lishiga qaramay, zamonaviy romanlarni tahlil qilish ham oson bo'lmasada, Navoiy asarlarini, umuman, mumtoz epik asarlarni tahlil qilishning qo'shimcha qiyinchiliklari oz emas. Ayniqsa, ulardagi eskirgan so'zlarning ko'pligi, o'sha davr badiiy talablari, shuningdek, bevosita adib uslubi bilan bog'liq holatlar shular jumlasidandir. Buning ustiga yirik epik asarlarni o'rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralagan. Qisqa bir vaqt ichida nihoyatda katta vazifalarni hal qilish zaruriyati o'quvchilar uchun

ham, o'qituvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlarni qidirishni taqozo etadi. Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, «Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yib qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga «qahramonning bu ishi to'g'rimi?», «Uning o'rnida bo'lganda nima qilar eding?» kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga: Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkinmidi, Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?» singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarni genetik yo'nalishda tahlil etishda deganda nimani tushunasiz?
2. Tahlil etilayotgan asarni qaysi jihatdan o'rganish lozim?
3. Badiiy asarni didaktik tahlil qilish filologik tahlil etishdan jiddiy farq qiladimi?

MUMTOZ G'AZAL JANRINI O'QITISH METODIKASI

Mumtoz adabiyotimizni puxta o'rgatish, buyuk san'atkorlarimiz hayoti, shaxsiyati, asarlarini talabalar, o'quvchilar qalbiga singdirishning ahamiyati bugungi kunda yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng mumtoz adabiyotimiz, uning ayrim vakillari merosiga munosabat ham o'zgardi. Adabiy asarlarni tahlil qilishdagi bir yoqlamalikka barham berildi. Uzoq yillar davomida asarlari chop etilmagan, merosi yetarlicha tadqiq etilmagan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Rabg'uziy, Husayniy, Feruz, Amiriy kabi shoirlarimiz kitoblari xalqqa etkazildi.⁸ Ularga doir ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tasavvuf, o'zbek tasavvuf adabiyoti haqida qator ishlar qilindi. Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida mumtoz adabiyotimiz namunalari, uning ijodkorlarini «xalqchil adabiyot» yoki «progressiv adabiyot», «diniy - mistik adabiyot», «feodal-saroy (klerikal) adabiyot» yoki «reaktsion adabiyot» vakillari sifatida ajratish tamoyillari bor edi. Buni o'sha davr mafkurasi, qarashlari bilan bog'lash mumkin. Ammo bugungi kunda badiiy adabiyotni bu tarzda ajratish, bir yoqlama yondashish noo'rin ekanligi seziladi. Bu kabi davr mafkurasi o'z ta'sirini o'tkazgan, zamonasozlik qilishga majbur bo'lingan bir paytda oliy o'quv yurtlari yoki o'rta maktab uchun chiqarilgan darsliklarda ana shunday kamchiliklar o'z ifodasini topdi. Bugungi kunda ma'naviyat, milliy istiqloq g'oyasi haqida ko'p gapirsak ham oz.

O'zbek mumtoz adabiyotini o'qitish borasida bir qator qiyinchiliklar, ikkilanish va noaniqliklar yuzaga kelmoqda. O'quv dasturi, mavjud darsliklar asos qilib olindi. Ular yangilanib, to'ldirildi. Umum ta'lim maktablarining 7-sinf adabiyot dasturida 68 soat ajratilgan. Shu sinfga Uvaysiy hayoti va ijodini o'rganishga 2 soat mo'ljallangan.⁹ Ta'limning turli bosqichlari bo'lib, mumtoz adabiyotni o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiylik, insonparvarlik, yo'nalishida rivojlantirish o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga o'rgatish lozim. Mumtoz adabiyotni o'rgatishda davrlarga ham e'tibor beriladi. XX asr boshlarida Qo'qon yurtimizdagi madaniy-adabiy markazlardan biri bo'lib kelgan, bu davrda shahar va uning atrofidan ko'plab taniqli shoirlar yetishib chiqdi. Ularning ijodi mumtoz adabiyotining yorqin sahifasini tashkil qiladi. Ana shu iste'dodlar egasi shoir va shoirlarni

lirik she'rlari, hajviy asarlari bilan o'z davrida e'tibor topgan bo'lib hozirgi kunda maktab o'quvchilariga va akademik litsey o'quvchilariga o'rgatilib kelmoqda. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning 5-9-sinf-laridagi o'quvchilariga milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabi-yotining eng sara namunalari o'rgatilmoqda. Bundan tashqari o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zal-lik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishimiz mumkun. Shular asosida o'zlaridagi axloqiy – ma'naviy fazilatlar majmunining shakllanishi va rivojlanishiga im-konyatlar yaradi. Hozirda turli davr mamlakatlarda, turlicha dunyoqa-rash va e'tiqodlarni aks ettirgan. O'quvchilarni badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan o'qitib borilmoqda. Shular asosida ular olam va 9 Ahmedov S. va boshqalarning 7-sinf darsligida (-T.: "Ma'navi-yat", 2005) va boshqa ilmiy adabiyotlarda ikki xil bo'lishi aytiladi. 9 odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning butun bashariyatning bir butunligi haqida o'quvchilarda tasavvur va dunyoqarashlari shakllanib kengayib mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, ular olam odamga tegishli bo'lgan barcha hodis-alarga emotsional (hissiy) munosabat bildiradi oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazardan xilma-xil ko'rinish imkoniga ega bo'lishadi. Akademik litseyda Uvaysiy hayoti va ijodi 2 soat o'rganiladi. O'quvchilarga shu vaqt mabaynida Uvaysiy hayoti va ijodini o'rgatishimiz kerak. Eng avvalo shoira haqida ma'lumotlar berishimiz lozim. Har bir shoir taxallusining o'z ma'nosi bor. Taxallus bu shunchaki bir so'z emas, balki adibning ijoddan ko'zlagan maqsadini belgilovchi timsol hamdir deb taxallus haqida ma'lumot ber-ganimiz. Navoiy - haq va haqiqat, adolat yo'lida navo qiluvchi, Maxmur - ilohiy ishqdan mast bo'lgan darvesh va hokazo. Xo'sh, unda Uvaysiy taxallusining ma'nosi nima? Deb o'quvchilarga shu o'rinda savol ber-ramiz va o'quvchilarga tushuntiramiz. O'tmishda Uvays Qaraniy ismli valiy zot o'tgan. Uning Muhammad alayhissalomga bo'lgan muhabba-ti shu kungacha insonlar orasida doston bo'lib kelmoqda. U payg'am-barimiz bilan bir zamonda, birbirlaridan un-chalik uzoq bo'lmagan joyda yashagan bo'lsa-da, ularga ko'rishish nasib etmagan. Bu zot Mu-hammad alayhissalomga hali payg'ambarlik berilmay turib, uning qa-chon va qayerdan chiqishini bilmagan holda Rasulullohning kelishini intizorlik bilan kutgan. O'zi hali ko'rmagan, daragini faqat ilohiy kito-

blardan eshitgan paygʻambarga gʻoyibona muhabbat qoʻyadi. Muhammad alayhissalom ham oʻziga zamondosh sahobalari hamda ummatlari ichida koʻrmay turib, Uvaysy Qaraniy hazratlariga alohida ikrom va eʼzoz bilan mehr qoʻyganlar. Shundan Islom olamida paygʻambarimizning (garchi u zot oʻtib ketgan boʻlsalarda) gʻoyibona nazari - nigohiga sazovor boʻlish ilinjida «uvaysiylik» yoʻli paydo boʻlgan. Ehtimol, shoira Uvaysiy ham oʻz taxallusini qaysidir bir buyuk zotga boʻlgan gʻoyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagandir deb oʻylaymiz. Mana, shoira Jahon Otin taxallusining maʼnosini ham oʻquvchilar bilib olgandan soʻng. Shoiraning hayoti haqida oʻquvchilarga maʼlumot beramiz. Shoira 10 Margʻilon shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi oʻzbek va tojik tillarida sheʼrlar yozgan ijodkor, onasi ham fozila ayol boʻlgan. Hofiz unvoni bilan el ichida tanilgan akasi Oxunjon ashula aytar, musiqadan yaxshigina xabardor edi. Badiiy did yuqori boʻlgan maʼrifatli oilada voyaga yetgan Jahon Otin yoshligidan sheʼr mashq qildi va tez orada «Uvaysiy» taxallusi bilan shuhrat topdi. Shoiraning turmush oʻrtogʻi Hojixon erta vafot etib, qizi Quyoshxon, oʻgʻli Muhammadxonni tarbiyalab voyaga yetkazish yakka oʻzining zimmasida qoladi. U maktabdorlik qiladi, ijod bilan shugʻullanadi. Farzandlari ham sheʼrlar yozgan. Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shoira Nodirabegim iltifoti tufayli xon saroyida kechadi. Bu yerdagi qizgʻin ijod uchun kerakli adabiy muhit, farzandlarining yashashi va tarbiyasi uchun qulay sharoit shoiraning bir necha yillar oyoq oʻstirgan hayotini taʼminladi. 1822-yilda Nodirabegimning turmush oʻrtogʻi Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiy uchun ham tashvishli va qaygʻuli kunlar boshlanadi. Otasining oʻrniga taxtga oʻtirgan Muhammad Alixon unga yaxshi munosabatda boʻlmadi. Boz ustiga, oʻgʻli Muhammadxon ham sarbozlikka olinib, Qashqar uchun olib borilayotgan urushga joʻnatildi. Oilaviy turmushi baxtsiz kechgan qizi Quyoshxon kasallanib, oʻttiz yoshida vafot etadi. Undan Bibi Xadicha ismli qizcha qoladi. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qoʻqonni bosib olib, Nodirabegimni, uning oʻgʻli va nabiralarini qatl ettiradi. Shundan soʻng Uvaysiy ham ona shahri Margʻilonga qaytadi va taxminan 1845-yilda vafot etadi. Oʻquvchilarga shoiraning hayoti haqida tushuntirib boʻlgach, uning ijodini ham tushuntiramiz. Shoira mumtoz adabiyotning gʻazal, muxammas, musaddas, murabbaʼ, chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratgan va uning sheʼrlari asosan ishqiy mavzuda bitilgan .

Ularda o'zining Yaratuvchisiga intqlik bilan intilayotgan solik banda, Payg'ambar alayhissalomga oshiq ummat, ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg'ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum etuvchi g'azallari ham talaygina. Uvaysiyning «Uvaysiyman», «Sog'indim» kabi g'azallari hasbi hol tarzida yozilganligini o'quvchilarga o'rgatib. Ularda shoira hayotining ayrim lavhalari, taqdiri uchun muhim bo'lgan hayotiy 11 holatlar bayon etilgan g'azallarni tushuntirish. Masalan, «Sog'indim» radifli g'azalda farzandidan judo onaning iztiroblari, sog'inchini aks ettirgan buni o'quvchilarga ta'sirli qilib o'qib o'quvchilarni jon-joniga singdirish kerak. Uvaysiy chistonavis sifatida ham o'z mahoratini namoyon etganligini ham aytib o'tish lozim. Ayniqsa, «Anor» chistoni yaratilgandan buyon she'riyat ixlosmandlari e'tiborini qozonib kelmoqda. Ushbu "Anor" chistonini o'quvchilarga o'qitib ushbu chistondan nimani tushunganini so'rab so'ng o'zi aniq qilib o'qituvchining o'zi tushuntirib beradi. Darsimizning birinchi soatida o'quvchilarga biz Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni berar ekanmiz, bu orqali shoiraning ibratli hayotini shu sinf o'quvchilar uchun o'rnatqilib ko'rsatamiz, va o'quvchilarga kela-jakda Uvaysiyning asarlarini tahlil qilish, keying darslarda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida muayyan tasavvur uyg'atishga harakat qilamiz. Demak, Uvaysiy hayoti va ijodidagi asosiy va muhim sanalar, uni hayotidagi ijod yo'lida turmush mashaqqatlarini yengish yo'lidagi, qiyinchiliklarga sabir qonoat bilan bardosh qila olgan ayol timsoli sifatida siymosi ham, o'quvchi ko'zi oldida yorqin jonlantiradi. Bu jarayonda biz nafaqat Uvaysiy asarlari, balki shoiraning partiriti, kitoblariga ham murojat qilamiz. Ular orqali ham o'quvchilarni tasavvurida muayyan fikr mulohazani uyg'atish bilan bir qatorda, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni hosil qilishga harakat qilamiz. Uvaysiyning shu sinf darsligida berilgan "Uvaysiyman" nomli g'azalini tahlil qilar ekanmiz, avvalo biz o'quvchi diqqat e'tiborini g'azalda qo'llanilgan tushunilishi qiyin bo'lgan arabiy va forsiy tildagi so'zlar lug'atiga qaratamiz. Shu o'rinda o'quvchilarda lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini ham shakillantirishimiz lozim. Demak, biz ushbu she'rdagi tushunilishi qiyin bo'lgan lug'atini doskaga yozamiz va o'quvchilarni har biriga yozib olishini, keyingi darsda ularni yod olib kelishlarini tafsia qilamiz. O'quvchilar mana shu so'zlarni o'rganish orqali ham, shoira she'rlari mohiyatini anglashga, uni mazmuniga singdirilgan ma'no

qatlamlarini, nafaqat zohiriy ma'no balki botiniy ma'no qatlamlarini anglaydi, tahlil qila oladi va Uvaysiyning ruhiy 12 kichinmalarini muayyan darajada tushuna olishiga erishish bu darsning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarga "Uvaysiyman" g'azalini o'qitib tahlil qildiramiz.

G'AZALLAR

Mehnat-u alamlarga muftalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.
Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumib ko'zni muddao Uvaysiyman.

Uz diling taalluqdin¹, band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo 2 Uvaysiyman!»
Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar³,
Arz to samo⁴ uzra mojaro Uvaysiyman.

To ko'rib xarobotin⁵ ta'na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido⁶ Uvaysiyman.
Faqr borgohiga⁷ qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jonfi do Uvaysiyman.

Vaysiy beriyozat⁸ deb sahl⁹ tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

G'azalda tahlilga qiynalgan so'zlarni o'quvchilarga lug'at orqali o'rnatishimiz mumkin.

Lug'at:

- 1-Solik – ma'naviy tozarish, ruhiy poklanish yo'lidagi shaxs.
- 2-Istadim – bu yerda: «izladim» ma'nosida. Uz diling taalluqdin – dilingni dunyo aloqasidan uz, ya'ni dunyodan yuz o'gir.
- 3-Mosivo Uvaysiyman – dunyodan uzilgan Uvaysiyman.
- 4-Kavokib – yulduzlar. 13
- 5-Arz to samo – yerdan osmongacha. Xarobotin – bu yerda: so'fiylar maskani.
- 6-Iqtido – ergashish. Bu yerda Uvaysiyning so'fiylik, tasavvuf maslagiga ergashgani anglashiladi.

7-Borgoh – faqir so‘fiylar, ishq ahlining manzilgohi.

8-Beriyozat – mashaqqatsiz, qiynoqsiz, azobsiz.

9-Sahl – yengil, oson.

Ushbu g‘azaldan so‘ng savol va topshiriqlarni o‘quvchilarga bersak bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shoir nima uchun barchadan ko‘zni yumibgina muddaoga yetishini aytmoqda?

2. Dunyodan uzilib, dilni Xudo sari band qil deganida nimani nazarda tutgan: tarki dunyo qilishnimi yoki moldunyoga berilmaslik kerakliginimi?

3. Ilohiy ishqda o‘rtanayotgan oshiqning kechinmalari nima uchun yer-u ko‘kni larzaga soladi?

4. G‘azaldagi oshiqning zohid bilan bahsga kirishishining boisi nima?

Degan savollar bersak bo‘ladi. Har qanday she‘r yoki nasriy asar bevosita va bilvosita ijodkorning hayoti va ijodi tarjimai holi bilan bog‘lanadi.¹⁰ Xususan, adabiyotimiz tarixini kuzatar ekanmiz, ko‘plab ijodkorlarimiz yozayotgan asarlarini o‘z hayotidan, ibratli hayot yo‘li bilan bir qatorda hayotda uchragan mashaqqatlarini aks ettirishdan iborat ekanligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, Uvaysiyning 7-sinf darsligida keltirilgan “Uvaysiyman” radifli g‘azali haqida ham, ushbu fikrlarni ayta olishimiz mumkin. Chunki Uvaysiy biz bilamizki, Margilondan Qo‘qonga kelib Amir Umarxon saroyida istiqomat qilar ekan, saroyda mavqeyi nihoyatda yuksak bo‘lgan. Shoir nima uchun shu saroy muhitida yoshlarni adabiyoti san‘atga ixlosmandlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda bevosita badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Ammo, Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiyning hayotiga ham ma‘lum darajada 10 Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006. – B.75 14 qiyinchiliklar, mashaqqatlar kirib keldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Nodiraning o‘g‘li Muxammadalixon taxtga o‘tirar ekan Uvaysiy mana shu davrda saroy muhitidan biroz cheklangandek bo‘ladi. Uvaysiyning o‘g‘li Muhammadxon sarboz sifatida ishg‘a olinadi va u Eronga yuboriladi. Mana shu o‘g‘lidan ajralish ham Uvaysiyning hayotiga qayg‘u kulfat olib keladi. U o‘g‘lini uzoq yillar mabaynida kutadi, ammo o‘g‘li ketgan joyidan qaytib kelmaydi. Ona o‘z o‘g‘lini na tirikligini ekanligini, na o‘lik ekanligini bilmas ekan

g'oyatda o'g'liga ilxat bo'ladi natijada "Sog'indim" g'azalida ushbu tuyg'ularini yuksak darajada san'atkorlik bilan aks ettira olgan. Biz o'quvchilarga "Sog'indim" g'azalini tahlil qilishgatafsiya etar ekanmiz, shu jarayonda bevosita Uvaysiy hayotida bo'lib o'tgan ush bu voqia bilan ham tanishtirib o'tishimiz lozim.¹¹ Demak Uvaysiy tarjimayi holi bilan bog'liq bu voqea o'quvchini g'azal matnini chuqurroq anglashi uchun yordam beradi. Uvaysiyga bo'lgan mehr muhabbat tuyg'ularini ham kamol topishiga yordam beradi.

Shoiraning "Sog'indim" g'azalini ham o'quvchilarga o'qitamiz va uni ham tahlil qilamiz.

SOG'INDIM

Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
Musofi rman, g'aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.
Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fi kri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.
Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,
Kelib holim so'ribon ketsa, mehmonimni sog'indim.
Nasibin uzmati Tangri, ilojin topmag'ay kelsa,
Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim.
Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin.

Ko'z-u ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim.
Mani bekas Uvaysiy, yig'lagayman ro'z-u-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim.
"Sog'indim" she'ri shoiraning tarjimayi holi bilan bog'liq.

Amir Umarxon vafotidan keyin Qo'qon taxtiga o'g'li Muhammad Alixon o'tiradi. Uvaysiyning o'g'lini sarbozlikka oladi. Qashqar urushiga jo'natilgan o'g'li Muhammadxonni sog'inib, o'rtanib "Sog'indim" g'azalini yozganini, g'azaldagi "Gado", "Shohi davron" so'zlari orqali biz shoiraning intizorlik tuyg'ularini his qilganini o'quvchilarga o'rgatamiz. Vujudim, dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim misralarida farzandini sog'inib, iztirob chekayotgan ayol tuyg'ulari aks ettirilgan o'quvchilarga tushuntiramiz. Dard-sog'inch, darmon-

diydor ma'nosida kelgan. Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yaxshi farzandim, Azizim, yolg'izim, davlati sultonimni sog'indim Bu misralarda onaning farzand dog'ida azoblanishi aks ettirilgan. Shoiralar odidiygina – askar o'g'lini "davlati sultonim" deb ataydi. Albatta, har bir ona uchun farzand, sulton kabi. Uvaysiy ham o'g'lini o'z davlati, oilasining sultoni deb biladi. "Onam deb bo'lgusi bag'ri qizil qonimni sog'indim" misralari orqali esa farzandining ham ko'ksi qonga to'lib, uni ham onasiga bo'lgan sog'inch qiynayotgani aks ettirilgan o'quvchilarga tushuntiramiz.

Ushbu g'azal to'g'risida ham savol va topshiriqlar berish kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. She'rdan shoiralar tarjimayi holi bilan bog'liq jihatlarni toping. G'azalda ifodalangan yetakchi fikr va tuyg'uni aniqlang.

2. G'azaldagi «gado», «shohi davron» timsollari shoiraning intizorlik tuyg'ularini ifodalashga qay darajada xizmat qiladi?

3. Shoiraning: «Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim» tarzidagi anduhida o'zbek onalariga xos sifatlarining qanday ifodalanganligini ko'rsating.

4. G'azaldagi:

«Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yaxshi farzandim,

Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim» baytida sog'inch iskanjasidagi ayol tuyg'ularini ifodalashda shoiralar mahoratini ko'rsatuvchi jihatlarni toping.

1. Benavo - baxtsiz, sho'r-peshona.

2. Ro'z-u-shab - kun-tun, erta-kech.

3. Shoiraning oddidiygina askar o'g'lini «davlatli sultonim» deb atashi sababini qanday izohlaysiz?

4. «Onam deb bo'lgusi bag'ri qizil qonimni sog'indim» misrasida ifodalanayotgan ma'noni anglatating.

5. Shoiraning o'ziga nisbatan ishlatgan sifatlashlari orqali iztirobni, o'g'liga qo'llagan sifatlar vositasida sog'inchni ifodalaganini tahlil qilib chiqing.

6. She'rda o'g'ilning holati, kechinmalari ham aks etganmi?

Savol va topshiriqlar:

1. Mumtoz adabiyotda insoniyatning eng nozik tuyg'ularini izohlang.
2. Mumtoz adabiyotni o'rgatishda davrlashtirishning ahamiyati nimada?
3. G'azallarni tahlil qilishda lug'atdan foydalanish metodikasini izohlang.

TA'LIM BOSQICHLARIDA DRAMATIK JANRLARNI O'RGANISH YO'LLARI

Adabiyot oddiy soʻzga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuygʻularini harakatlantiradi, koʻngil atalmish sirli va moʻjizakor dunyoni taftish qiladi, olam va odamning mohiyati, ular oʻzaro munosabatlarining sabab va oqibatlari, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charogʻon etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, m aʼnaviy olamini shakllantirishi va yuk-saltirishi, porloq kelajak uchun munosib toʻgʻri yoʻlni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk 12

Борев Ю. Методология анализа художественного произведения. “Ўзбек адабиётшунослигида талли и ва таҳлил муаммолари” мавзусидаги конференция материаллари. -Т.: Мумтоз суз, 2014. С. 33.

15 kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob oʻqish, kitobxonlik madaniyatini targʻib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Kishida badiiy asarni toʻgʻri anglash va taʼsirlanish fazilati adabiy asar oʻqish bilan oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega boʻlishi kerakki, umummilliy miqyosda bu yumush faqat maktab adabiy taʼlimi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Yaʼni, adabiy taʼlim vositasida maktabni bitirgan oʻquvchida badiiy asarni oʻqish va anglash boʻyicha muayyan tushunchalar shakllantirilishi, badiiy tahlilning ilk koʻnikmalari yuzaga keltirilishi kerak. Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham oʻziga xos oʻrin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi koʻzga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. Toʻgʻri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo oʻzgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi m aʼlum darajada oʻzgarishi aniq. Munosabat yoʻsini, nuqtayi nazari esa har qanday ilmiyijodiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Epik turdagi asarlarning tahlili xususida gap borar ekan, shu oʻrinda Belinskiyning adabiy tur va ularning oʻziga xos boʻlgan xususiyatlari

haqida quyidagi fikrlarini eslatishni joiz deb bildik: “Uchala tur ham bitta asos-hayotdan oziqlansalar-da, uchalasi ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan olamni kashf etsa-da, ayni paytda, ularning har birining o‘ziga xosligini ta‘minlovchi predmeti ham bor. Eposniki - voqea, lirikaniki - ruhiy kechinma, dramаниki - harakatdir. Eposdagi qahramon - voqea, dramaning qahramoni - inson shaxsi, lirikaning qahramoni insonning ichki tuyg‘ularidir”¹³. Adabiy asarning turi va janri nafaqat bitikning qurilishi yo‘sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so‘zlarning tabiatiga ham ta’sir ¹³ Белинский В. Г. Адабий орзулар. -Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. 16 qilishi to‘g‘risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o‘zining “Hermenevtika” asarida: “Asarning janri muallif niyatiga ko‘ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. She’riy asar ustida ishlayotgan muallif so‘zlarni nasrdagidan tamomila o‘zgacha yo‘sinda ishlatadi. Poetik so‘zni nasriy sochma so‘z kabi talqin etishga urinishi uning ma’nosini buzishdir. Nasrda o‘z ma’nosidagi so‘zni, she’riyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi”¹⁴ deb yozadi. Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo‘ladi. Taniqli metodist M.A.Ribnikova: “Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi...Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she’rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Kichkina hikoya to‘liq hajmda o‘qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o‘quvchilarning badiiy o‘qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o‘qituvchining o‘zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko‘zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi”¹⁵. Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib turadi. Prof. Q.Yo‘ldoshevning yozishicha, “turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin o‘quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o‘zgaradi” Buning juda katta nazariy va amaliy ahami-

yati bor. Zero, “asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko‘ra o‘rganish san’atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi”¹⁶. 14 Верклер А. Генри. Герменевтика. Gospel literature services, Schaumburg, Illinois, USA, 1995. С. 55. 15 Ribnikova asari 16 Qozoqboy Y o‘ldosh, Muhayyo Y o‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. - Toshkent.: Kamalak, 2016. 17 Tasvirga qamrab olingan hayotiy borliq ko‘lami-ning kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-hodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadigan epik asarlarni tahlil qilish ham o‘ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Epik asarlarda qahramonlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko‘ra, shu tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko‘rsatishga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko‘lamdor va ko‘p bosqichli kechimdir. Epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqebandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egalikdir. Qaysi janrda bo‘lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda qahramonlar bo‘ladi, ular ozdir-ko‘pdir voqealar qo‘ynida tasvirlanadi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar tasviri asnosida namoyon bo‘la boradi. Epik asarda ham dramadagi singari makon va zamonda sodir bo‘lgan voqelar aks ettiriladi. Epik bayon nafaqat estetik, balki tashkiliy funktsiya ham bajarishi kerakligi epik asarning o‘ziga xosligini ta‘minlaydigan muhim jihatlardan biridir. Nutq egasi, so‘zlovchi yoki bayonchi go‘yo oldin yuz bergan voqeani hikoya qilib berayotganday bo‘ladi va ayni vaqtda yo‘lyo‘lakay turli holatlarni, qahramonlar qiyofasini tasvirlaydi, ba‘zan izohlaydi. Epik asarlarning, odatda, hajman yirikligi, lirik turdagi asarlar singari bir zarb bilan o‘qib chiqib bo‘lmazligi, uning badiiy ta‘sir ko‘rsatish kechimi ham bir necha bosqichli bo‘lishi mumkinligi tahlilda e‘tiborga olinishi lozim. Bu xil asarda tuyg‘ular oqimi bir tarafga yo‘nalgan bo‘lmaydi. Unda to‘qnashuvlar, his-hayajonlar, olqish-u qarg‘ishlar, ma‘qullash-u inkorlar g‘oyat sertarmoq bo‘ladiki, muayyan asar tadqiqi bilan shug‘ullanayotgan shaxs ana shu sertarmoq badiiy oqimlar orasida kalavasini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak. Hajm va ko‘lam epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan omillardir. Epik asarlarda muallif tuyg‘usi ham, lirik asarlarda deyarli bo‘lmaydigan qahramon kechinmalari ham, ko‘pincha, ochiq holda

kelmaydi. Bu xil asarlarda 18 hissiyot voqealar tasviri qatiga berkitilgan bo‘ladi. Qahramonlarni voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tafsilotlar zahiriga joylash imkonini beradi va kitobxon bu sezimlarni ilg‘ab olgandagina asar mohiyatini anglab etadi. Tahlilchi o‘z mijozlarida ayni shu, ya‘ni epik asar zahiridagi badiiy ma‘noni ilg‘ab olib, undan muayyan mantiqiy xulosa chiqara bilish malakasini shakllantirish orqali asarning hayotiy va badiiy jozibasini kashf eta olishi kerak. Ta‘kidlab aytish kerakki, tahlil qilinadigan asar hajman qanchalik yirik, voqealar tasviri qanchalar serqatlam, qahramonlar soni nechog‘lik ko‘p bo‘lmasin, epik asar mazmunini qayta so‘zlab berish badiiy tahlil sifatida taqdim etilishi mumkin emas. Buning uchta sababi bor. Birinchidan, tahlilchi qanchalik mahoratli bo‘lmasin, badiiy asarni adibning o‘ziday aytib berolmaydi va buning keragi ham yo‘q. Chunki matn bilan tanishganlar asar mazmunini bilishadi. Ikkinchidan, asarni o‘qimagan odamlarga asar matnini uning tarovatini bir qadar yo‘qotib hikoya qilib berishning aslo foydasi yo‘q. Negaki, bunda tinglovchiga asarning o‘zi emas, u haqdagi xira tasavvurgina yetib boradi, xolos. Tahlilchi nechog‘lik urinmasin, u ayni asarni bitgan yozuvchi bo‘lolmaydi. Ayni asarni yorug‘ olamda ayni shu yozuvchigina yoza oladi. Tahlilchi asar mazmunini hikoya etish orqali tinglovchilarni undagi qiziqarli voqealardan xabardor qilishi mumkindir, ammo asarda tasvirlangan insoniy xarakter, kechinma, hissiyot va ularni tug‘dirgan ochiq-yashirin sabablarni tuydira olmaydi. Tekshirilayotgan asar mazmunini so‘zlab berish mumkin emasligining uchinchi bir sababi matn mazmuni aytib berilgan holda asarning barcha unsurlarini tahlil qilib bo‘lmaydi. Negaki, badiiy yaratilgan esda qolgan o‘rinlarigina tilga olinib, adabiy asar zahiridagi estetik ma‘no noma‘lumligicha qolaveradi. Epik asarlarni tahlil qilishda uning hajmi, tasvirning murakkablik darajasi hisobga olingan holda ish ko‘riladi. Hajm taqozo etishiga qarab, asarni badiiy tahlilning avval aytilgan uch usulidan birini yoki barini qo‘llagan holda tekshirish zarur. Mabodo, tahlil qilinadigan asar juda yirik bo‘lsa, tahlilchi, oldin asarning eng qiziqarli, badiiy jihatdan eng muhim, bir 19 qator intellektual-estetik operatsiyalar yordamidagina anglanadigan jihatini tahlilga tortishi lozim. Buning uchun asar umumiy estetik butunlikka zarar yetkazilmaydigan tarzda badiiy ma‘noli qismlarga ajratib olinishi zarur. Bunda o‘quvchi diqqatini o‘ziga beixtiyor tortadigan, qahramonlar tabiati

yorqin namoyon bo'ladigan, muallif mahorati ko'zga balqib tashlanadigan, qahramonlar ruhiy dunyosi bo'rtiq aks etgan o'rinlar nazardan qochirilmasligi kerak. Badiiy tahlilda matndagi muhim jihatni nomuhimdan ajratish, asar qahramonlariga jonli odam tarzida munosabatda bo'lish kerak. Shunday qilinganda, badiiy tahlil asnosida timsolning o'ziga xosligi va adibning san'atkorligi namoyon bo'ladi. Ko'pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi qahramonlardan g'oya qidirishga tutinishadi va shu bois turli asarlardagi mutlaqo boshqa-boshqa qahramonlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g'oyalar ko'pda o'xshash, gohida mutlaqo bir xil, lekin cheksiz olamda bir-biriga to'liq o'xshash bo'lgan ikki kishi yo'q. Badiiy asar va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu o'xshamaslikning, o'ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozimdir. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik amaliyotida Yo'lchi va G'ofir, Jamila va Gulnor, Saida va Zaynab, Otabek va Anvar, Kumush va Ra'no timsollariga uzoq vaqt mobaynida bir xil baho berib kelingan. Bunga sabab adabiyotshunoslikda bu qahramonlarga individual qiyofaga ega jonli odam sifatida yondashilmagan va ulardan faqat g'oya qidirilib, ijtimoiy xulosa chiqarishga urinilgan. Epik asarlarni tahlil etishning usullari juda ko'p va tekshirilayotgan epik asar qancha bo'lsa, tahlil ham o'shancha o'ziga xosliklarga ega bo'laveradi. Adabiy tahlilda biror qolipni yasab olib, har doim shundan foydalanaman degan mutaxassis xato qiladi. Epik asar o'rganilayotganda qahramonlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig'iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. Ya'ni epik asar tahlil qilinayotganda, obrazlarning gap-so'zlari, qiliqlari, fikrlari ularning sajiyalariga muvofiqligi, ruhiy jihatdan asoslanganiga e'tibor qilinishi va 20 asarning asl qiyamati ana shulardan keltirib chiqarilishi lozim. Epik asar tahlili faqat mantiqiy operatsiyaga aylanib qolmasligi, balki hamisha asardan go'zallik topishga intilish diqqat markazida turishi joiz. Nasriy til jozibasini, turlituman badiiy vositalar tufayli tug'ilgan estetik mo'jizalarni payqay olish, bundan lazzatlanish hamda shu lazzatning manbasini tushunish va zarur bo'lsa, tushuntirib bera olish kishining manaviy yuksalishida beqiyos katta ahamiyat kasb etadi. Epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o'zgacha estetik nazar bilan ko'rish mumkinligi ko'zda tutilishi o'quvchilarni xilma-xil ijodiy yo'nalishdagi, turli janrlardagi badiiy hodisalarni qabul qilish va asl san'at asarlarini ommabop bitiklardan ajrata olishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Asosiy adabiyotlar

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т. «Ўқитувчи”. 1980.
2. Н.Хотамов, Б.Саримсоков. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т. “Ўқитувчи”. 1988.
3. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.
4. То‘хлиев В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
5. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016. – 462 б.
6. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.
7. Yo‘ldoshev. Q. Yoniq so‘z. –Т.: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
8. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 b.
9. Karimov B. Aadabiyotshunoslik myetodologiyasi. –Т.: Muharrir, 2011.
10. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. (1-2-qism) – Т.: Mumtoz so‘z, 2016.
11. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Т.: Akademnashr, 2018.
12. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldoshning “Badiiy tahlil asoslari” kitobidan qaydlar. –Т.: Kamalak, 2016. –464 в.
13. То‘хлиев В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Т.: Yangi asr avlodi, 2006. –152 b.
14. Boboyev T. Oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek she‘riyati poetikasi asoslarini o‘rganish. –Т.: DDQ, 1997. – 268 b.
15. Valijon Qodirov. Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar. Monografiya. Milliy k.n. –Т.: 2009. – 244 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёв Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қо-

идаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 102 бет.

2. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Монография – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

3. Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. Москва: Педагогика, 1992. 560с.

4. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер.с итал. –Гомель. 1993.

5. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 145 б.

6. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиёти-ни ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.

7. Азимов Э.Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с.

Internet saytlari

<https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

www.ziyo.com kutkbxonasi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – S.pdf (SECURED) 407-бет.

http://fikr.uz/blog/utkir_hoshimov/azhdodlar-abadiyligi.html

<http://dic.academic.ru/> 23. www.ozbekadabiyoti.com.

www.ziyo.uz.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
“Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi” fanining o‘rganish obyekti, maqsad va vazifasi.	5
Xalq og‘zaki ijodi. Qadimgi asotir, rivoyat va afsonalar. Maqol, masal va topishmoqlarni o‘rganish metodikasi	14
“Xalq ertaklari” mavzusini o‘rgatish bo‘yicha ilmiy metodik tavsiyalar. Xalq dostonlarini o‘rganishning muhim metodologik jihatlari. Doston turlari. Yozma dostonlar.....	30
Xalq qo‘shiqlarini o‘rgatishning zamonaviy usullari	58
Hikoya janri. Mazmuniga ko‘ra hikoya turlari. Hikoyalarni o‘qitishning mumtoz va zamonaviy o‘qitish metodlari.....	64
O‘rta epik janrlar. Qissa janri namunalarini o‘qitish usullari. Katta epik janrlar. Roman va uning turlari. Romanlarni o‘qitishning dolzarb va maqbul usullari.....	70
She‘r va uning tuzilishi. Aruz va barmoqdagi she‘rlarni o‘qitish bo‘yicha zamonaviy usullar.....	76
Mumtoz adabiy janrlar: g‘azal va qit‘a. Tuyuq, ruboiy va fardlar. Musammatlar. Mumtoz she‘r unsurlari, ularni o‘rganish metodlari	93
Tasavvuf adabiyoti. So‘fiyona asarlarni zamonaviy metodlar orqali o‘qitish	99
Qasida janri. Mumtoz va zamonaviy qasidalarini eng zamonaviy ilmiy-amaliy metodlar yordamida o‘qitish	104
Didaktik adabiyot. Pandnoma asarlarni o‘rganishda mumtoz va hozirjavob metodlar.....	107
Yodnomalar. “Boburnoma” asarini o‘qitishning muhim metodologik jihatlari	110
Hajviyalar. Hajviy adabiyotini o‘qitishning maqbul metodlari.....	117
Zamonaviy modern o‘zbek she‘riyati namunalarini o‘qitish metodologiyasi.....	123
Dramatik asarlarni innovatsion va zamonaviy metodlar bilan o‘qitish	134
Badiiy asarni baholash kriteriyalari. Badiiy asarni baholashda kitobxon va adabiy jarayon bahosi.....	138

Adabiy ta'lim bosqichlarida o'rganiladigan kichik nasriy asarlarni o'rganish metodikasi.....	141
Adabiy ta'lim bosqichlarida o'rganiladigan katta epik janrlarni o'rganish metodikasi.....	146
Mumtoz g'azal janrini o'qitish metodikasi.....	155
Ta'lim bosqichlarida dramatik janrlarni o'rganish yo'llari	164
Adabiyotlar ro'yxati:	169

Muharrir: X. Tahirov
 Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
 Musahhih: M. Yunusova
 Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.
 Bosishga ruxsat etildi 11.11.2022.
 Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
 garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 11,0.
 Adadi 100 dona. Buyurtma № 125.

«BOOK TRADE 2022» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
 Manzil: Toshkent v., Chirchiq sh., Madaniyat MFY,
 Saodat ko'chasi, 17-1.